

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi

Andijon davlat universiteti

ABDUHAMID NURMONOV

Lingvistik tadqiqot metodologiyasi va metodlari

***(“Lingvistika” yo'nalishidagi magistrLAR uchun o'quv-uslubiy
qo'llanma)***

Toshkent – 2010

Ushbu asar Zahiriddin Muhammad Bobur nomidagi Andijon davlat universiteti Ilmiy kengashi tomonidan o`quv qo`llanma sifatida nashrga tavsiya etilgan.

Qo`llanmada fan metodologiyasi, metafizik, dialektik, germevntik, fenomenologik, sinergetik singari umumfalsafiy, shuningdek, tavsifiy, qiyosiy, glottoxronologik, kvantitativ, struktur kabi xususiy ilmiy metodlar haqida bahs yuritiladi.

Risola filologiya sohasidagi yosh ilmiy tadqiqotchilarga, lingvistika yo`nalishidagi magistrantlarga, filologiya yo`nalishidagi malaka oshirish kurslari tinglovchilariga mo`ljallangan.

Muharrir:

filologiya fanlari
doktori, prof. D. Quronov

Taqrizchilar:

falsafa fanlari
doktori, prof. T. Ortiqov

filologiya fanlari nomzodi,
dots. M. Saidxonov

So'zboshi

Har qanday ilmiy tadqiqot muayyan metodologiya va metodlarga tayanadi. Metodologiya va tekshirish metodidan holi bo'lgan hech qanday ilmiy tadqiqot mavjud emas. Tadqiqotchining o'rganayotgan ob'ekt mohiyatini haqqoniy yoritishida qanday metodologiya va metoddan foydalanishi juda katta ahamiyatga ega. Shuning uchun ham ilmiy tadqiqot jarayoniga qadam bosayotgan yosh izlanuvchi umumiy fan metodologiyasi va xususiy ilmiy metodlar haqida etarli ma'lumotlarga ega bo'lishlari zarur.

Lekin ayrim nomzodlik va hatto doktorlik dissertatsiyalarining "Tadqiqotning umumiy tavsifi" qismiga nazar tashlasangiz, metodologiya va ilmiy tadqiqot metodlaridan yetarli xabardor emasligi, xususiy ilmiy metodlardan maqsadga muvofiq ravishda, o'rinli foydalana olish ko'nikmasiga ega emasligi ma'lum bo'ladi.

Bundan yigirma yillar oldin mashhur tilshunos Yu.Stepanov ham "Hozirgi tilshunoslikning g'oyalari va metodlari" asarida yosh tadqiqotchilar asarlarida metodologiya va muayyan xususiy ilmiy metodga tayanish masalasida oqsoqlik kuchayayotganini ta'kidlagan edi.

Mustaqillik sharoitida keng rivojlanish imkoniyatiga ega bo'lgan o'zbek tili fani ham metodologik, ham xususiy ilmiy tadqiqot metodlari nuqtai nazardan boyidi. Sho'rolar davrida "burjua metodologiyasi" va "burjua fani metodlari" tamg'alari ostida qoralangan bir qator metodologiya va metodlardan foydalanish imkoniyati yaratildi.

Bu esa yoshlarni bugungi kundagi tadqiqotlar uchun asos bo'lishi mumkin bo'lgan fan metodologiyalari va foydalanishi lozim bo'lgan xususiy ilmiy metodlar bilan tanishtirish muammosini kun tartibiga qo'ydi. Ana shunday hayotiy ehtiyoj tufayli magistratura o'quv rejasiga "Ilmiy tadqiqot metodologiyasi" kursi kiritildi. Mustaqillik davrida metodologiya va metod muammosiga jiddiy e'tibor berilganligi sababli bu masalaga doir N.Shermuhmedova va Q.Nazarovlarning maxsus asarlari dunyoga keldi. Bu asarlar umumfalsafiy xarakterga ega bo'lib, xususiy ilmiy metodlar uchun nazariy asos rolini o'ynaydi. Shu bilan birga falsafiy metodlarni xususiy ilmiy metodlarga bog'lovchi, xususiy ilmiy metodlarning o'ziga xos xususiyatlarini yorituvchi asarga ehtiyoj sezilmoqda. Qo'lingizdagi risola ana shu ehtiyojni qondirishga bag'ishlanadi. Ushbu qo'llanma yosh lingvistlar uchun mo'ljallangan. Shuningdek, undan metodologiya va metod masalalariga qiziquvchi barcha yosh tadqiqotchilar foydalanishlari mumkin. Bu asarning maydonga kelishi va nashrga tayyorlanishida yaqindan yordam bergan filologiya fanlar nomzodi D.Ne'matovaga muallif chin ko'ngildan minnatdorlik bildiradi.

1-mavzu: Ontologiya va gnoseologiya haqida ma'lumot
Bilish va uning ahamiyati
Reja:

1. Gnoseologiya
2. Epistemologiya
3. Ontologiya va gnoseologiya munosabat.

Tayanch so'z va iboralar: *Ontologiya, gnoseologiya, epistemologiya, ontologiya va gnoseologiya munosabat, tilning ontologik xususiyati, fenomen, nutqiy faoliyat*

Gnoseologiya yunoncha gnosis – “bilish”, logos “ta'limot” so'zlaridan olingan bo'lib, bilish haqidagi ta'limot demakdir. Gnoseologiya umuman bilish nazariyasi, bilish falsafasi sanaladi. U insonning bilish tabiati va imkoniyatlari, bilimning voqelikka munosabatini o'rganuvchi, uning haqiqiyliги va ishonchliligini aniqlash yo'llari, usullari to'g'risidagi falsafiy fandır.¹

“Olam va odam” tizimida dunyoni anglash, sub'ekt va ob'ekt o'rtasidagi munosabatlar dialektikasi gnoseologiyaning o'rganish muammolari sanaladi.

Insonning bilish faoliyatida nutq muhim ahamiyat kasb etadi. Jonzotlar ichida oliy zot sifatida insongagina, Pavlov ta'biri bilan aytganda, ikkinchi signal sistemasi ato etilgan. Insondan boshqa jonzotlar faqat birinchi signal sistemasiga, ya'ni ob'ektiv olamni faqat sezgi a'zolari yordamida his qilish qobiliyatiga ega bo'lsa, inson bundan tashqari akustik signallar orqali ob'ektiv olam haqida ma'lumot uzatish va uni qabul qilish qobiliyatiga ega.

Nutqiy faoliyat orqali inson o'zi bevosita guvoh bo'lmagan narsa–hodisa, harakat-holat, belgi–xususiyatlar haqida axborotga ega bo'ladi. Ajdodlar qo'lga kiritgan hayotiy tajribalarni to'plab, kelajak avlodga etkazib beradi. Tilning ana shu vazifasi akkumulyativ vazifa sanaladi va ana shu vazifasi bilan gnoseologik qimmatga ega bo'ladi.

Til falsafiy jihatdan gnoseologik va ontologik tabiatga ega bo'lgan murakkab fenomendir. Ontologik tabiatga ega bo'lgan murakkab tilga gnoseologik nuqtai nazardan yondoshilganda, birinchidan, insonning til orqali olamni bilishi, tilning ob'ektiv borliq uzvlarini nomlash (onomosiologik) vazifasi, ikkinchidan, tilning shu til egalarining olam haqidagi bilimlari to'plami ekanligi (akkumulyativ vazifasi) yoritiladi.

Tilning ontologik xususiyati deganda, uning o'ziga xos ichki tuzilishiga ega bo'lgan ob'ektiv hodisa ekanligi tushuniladi. Tilning ontologik tabiati gnoseologiya uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Chunki til haqidagi fan tilning ontologik tabiati haqidagi fandır. Shuning uchun ham falsafada ontologiya va gnoseologiyaning bir–biri bilan uzviy bog'liq ekanligi e'tirof etiladi. Ontologiya borliq to'g'risidagi umumiy ta'limot, borliqning fundamental asoslarini, umumiy mohiyatini va mavjudlik kategoriyalarini o'rganuvchi falsafaning bo'limi sifatida gnoseologiya masalalari uchun asos, manba bo'lib xizmat qiladi. Gnoseologiyaning barcha tushunchalari va tamoyillari o'zining ontologik talqiniga, ontologik jihatiga ega. Demak, gnoseologiya va ontologiya falsafaning o'zaro uzviy bog'liq bo'lgan ikki bo'limidir. Ularning uzviy bog'liqligi shundaki, gnoseologiya ontologik, ontologiya esa gnoseologik tabiatga egadir.

Bilish ko'p bosqichli jarayondir. Hozirgi kunda bilishning hissiy (empirik) va nazariy (ratsional) bilish, amaliy va ilmiy bilish turlari bir–biridan ajraladi. Bu jihatdan gnoseologiya tarkibidan epistemologiya alohida yo'nalish sifatida ajralib chiqdi. Gnoseologiya umumiy bilish nazariyasi, umuman, bilish haqidagi ta'limot bo'lsa, epistemologiya ilmiy bilish haqidagi ta'limotdir.

Savol va topshiriqlar:

1. Bilish nima?
2. Gnoseologiya qanday fan?

¹ Билиш фалсафаси. – Тошкент: “Университети”: 2005, 64-бет.

3. Ontologiya falsafaning qanday bo'limi?
4. Epistemologiya haqida o'z tushunchangizni ayting.

Adabiyotlar

1. Билиш фалсафаси. – Тошкент: “Университети”: 2005, 64-бет.
2. Скирбекк Г., Гилъе Н. Фалсафа тарихи. –Тошкент: Шарк, 2002.
3. Нурмонов А. Ўзбек тилшунослиги тарихи. -Тошкент: Ўзбекистон, 2002.
4. Нурмонов А. Структур тилшунослик: илдизлари ва йўналишлари. -Тошкент: 2009.
5. Нурмонов А., Искандарова Ш. Тилшунослик назарияси. -Тошкент: Фан, 2008.

2-mavzu: Empirik va ratsional bilish

Reja:

1. Bilish va uning turlari.
2. Empirik bilish va uning bilish tizimidagi o'rni.
3. Ratsional bilish va uning imkoniyatlari.
4. Empirik va ratsional bilish o'rtasidagi munosabat.

Tayanch so'z va iboralar: *empirik bilish, ratsional bilish, tushuncha, xulosa, hukm, muammo, faraz, nazariya.*

Har qanday fan asosida kishilarning olamni bevosita kuzatishi yotadi. Inson o'zini qurshab turgan olam uzvlarini sezgi organlari yordamida his qiladi, boshqalariga solishtiradi, farqli va o'xshash belgilarini aniqlaydi, so'ngra muayyan xulosaga keladi. Demak, har bir fan insonlarning olamni kuzatishi, bilishi jarayonida, uning natijasida paydo bo'ladi.

Fanning asosi bo'lgan bilish uzoq vaqtlardan buyon mutafakkirlarni qiziqtirib keladi. Jumladan, bizning bobokalonlarimiz ham bu sohada o'zlarining qimmatli fikrlarini bayon qilganlar.

Dunyo allomalari ichida ikkinchi muallim nomi bilan mashhur bo'lgan Forobiy bilishning ikki darajasini ajratadi. Xususan, u “Ilmlarning kelib chiqishi to'g'risida» («Ixxo al-ulum») asarida ilmning kelib chiqish sabablari haqida fikr yuritib, quyidagilarni bayon qiladi: “Olamda substantsiya (javhar) va aktsidentsiya (oraz) hamda substantsiya va aktsidentsiyani yaratuvchi Marhamatli ijodkordan boshqa hech narsa yo'qdir”.

Forobiyning tilga olgan javhar va oraz haqidagi bu fikri bilish nazariyasida buyuk inqilob edi. Chunki bizni qurshab turgan olam va uning unsurlari javhar va orazlarning o'zaro dialektik munosabatidan tashkil topgandir.

Forobiy tilga olgan javhar va oraz tushunchalari ostida nima yotadi? Har qanday narsa dastlab bizning sezgi organlarimizga ta'sir qiladi. Ana shu sezgi organlarimiz yordamida his qilish mumkin bo'lgan belgilar oraz sanaladi. Oraz Aristotel falsafasidagi aktsidentsiyani bildiradi.

Forobiyning tushuntirishicha, orazni besh sezgi organlari yordamida his etamiz.

Xususan, rang ko'rish sezgi organi orqali; ovoz eshitish organi orqali; maza-ta'm – maza sezgi organi orqali; predmetlarning holati: sovuq-issiqdigi, qattiq-yumshoqligi tana sezgisi orqali, hid hidlash organi orqali his etiladi.

Bu sezgi organlari insondan tashqari hayvonlarda ham mavjuddir. Demak, yuqoridagi sezgi organlari barcha jonzotlarga xos. Ular orqali har qanday jonzot o'zini qurshab turgan olamni amaliy biladi, unga moslashadi.

Har qanday fan amaliy bilish ustiga qo'yilgan nazariy bilimga asoslanadi. Bilish esa falsafa fanining asosi sanaladi. Nazariy falsafa asoschisi I.Kant uning o'rganish predmeti narsalar (tabiat va jamiyat) emas, balki insonning bilish faoliyatini ilmiy tekshirishdan, inson aqliy faoliyatini aniqlashdan iborat ekanligini ta'kidlagan edi.

Falsafa insonning o'z mohiyatini anglashi, borliqning turli sohalariga oid bo'lgan hodisa va voqealar haqida ularning tub mohiyatini ifodalaydigan umumiy xulosalar chiqarishi demakdir.

Falsafiy tafakkur olamdagi narsa va hodisalarni fikrda umumlashtirib, o'zaro bog'liqlikda va rivojlanishda o'rganish, ularning mohiyatini chuqurroq va to'laroq bilishdir. Falsafa markazida borliq va uni bilish muammosi yotadi.

I.Kantning ta'kidlashicha, bizning ongimizdan tashqarida, unga bog'liq bo'lmagan holda «narsalar olami» mavjud. Bunday narsalarni u «narsa o'zida» deb nomlaydi. Bilish ana shu «narsa o'zida»ning sezgi organlarimizga ta'siri natijasida hosil bo'ladi. Uning fikricha, sezgi organlarimizga ta'sir qiladigan «narsa o'zida»ning sir-asrorlarini bilish mumkin emas.

Gegelning fikricha, dastlab olam va tafakkur ayniyati bo'lgan va bu ayniyat dunyoning substantsional (zotiy) asosini tashkil etgan. Tafakkur faqat sub'ektiv inson faoliyatigina emas, balki ob'ektiv mohiyat, barcha mavjudotning birlamchi manbai bo'lgan. Tafakkur modda, tabiat holida o'zini «begonalashtiradi». «Absolyut g'oya»ning oliy taraqqiyot bosqichi «absolyut ruh», ya'ni insoniyat, insoniyat tarixi sanaladi.

Gegel tarixiy jarayonning dialektik xarakterini tadqiq qilar ekan, til taraqqiyotiga alohida ahamiyat beradi. U tilni nazariy aqlning yaratuvchisi hisoblaydi, chunki til uning tashqi ifodasi sanaladi.

Insonning sezgi organlari yordamida hosil bo'lgan bilimi hissiy yoki amaliy bilish sanaladi. Bularidan tashqari, inson xayol surish, nutq yordamida ham bilimga ega bo'lishi mumkin. Bilishning bu yo'li quvvai notiqa va quvvai mutahayyila deyiladi. Notiqa quvvati boshqa barcha quvvatlarning (sezgilarning) etakchisidir.

Hissiy bilim bilish jarayonining markaziy nuqtasi sanalsa ham, lekin u ko'pincha aldab qo'yishi mumkin. Masalan, Quyosh er atrofida aylanayotganday ko'rinadi, aslida esa aksincha.

Shuning uchun bizning ajdodlarimiz hissiy bilish bilan idrokiy bilishni ajratganlar. Idrokiy bilish hissiy bilimlarni solishtirish, qiyoslash, umumlashtirish, hissiy bilimlarning hosil bo'lishiga asos bo'lgan orazlar (aktsidentsiyalar) zamirida yashiringan mohiyatni – javharni aniqlash orqali hosil qilinadi. Masalan, tanada isitmaning ko'tarilishini aniqlash hissiy bilim sanaladi. Lekin har qanday harorat o'z-o'zidan ko'tarilmaydi. Uning ma'lum ichki sabablari bor. Ana shu sababni aniqlash isitmaga o'xshash, u bilan bog'liq bo'lgan bir qancha hissiy bilimlarni solishtirish, qiyoslash, umumlashtirish orqali amalga oshiriladi va isitma nimaning alomati ekanligi belgilanadi.

Solishtirish, qiyoslash, mantiqiy umumlashtirish orqali hosil qilingan bilim idrokiy, nazariy bilim sanaladi. Bu bilim orqali orazlar zamiridagi javhar belgilanadi. Har qanday fan ana shu belgilarni keltirib chiqaradi.

Bundan ko'rinadiki, hissiy (fahmiy) bilim tajriba, amaliyot, bevosita kuzatish bosqichi sanalib, haqiqiy nazariy (idrokiy) bilim amaliy bilimlarning o'zaro munosabatini o'rganish, umumlashtirish orqali hosil qilinadi va bu bilimga ega bo'lish har qanday fanning bosh maqsadidir. Bilishning bu ikki bosqichi hozirgi davrda barcha fan vakillari tomonidan e'tirof qilinadi. Jumladan, tilshunoslikda ham bu ikki usulga amal qilinadi. Qaysi usulga tayanishga ko'ra tilshunoslik amaliy va nazariy tilshunoslikka bo'linadi.

Bilish faqat fan bilan chegaralanmaydi, fan insonning bilish faoliyatining faqat bir qismini tashkil etadi. Inson o'zini qurshab turgan ob'ektiv olamni doimo bilishga intiladi. Bilish diniy, afsonaviy, empirik va ratsional bo'lishi mumkin.

Kishilar olamning yaralishi, tabiat hodisalari, koinot va odamzod munosabati haqida fikr yuritganlar va ular haqida turli bilimga ega bo'lganlar, ezgulik va yovuzlik kuchlari haqida xilma-xil afsonalar paydo bo'lgan. Olamning diniy va afsonaviy manzarasini yaratganlar.

Ilmiy bilish dinamik jarayondir. U rivojlanuvchi bilimlar sistemasi sanaladi. Shunday ekan, u bilishning turli bosqichililigiga ega bo'ladi. Olamning ilmiy manzarasini yaratishda, uni ilmiy bilishda o'zaro uzviy bog'liq, bir-birini taqozo qiluvchi, ikki bosqich ajralib turadi: 1) empirik (amaliy) bosqich; 2) nazariy (ratsional) bosqich. Bilishning bu bosqichlari o'zaro bog'liq bo'lishi bilan birga, o'ziga xos jihatlari bilan farq qiladi.

Empirik bilish. Empirik bilishga asoslangan bilish yo'nalishi empirizm sanaladi. Bu yo'nalish bilishning yagona manbai sifatida jonli kuzatishni, sezgi a'zolari orqali olingan bilimni, tajribani e'tirof etadi. Bunday bilim mazmuni tajriba bergan ma'lumotlarni tavsiflashni o'z ichiga

oladi. Demak, empirik bosqichda jonli kuzatish etakchilik qiladi. Ratsional moment va uning shakllari (hukm, tushuncha va boshq.) ishtirok etadi, lekin jonli kuzatishga nisbatan orqa planda turadi. Unga ko'makchilik vazifasini bajaradai. Shuning uchun ham o'rganilayotgan ob'ekt jonli kuzatishga berilgan belgilari asosida talqin qilinadi. Faktlarni yig'ish, ularni dastlabki umumlashtirish, kuzatish va eksperiment ma'lumotlarini tavsiflash, ularni tasniflash va boshqa faktlarga asoslangan faoliyat empirik bilishning asosiy xususiyatlari sanaladi.

Empirik tadqiqotlar bevosita (oraliq uzvlarsiz) ob'ektga yo'naltiriladi. Bu ob'ektlarni qiyoslash, o'lchash, kuzatish, eksperiment, analiz, induksiya usullari asosida o'zlashtiradi. Uning eng muhim elementi fakt sanaladi.

Har qanday ilmiy tadqiqot faktlarni to'plash, sistemaga solish va ularni umumlashtirishdan boshlanadi. Fan taraqqiyotida faktlarning ahamiyati kattadir. Shuning uchun ham V.I. Vernadskiy: "Ilmiy faktlar ilmiy bilim va ilmiy tadqiqotlarning bosh mazmunini tashkil qiladi. Ular asosida empirik umumlasmalar qilish, muayyan ilmiy faktlar sistemasini ajratish mumkin", - degan edi.

Faktlar ilmiy tadqiqot uchun asos bo'lib xizmat qilishiga qaramasdan, uning quliga aylanmaslik kerak. Har qanday fakt sub'ekt tomonidan konseptuallashtirilgan, muayyan nazariy tasavvur bilan singdirilgan bo'ladi. Shuning uchun ma'lum miqdordagi faktlarni to'plab, ularni muayyan konseptual sistemaga birlashtirish lozim bo'ladi. Tadqiqotchi ko'r-ko'rona faktlarni izlamaydi. Faktlarni to'plashda muayyan maqsaddan, vazifadan, g'oyadan kelib chiqadi.

Shunday qilib, empirik tajriba hech qachon, ayniqsa, hozirgi zamon fanida ko'r-ko'rona bo'lmaydi. U nazariya bilan rejalashtiriladi. Shuning uchun faktlar doimo nazariy yukka ega bo'ladi. Fanning boshlanishi, uning tayanch nuqtasi yalang'och faktlar emas, balki nazariy sxemalar, borliqning konseptual sinchlari sanaladi. Ular abstrakt ob'ektlar (ideal konstruktlar), konseptual modellar va boshqalardan iborat bo'ladi.

A. Uaytxed ilmiy bilish ikki qatlamning birlashuvidan iborat ekanligini ta'kidlaydi: ulardan birinchisi konkret kuzatish yordamida olingan bevosita borliq faktlari, ikkinchisi ularning kontseptuallashtirilgan faktlaridan iborat. Birinchisini kuzatish qatlami, ikkinchisini kontseptual qatlam tashkil qiladi. Birinchisi doimo ikkinchisidagi tushunchalar yordamida tavsiflanadi.

Ko'rinadiki, nazariyadan ajralgan quruq faktlar ilmiy qimmatga ega bo'lmaydi. Faktlardan ajralgan nazariya ham bo'lmaydi.

Ko'p adabiyotlarda "metod" va "usul" atamaları bir xil ma'noda qo'llaniladi. Ayrim mualliflar esa usulni metodning tarkibiga kiruvchi qism sifatida tushunadilar. Bunday vaqtda metod bir qancha tadqiq usullaridan tashkil topgan murakkab bilish yo'lini ifodalaydi. Darhaqiqat, har bir metod o'z tadqiqot usullari bilan bir-biridan farq qiladi. Empirik metod ham butunlik sifatida quyidagi usullarni o'z ichiga oladi: 1) kuzatish; 2) eksperiment; 3) qiyoslash.

Tilshunoslikda empirik metodga asoslangan tilshunoslikni tavsifiy tilshunoslik deyiladi.

Tavsifiy tilshunoslikda har qanday tadqiqotning ibtidosi *kuzatish* sanaladi. Sezgi a'zolari orqali kuzatishga berilgan faktik materiallar yig'iladi.

Kuzatish jarayonida o'rganilayotgan ob'ektning faqat tashqi belgilari haqidagi bilimagina emas, balki uning muhim xossalari va munosabatlari haqida ham bilimga ega bo'lamiz.

Empirik bilishda eksperimentning ham o'rni beqiyosdir. O'rganilayotgan ob'ektni muayyan sharoitda ma'lum vositalarni qo'llagan holda alohida ajratib tadqiq etishga e'tibor qaratiladi. Masalan, *paxta navini yetkazish*, uning tolasi sifatini aniqlash va h.

Lingvistik tadqiqotlarda ham bu usul katta ahamiyatga ega. Masalan, tovushlarning akustik-artikulyatsion belgilarini kuzatish usulida aniqlash qiyin kechgan hollarda eksperimental usulga murojaat qilinadi.

Shuningdek, empirik bilishda qiyoslashning ham ahamiyati katta. Har qanday shaxs yangi o'rganilayotgan ob'ektni oldin o'rganilgan ob'ektga qiyoslaydi. Ular o'rtasidagi o'xshash va farqli tomonlarni aniqlaydi. O'rganilayotgan ob'ektni boshqa ob'ektlar bilan o'xshash belgilari

asosida muayyan sinflarga birlashtiradi, farqli belgilari asosida esa sinf tarkibida uning o'ziga xos xususiyatga ega ekanligini belgilaydi.

Nazariy bilishning o'ziga xosligi va uning shakllari. Ilmiy bilishning nazariy bosqichi ratsional jihatning ustuvorligi bilan xarakterlanadi. U tushunchalar, nazariyalar, qonunlar va boshqa tafakkur shakllari bilan ish ko'radi. Shu bilan birga jonli kuzatish, hissiy bilish uning tarkibidan soqit qilinmaydi, balki u bilish jarayonida ikkinchi planga o'tadi, ikkinchi darajali ahamiyat kasb etadi.

Nazariy bilim amaliy bilim bergan ma'lumotlarni qayta ishlash, ular o'rtasidagi ichki aloqa va munosabatlarni ochish, sezgi a'zolarimiz ta'siriga berilmaydigan mohiyatni aniqlash orqali qo'lga kiritiladi.

Nazariy bilishning eng muhim vazifasi ob'ektiv haqiqatga erishishdir. Buning uchun mavhumlashtirish, ideallashtirish, sintez, deduksiya singari bilish-vosita usullari keng qo'llaniladi.

Ilmiy bilish jarayonida *mavhumlashtirish* narsalarning bir qator xossalari va munosabatlaridan uzish, *ideallashtirish* esa sof fikriy predmetlarni yaratish, *sintez analiz* yordamida olingan elementlarni sistema tarkibiga birlashtirish, *deduksiya* bilish harakatining umumiydan xususiyga, mavhumlikdan konkretlikka qarab yo'nalishi orqali amalga oshiriladi.

Nazariy bilishning xarakterli xususiyati uning o'ziga qarab yo'nalishi, ya'ni bilish jarayonining o'zini uning shakllarini, usul va metodlarini, tushunchalar apparatini tadqiq qilish hisoblanadi. Ilmiy izohlash va aniqlangan qonunlarga tayanib ilmiy bashorat qilish, kelajakni oldindan ko'rishga erishiladi.

Nazariy bosqichda tafakkur orqali aniq o'z ifodasini topgan ratsional bilish yetakchilik qiladi. Shuning uchun ham nazariy bilish bosqichida tafakkurning o'rni beqiyosdir.

Inson tafakkuri nutq bilan uzviy aloqada maydonga keladi. Uning natijasi tilda belgilar sistemasi orqali o'z ifodasini topadi.

M.Born ilmiy bilishda tafakkurning muhim o'rni haqida fikr yuritar ekan, inson ongi tafakkur yordamida tabiat va tafakkur konunlari o'rtasidagi garmoniya natijasida tabiat sirlariga yo'l topishi mumkinligini ta'kidlaydi.

Ilmiy bilishda o'rganilayotgan ob'ektni mavhumlashtirishda tafakkur shakllari – tushuncha, hukm, xulosalarga tayaniladi.

Tushuncha hodisalarning ongda aks etgan eng muhim umumiy qonuniy aloqalari, muhim tomonlari va belgilarini aks ettiruvchi tafakkur shakli sanaladi. Masalan, odamning boshqa jonzotlardan farqlab turish belgisi mehnat qurolini yasashdir. Shuning uchun ham ana shu belgi odam tushunchasini hosil qilishda asos bo'ladi. Yoki *daraxt* tushunchasi zahirida tanadan shoxlanish belgisi yotadi va shu belgisi bilan unga yaqin bo'lgan tur *butaga* zidlanadi.

Tushunchalar so'zlar orqali ifodalanadi. Shuning uchun ham so'z ifodalovchi va ifodalanmish birligidan tashkil topgan belgi sanaladi va bu belgining ifodalanmish tomoni tushuncha yoki konsept sanaladi. So'z ob'ektiv olam uzvlari bilan, ya'ni denotat bilan konsept orqali bog'lanadi.

Hukm - borliqdagi narsa, hodisa, jarayonlarni, ularning xususiyati, aloqa va munosabatlarini aks ettiruvchi tafakkur shakli bo'lib, u gaplar orqali o'z ifodasini topadi.

Tushuncha va hukmlar xulosa uchun o'ziga xos "g'isht"lar bo'lib xizmat qiladi.

Xulosa – oldingi qo'lga kiritilgan bilimdan yangi bilim hosil qilish vositasi bo'luvchi tafakkur shaklidir. Hukmning asosiy tayanch nuqtasi sillogizmdir. Masalan, *Har qanday meva inson uchun foydali* gapidan anglashilgan hukm oldindan ma'lum. Endi *Olma – meva* degan hukmni oldingi hukmga qiyoslash asosida uchinchi hukm kelib chiqadi: *Olma inson uchun foydali*. Ana shu qiyoslash asosida chiqarilgan hukm xulosa bo'ladi.

Shuni ta'kidlash kerakki, ratsional bilish hissiy bilish bilangina emas, balki hissiy bo'lmagan bilim bilan ham munosabatda bo'ladi.

Bunday bilish shakllariga tasavvur qilish, fantaziya, intuitsiyalar kiradi. Yuqoridagi shakllar ichida ilmiy bilishda intuitsiya alohida rol o'ynaydi.

Muayyan mantiqiy hukmlarsiz, tayyorgarliksiz birdaniga, kutilmaganda ilmiy haqiqatga erishish intuitsiya sanaladi.

Intuitsiya tadqiqotchining chuqur mushohadasi asosida tayyorgarliksiz haqiqatga erishishdir. Intuitiv xulosalar tilshunoslikda ham tez-tez ko'zga tashlanadi. Masalan, F.de Sossyurning hind-ovrupo tillaridagi ilk unlilar tizimi haqidagi fikri uning intuitsiyasi natijasi edi. Yoki Ayyub G'ulomning kesimning gap strukturasidagi o'rni haqidagi fikri ham ana shu intuitsiyaga bog'lanadi.

Nazariy (ilmiy) bilish bilishning oliy shakli sifatida muayyan qismlar munosabatidan tashkil topgan sistema sanaladi. Demak, u muayyan ichki strukturaga ega. Uning muhim struktur komponentlari sifatida *muammo*, *taxmin* (gipoteza) va *nazariyalarni* ajratish mumkin. Bu komponentlar nazariy bosqichidagi bilimning tayanch nuqtalari sanaladi.

Muammo – nazariy bilish shakllaridan biri bo'lib, hali o'rganilmagan, lekin o'rganilishi lozim bo'lgan masalani o'z ichiga oladi. Boshqacha aytganda, u bilmagan narsamizni anglash, tadqiqot oldiga ana shu masalani bilishni qo'yish sanaladi. Oldingi bilimlarimizga tayangan holda hali echilmagan masalani anglash, tadqiqot oldiga to'g'ri va zarur muammoni qo'ya bilish ilmiy bilishning muhim bosqichidir.

Muammo – qotib qolgan bilish emas, balki u dinamik jarayondir. U bilish jarayonining ikki nuqtasini – masalaning qo'yilishi va hal etilishini o'z ichiga oladi.

Faraz – faktlar asosida kelib chiqqan taxminni o'z ichiga oluvchi ilmiy bilish shakli bo'lib, isbot qilishga ehtiyoj sezadi. Faraziy (gipotetik) bilim nisbiy xarakterga ega bo'lib, tekshirish, asoslashni talab qiladi. Farazlarni isbotlash jarayonida, ayrimlari xaqiqiy nazariyaga aylanadi, boshqalari aniqlanadi, konkretlashtiriladi, yana boshqalari hayotda tasdiqlanmay ilmiy muomaladan tushib qoladi.

D.I. Mendeleevning davriy qonuni, Ch. Darvinning turlarning kelib chiqishi nazariyalari ana shunday faraz bosqichini bosib o'tdi. Plank tomonidan olg'a surilgan kvant farazi ham hayot tasdig'idan o'tgandan so'ng nazariyaga aylandi.

Bunday farazlar ijtimoiy fanlarda ham muhim ahamiyatga ega. Qadimgi turk-run yozuvlari ham Tomson tomonidan olg'a surilgan faraz asosida ilmiy haqiqatga aylandi. Shuningdek, qiyosiy-tarixiy tilshunoslikning bobo til shakllari haqidagi fikrlari, Skaliger va Djonslarning hind tilining ovropa tillari oilasiga mansubligi haqidagi farazlari ham keyinchalik o'z isbotini topdi.

Nazariya – borliqning ma'lum qismlari o'rtasidagi muhim va qonuniy aloqalari haqida yaxlit tasavvur beruvchi ilmiy bilimning yuqoriroq shaklidir. Nyutonning klassik mexanikasi, Ch. Darvinning evolyutsion nazariyasi, A. Eynshteynning nisbiylik nazariyasi, bir butun sistemaning o'z-o'zidan tashkil topishi nazariyasi – sinergetik nazariya nazariy bilish shakliga yorqin misoldir.

K.Popper ta'kidlaganidek, har qanday nazariy sistema ikki asosiy talabni qondirishi lozim: 1) ziddiyatsizlik (ya'ni mantiqning mavjud qonunlarini buzmaslik); 2) tajribaviy eksperimental tekshiruvchanlik.

Savol va topshiriqlar:

1. Bilish deganda nimani tushunasiz?
2. Bilishni dinamik jarayon deganda nimani tushunasiz?
3. Empirik bilish shakli nima va u qanday elementlardan tashkil topadi?
4. Hissiy va idrokiy bilish nima?
5. Forobiyning bilish haqidagi qarashlarini izohlab bering.
6. Kant "narsa o'zida" deganda nimani nazarda tutadi?
7. Gegel tilning funksiyasiga qanday yondashadi?
8. Ilmiy (ratsional, nazariy) bilim nima va u qanday struktur komponentlardan tashkil topadi?
9. Empirik bilish bilan nazariy bilish o'rtasida qanday munosabat mavjud?

Adabiyotlar

1. Билиш фалсафаси. – Тошкент: “Университети”: 2005, 64-бет
2. Скирбекк Г., Гилъе Н. Фалсафа тарихи. –Тошкент: Шарқ, 2002.
3. Нурмонов А. Ўзбек тилшунослиги тарихи. -Тошкент: Ўзбекистон, 2002.
4. Нурмонов А. Структур тилшунослик: илдизлари ва йўналишлари. -Тошкент: 2009.
5. Нурмонов А., Исканларова Ш. Тилшунослик назарияси. -Тошкент: Фан, 2008.
6. Философский энциклопедический словарь. -М.: 1994.

3-mavzu: Fan va ilmiy bilim

Reja:

1. Ilmiy bilim – fan asosi.
2. Fan nima?
3. Fanning va lingvistik fanining tarixiy taraqqiyoti: klassik lingvistik fanining paydo bo'lishi va rivojlanishi.

Tayanch so'z va iboralar: *ilmiy bilim, fan, fanlar tasnifi, yerarxik bo'linishi, aniq fanlar, tabiiy fanlar, ijtimoiy-gumanitar fanlar.*

Ilmiy bilim tizimliliği bilan amaliy bilimdan farq qiladi. Ilmiy bilim haqida fikr yuritgan barcha olimlar uning muhim belgisi sifatida tizimlilik belgisini e'tirof etadilar. Xususan, Immanuel Kant fikricha, fan va ilmiy bilimning muhim belgisi tizimlilikdir. Ilmiy bilim sof aql arxitektonikasiga muvofiq, majburiy tizimni tashkil qiluvchi bilimdir¹.

Bizni qurshab turgan tabiat va jamiyat haqidagi ilmiy bilimlarimiz tizimi fanni tashkil qiladi. Demak, ilmiy bilim va fan tushunchalari o'zaro dialektik bog'liqdir. Fan ilmiy bilimga asoslanadi. Ilmiy bilim fan uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Xususan, har bir jamiyatning aloqa vositasi bo'lib xizmat qiluvchi tili bor. Tilsiz jamiyatning bo'lishi mumkin emas. Tabiatan ijtimoiy mohiyatga ega bo'lgan tilning qanday paydo bo'lganligi, uning ichki tuzilishi, rivojlanish qonunlari haqida qadimdan xilma-xil fikrlar bayon qilib kelinadi. Lekin XIX asrgacha til haqidagi bilimlarimiz amaliy xarakter kasb etib, tizimlilik belgisiga ega emas edi. XIX asrdan boshlab tilning barcha sath birliklari qiyosiy – tarixiy planda muayyan ilmiy metodga – qiyosiy – tarixiy metodga asoslangan holda o'rganila boshladi. Shu davrdan boshlab tom ma'nodagi tilshunoslik fani maydonga keldi. Ko'rinadiki, fanlar ilmiy bilimlar mahsulidir.

Fan haqida fikr yuritar ekanmiz, eng avvalo fanning o'zi nima, uning muhim belgilari nima ekanligini aniqlab olish zaruriyati tug'iladi.

“Fan” atamasi barcha uchun tushunarli bo'lsa ham, lekin uning maqomi, mohiyatini har kim ham tushuntirib bera olmaydi. “Fan” atamasi “O'zbek tilining izohli lug'ati”da quyidagicha izohlangan: “Fan: 1. Tabiat va jamiyatning taraqqiyot qonunlarini ochib beruvchi hamda o'zi erishgan natijalar bilan atrof-muhitga ta'sir ko'rsatuvchi bilimlar tizimi. 2. Shunday bilimlar tizimining alohida tarmog'i, yo'nalishlari, sohalari. Aniq fanlar. Tabiiy fanlar. Fizika fani. Tilshunoslik fani.”¹

Ilmiy bilimlar tizimi sifatidagi fanga ayrim olimlar, “tartibga solingan bilim” (Berg) deb ta'rif bersa, boshqa olimlar “reallik haqidagi ob'ektiv bilimlarni tayyorlash va nazariy tizimlashtirish funktsiyasi xos bo'lgan inson faoliyati sohasi” deb izohlaydilar.

“Qisqacha falsafa entsiklopediyasi” da (M., 1994) esa unga quyidagicha ta'rif beriladi: “Fan (yunoncha epesteme lotincha seientie) – reallik haqidagi ob'ektiv bilimlarni yaratish va nazariy sxemalashtirish funktsiyasiga ega bo'lgan inson faoliyatining sohasidir.”²

“Fan” atamasi umuman ilmiy bilimlar tizimi (umuman fan) ma'nosida qo'llanilishi bilan birga, xususiy bilimlar tizimi (xususiy fan) ma'nosida ham qo'llaniladi. Har qanday xususiy fan

¹ Кант И Критика чистого разума М., Мысль, 1994, с. 591; Шермухамедова Н. Фалсафа ва фан методологияси. Т., Университет; 2005, 37 – бет.

¹ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. –Тошкент: 4 жилд. 324-бет

² Философский энциклопедический словарь, М., 1994. с. 284; Шермухамедова Н. Ўша асар, 37 – бет

umumiy fanga qo'yilgan talablarga javob beradi. Ayni paytda har bir xususiy fanning rivojlanishi insoniyatning umumiy ilmiy tafakkurining kamolotiga munosib hissa bo'lib qo'shiladi.

Fan bir qancha xususiy fanlarni o'z ichiga olgan sistemadir. Shunday ekan, u umumiy ma'noda bir qancha fanlarning o'zaro uzviy munosabatidan tashkil topgan butunlikdan iborat.

Ko'rinadiki, fan ham sistema sifatida ichki iyerarxik bo'linish xususiyatiga ega. Fanning ana shunday ichki iyerarxik tuzilish tabiati asosida turlicha tasnif qilinadi.

Fanlarni ilk bor tasnif qilgan Forobiy ularning genetik belgisiga asoslangan bo'lsa, keyinchalik fanlar tasnifi uchun ierarxik belgi, ya'ni "jinsdan turga" tamoyili asos qilib olindi.

Bunga ko'ra fan eng avvalo uch turga: 1) aniq fanlar (matematika); 2) tabiiy fanlar; 3) ijtimoiy-gumanitar fanlarga bo'linadi. Bu uch guruhga mansub fanlarning har qaysisi o'z ichida yana kichik guruhlar, bu kichik guruhlar keyingi navbatda yana kichikroq guruhga - to fan turiga parchalanish tugaguncha davom etaveradi.

Ana shunday fanlar sistemasida lingvistika alohida o'rin egallaydi. U, birinchidan, ijtimoiy-gumanitar fanlar tarkibiga uning bo'lagi sifatida kirsa, ikkinchi tomondan, o'z ichida umumiy va xususiy tilshunoslik fanlariga bo'linadi. Xususiy tilshunoslikning o'zi fonetika, morfemika, leksikologiya, derivatologiya, grammatika, stilistika, dialektologiya singari bo'limlarni o'z ichiga oladi va bu bo'limlarning har biri ham o'zni bilan "fan" atamasi bilan nomlanadi.

Demak, "fan" atamasi umumiylik-xususiylilik dialektikasini namoyon qilgan holda umumiy va xususiy fanlar ma'nosida qo'llaniladi.

Fanning o'ziga xos muhim belgilari nimada ekanligini belgilash ham ko'pdan beri olimlarni qiziqtirib keladi.

I. Kant fanning muhim belgisi sifatida "tizimlilik" belgisini, Artur Shopengauer esa "umumiylik" va "asoslanganlik" belgilarini ajratadi. Karl Yaspers esa bu belgilarga "bilish metodlari" belgisini ham qo'shadi. Natijada u fanning uchta muhim belgisi: "bilish metodlariga tayanganlik", "asoslanganlik" va "umumiy ahamiyatlilik"¹ belgilari mavjudligini ta'kidlaydi.

Darhaqiqat, o'rganilayotgan ob'ekt haqida chin bilimga ega bo'lish uchun unga qanday metod bilan yondashish katta ahamiyatga ega.

Shuning uchun har qanday ilmiy bilim, ilmiy haqiqat muayyan ilmiy tadqiqot metodini qo'llash natijasida qo'lga qiritiladi. Shuning uchun ham har bir ilmiy tadqiqot maktablarining o'zlariga xos tekshirish metodlari mavjud bo'ladi. Masalan, lingvistikada qiyosiy-tarixiy tilshunoslik, yosh grammatikachilar maktabi, struktur tilshunoslik, kognitiv tilshunoslik singari yo'nalishlarning o'zlariga xos tadqiqot metodlari mavjud.

Metodga alohida urg'u bergan K. Yaspers: "Men ilmiy bilimga faqat metodni anglaganimdagina ega bo'laman, uning vositasida bu bilimni egallayman", - deydi. Bu esa ilmiy tadqiqotning qanday natijaga erishishida tanlangan metodning qanchalik muhim ekanligini ko'rsatadi.

Fanning ikkinchi muhim belgisi uning asoslanganligidir. O'rganilayotgan ob'ekt haqida muayyan metodga tayanib tadqiqot olib boriladi va ma'lum xulosa bilan yakunlanadi. Ana shu xulosaning "asoslanganlik" belgisi uning chinligi yoki yolg'onligini belgilovchi tayanch nuqta sanaladi. Bilimning chinligiga erishish fanning bosh maqsadi sanaladi.

Asoslanganlik tabiiy fanlarda tekshirilayotgan ob'ekt haqida chiqarilgan yangi xulosaning nechog'liq to'g'riligi YaMR asbobi tasdig'idan o'tganidan so'nggina aniqlanadai va bu xulosa ilmiy haqiqatga aylanadi. Ana shunday asoslanganlik tilshunoslik uchun ham xosdir. Masalan, "butunlikning umumiy belgisi uning tarkibidagi elementlarning xususiy belgilarining yig'indisi emas" degan g'oyani til birliklariga nisbatan qo'llaydigan bo'lsak, frazeologizmlar ma'nosi bilan uning qismlari o'rtasidagi munosabatni, gapning umumiy belgisi bilan uning tarkibiy qismlari belgisi o'rtasidagi va boshqa butun va bo'lak munosabatida bo'lgan birliklar o'rtasidagi

¹ К.Ясперс. Смысл и назначение истории. –Москва: 1993.- С.95. Шермухамедова Н. Ўша асар. 39-бет.

munosabatlarda sinab ko'rish va umumiy tasdig'ini topgandagina ilmiy haqiqatligini e'tirof etish mumkin bo'ladi.

Fanning uchinchi belgisi "umumiylik" yoki "umum ahamiyatlilik" dir. Darhaqiqat, o'rganilayotgan ob'ekt haqida chiqarilgan yangi xulosa chin yoki yolg'on bo'lishi mumkin. Shuning uchun uning ilmiy haqiqatligini asoslash muhim ahamiyatga ega. Ilmiy asoslangan bilim esa ijtimoiylik kasb etadi. Ilmiy jamoatchilik e'tirof etgan bilim umumiylik, "umum ahamiyatlilik" belgisiga ega bo'ladi.

Ko'rinadiki, fanning yuqoridagi uchta muhim belgisi bir-biri bilan uzviy bog'liq ravishda tobelilik munosabatida bo'ladi. Asoslanganlik belgisi muayyan metodga tayanganlik belgisini taqozo etadi, unga bog'liq ravishda kelib chiqadi. Umumiylik belgisi esa asoslanganlik belgisi natijasi sifatida maydonga keladi.

Fanning atamalar tizimiga ega bo'lishlik, ziddiyatsizlik singari boshqa belgilari ham mavjud. Lekin bu belgilar chegara, qo'shimcha belgilar sanaladi.

Savol va topshiriqlar:

1. Ilmiy bilim amaliy bilimdan qanday belgisi bilan farq qiladi?
2. Fan nima?
3. Fan turlarini sanab bering.
4. Fanning qanday muhim belgilari mavjud?
5. Fanlar sistemasi va ularning tasnifi deganda nimani tushunasiz?
6. Fanlar sistemasida lingvistikaning o'rni qanday?

Adabiyotlar

1. Абу Наср Форобий. Фозил одамлар шархи. -Тошкент: Абдулла Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 1993.
2. Кант И Критика чистого разума- М.: Мысль, 1994.
3. Шермухамедова Н. Фалсафа ва фан методологияси. -Тошкент: Университет; 2005.
4. К.Ясперс. Смысл и назначение истории. -Москва: 1993.
5. Философский энциклопедический словарь. -М.: 1994.

4 - mavzu: Ilmiy tadqiqot metodologiyasi va metodlari

Reja:

1. Metodologiya haqida.
2. Metod haqida.
3. Ilmiy tadqiqot metodologiyasi

Tayanch so'z va iboralar: *metod, metodologiya, ilmiy tadqiqot metodologiyasi, bilish usuli, induksiya, gnoseologiya, fanning umumiy metodologiyasi, dialektik metod, fenomenologiya metodi, germeneytik, sinergetik, metafizik metod, fluktuatsiya, befurkatsiya.*

Har qanday tadqiqotchi muayyan mavzuda ilmiy izlanish olib borar ekan, eng avvalo, ma'lum metodologiyaga tayanadi va o'z maqsadini amalga oshirish uchun qo'l keladigan ilmiy tadqiqot metodlaridan foydalanadi.

Metodologiya va tadqiqot metodidan holi bo'lgan birorta ilmiy asar mavjud bo'lmaydi. Shunday ekan, fanda ilmiy tadqiqot metodologiyasi va metodi tushunchalari markaziy o'rinni egallaydi. Shuning uchun ham har bir tadqiqotchi tadqiqot metodologiyasi va metodlari haqida yaxshi bilimga va ulardan o'rinli foydalanish ko'nikmasiga ega bo'lmog'i lozim.

Inson doimo ma'lum maqsad sari harakat qiladi. Uning bu harakatining natijasi harakat qiluvchi sub'ekt va harakat yo'nalgan ob'ektning qanday bo'lishidan tashqari, mazkur faoliyatda qanday usullar qo'llanilishi bilan uzviy bog'liqdir. Bu esa bilish jarayoni muayyan metodologiya va metodga tayanishi lozimligini ko'rsatadi.

Metod (yun. *methodos* - bilish usuli) – sub'ektning har qanday shakldagi faoliyat usuli sanaladi.¹ Faoliyatning muayyan sohasida (fan, siyosat, san'at va boshq.) qo'llaniladigan vosita va usullar sistemasi; metodning umumiy nazariyasi, metodlar sistemasi haqidagi ta'limot metodologiya sanaladi.²

Mashhur tilshunos Yu.S.Stepanovning ta'kidlashicha, metod muammosi uchta markaziy tushunchani o'z ichiga oladi: metodika – metod – metodologiya. Bu tushunchalar quyidagicha izohlanadi:

Metodika – kuzatish va eksperiment usullari majmuasi.

Metod – tajriba (eksperiment) orqali aniqlangan va kuzatilgan natijalarni nazariy umumlashtirish usullari.

Metodologiya – bilish jarayoniga dunyoqarash tamoyillarini qo'llash.¹

Metodologiya umuman ilmiy metod haqidagi ta'limot hamda xususiy fanlar metodlari haqidagi ta'limot, ya'ni bilish faoliyati yo'llari haqidagi ta'limot sifatida har qanday fan nazariyasi va amaliyotida katta ahamiyatga ega.²

Ko'rinadiki, metodologiya va metod tushunchalari o'zaro uzviy bog'liqdir. Xususiy fan metodlari bilan umumiy ilmiy metod bir-biri bilan munosabatdadir.

Bilish usullari umumiy va xususiy bo'ladi. Shuning uchun u falsafiy metod, ya'ni umuman bilish usuli haqidagi metod va umumilmiy metodlarga bo'linadi. Birinchi holatda metodologiya u yoki bu falsafiy sistemaga xos bilish metodi tamoyillariga muvofiqlik sifatida tushunilsa, ikkinchi holatda esa metodologiya u yoki bu fan tarmog'iga xos tadqiqot metodlari haqidagi ta'limot sifatida tushuniladi.

Fan metodologiyasi bilishning falsafiy metodining muayyan fan doirasida o'rganilayotgan ob'ekt xususiyatlaridan kelib chiqqan holda konkret qo'llanilishidir.

Falsafiy metod, ya'ni bilish metodi tabiat, jamiyat va tafakkurning umumiy qonuniyatlari haqidagi ta'limot sanaladi.

Umummetodologik tamoyillar turli fanlar bergan ma'lumotlarni umumlashtirish asosida vujudga keladi.

Ilmiy bilishda metod va metodologiyaning ahamiyati juda katta.

F.Bekon metodni zulmatda yo'lni yoritib turuvchi mash'alaga qiyoslaydi. Muayyan muammoni adashgan (yolg'on) yo'l bilan ijobiy hal qilib bo'lmasligini ta'kidlaydi. Shuning uchun har qanday tadqiqotchi bilish quroli bo'lgan va insonga tabiat ustidan hukmronlik qilishni ta'minlaydigan tadqiqot metodiga ega bo'lishi kerak. F.Bekon ana shunday metod sifatida induktsiyani tanlaydi. Bu metod fandan empirik tahlilga, kuzatish va eksperimentga tayanishni, shu asosda sababiyat va qonunlarni anglashni talab qiladi.

Mashhur rus fiziolog olimi I.P.Pavlov metodni bilish jarayonida eng birinchi va asosiy narsa ekanligini ko'rsatadi. Uning ta'kidlashicha, tadqiqotchining jiddiyligi o'zi tayangan metodga, faoliyat usuliga bog'liq. Hamma gap yaxshi metoddadir. Katta qobiliyatga ega bo'lmagan odam ham yaxshi metod asosida ko'p narsaga erishishi mumkin. Aksincha, yomon metod bilan talantli olim ham bekorga kuch sarflashi, hech qanday natijaga erishmasligi mumkin.³

Shuni ta'kidlash kerakki, har bir metod muhim va zarur narsa. Lekin undan o'z o'rnida va maqsadli foydalangandagina o'z samarasini beradi. Shuning uchun V.P.Kaxanovskiy tadqiqotchini ikki chegara holatga tushib qolish xavfidan saqlanishga chaqiradi. Bu chegara qutblarning birinchisi metodologik negativlik, ikkinchisi metodologik eyforiya sanaladi.

¹ Кахановский В.П. Философия и методология науки. –М.: 1999, -С.167.

² Кахановский В.П. Ўша асар. –С. 167.

¹ Степанов Ю.С. Методы и принципы современной лингвистики. –М.: 1975, -С. 3.

² Шермухаммедова Н. Фалсафа ва фан методологияси. Тошкент, 2005, 211-бет.

³ Павлов И.П. Лекции по физиологии. –М., 1952. –С. 21.

Metodologik negativizm metod va metodologiya muammolariga mensimay qaraydi. Uni haqiqiy ilmiy tadqiqotdan chalg'ituvchi nomuhim vosita deb baholaydi.

Metodologik eyforiya esa metodning rolini o'ta oshirib yuboradi. Uni o'rganilayotgan ob'ektdan ko'ra ustunroq ko'radi va metodni universal o'yinga aylantiradi.¹ Garchi ilmiy tadqiqotda metod va metodologiya juda katta ahamiyatga ega bo'lsa ham, ulardan o'rinli foydalanilsagina kutilgan natijani beradi. Aks holda u samarasiz va ahamiyatsiz bo'lib qoladi. Har qanday metodning bosh maqsadi bilish jarayonidagi muammolarning ijobiy echimiga yordam berishdir.

Metodologiya metodlarning umumiy nazariyasi sifatida insonning bilish faoliyatida qo'llanilgan metodlarni umumlashtirish zaruriyati bilan dunyoga keldi. Dastlab metodologiya muammolari falsafa doirasida ko'rila boshladi: xususan, Suqrot va Aflotunlarning dialektik metodi, F.Bekonning induktiv metodi, R.Dekartning ratsionalistik metodi, G.Gegelning dialektik metodi, E.Gusserlning fenomenologiya metodi va boshq. Shuning uchun metodologiya falsafa bilan, ayniqsa uning gnoseologiya va dialektika bo'limlari bilan uzviy bog'liqdir.

Metodologiyaning dialektika bilan uzviy bog'liqligi ularning ayniyligini bildirmaydi. Materialistik dialektika fanning falsafiy metodologiyasi sifatida xizmat qiladi.

Materialistik dialektika dialektika shakllaridan biri sanaladi. Dialektika esa metafizika, fenomenologiya, hermenevtika qatoridagi falsafiy metodologiyaning bir qismidir.

Metodologiya ma'lum ma'noda bilish nazariyasidan torroq hisoblanadi. Chunki bilish nazariyasi faqat bilish shakllari va metodlarini o'rganish bilangina cheklanmasdan, bilish tabiati, bilishning borliq bilan munosabati, bilish sub'ekti va ob'ekti, bilish imkoniyatlari va chegarasi, bilishning haqiqiylik mezonlari singari masalalar bilan ham shug'ullanadi.

Metod sub'ektivlik va ob'ektivlik dialektikasining yaxlitligi sifatida mavjud bo'ladi va rivojlanadi. Har qanday metod, eng avvalo, ob'ektiv xarakterga ega. Shu bilan birga, u sub'ektivlik xususiyatiga ham ega. Har bir metodning sub'ektivligi shunda ko'rinadiki, u konkret shaxs tomonidan foydalaniladi. Shuning uchun ham Gegel ob'ektni anglash uchun sub'ekt tomonidan qo'llaniladigan vosita, qurolni metod deb hisoblagan edi. Bu esa Feyerbaxning "Inson – barcha metodologiyaning markazidir", degan g'oyasining davom ettirilishi edi.

Hozirgi ilmiy tadqiqot jarayonida metodologik bilishning ko'p sathli konseptsiyasi qo'l kelmoqda. Bu nuqtai nazardan barcha ilmiy bilish metodlarini umumiydan xususiyligiga qarab quyidagi guruhlariga ajratish mumkin:

1. Fanning umumiy metodologiyasi. Bunga falsafiy metodlar xos bo'lib, ular barcha fanlar va bu fanlar bo'yicha olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlarning falsafiy asosi sanaladi. Shuning uchun ular barcha fan vakillari asoslanishi mumkin bo'lgan umumiy metod sanaladi. Fanning umumiy metodologiyasi xususiy fanlarning taraqqiot metodlari bilan uzviy bog'liq bo'lib, birinchisi ikkinchisi uchun yo'naltiruvchi kuch vazifasini o'taydi.

2. Falsafiy metodlarning eng qadimgisi dialektik va metafizik metodlar sanaladi. Har bir falsafiy kontsepsiya metodologik funktsiya bajarib, tafakkur faoliyatining o'ziga xos usuli hisoblanadi. Shuning uchun ham falsafiy metodlar yuqoridagi ikki metod bilan chegaralanmaydi. Hozirgi kunda ular qatorida analitik (hozirgi analitik falsafaga xos), fenomenologik, hermenevtik, sinergetik singari falsafiy metodlar qo'llanilmoqda.

Hozirgi tilshunoslikda yuqorida sanab o'tilgan falsafiy metodlardan foydalanilmoqda. Shuning uchun ular haqida qisqacha fikr yuritamiz.

Dialektik metod. Tabiat, jamiyat va tafakkur taraqqiyotining umumiy qonuniyatlarini e'tiborga oluvchi metoddir. Bu metod XVIII asrdan boshlab tabiiy fanlarda ro'y bergan katta o'zgarish va bu o'zgarishning shu kunga qadar borliqni metafizik o'rganishga zarba berishi natijasida maydonga keldi. Tabiatshunoslikda metafizik tasavvurga Kantning tabiiy nazariyasi, Lomonosovning moddaning saqlanish va harakat qonuni qattiq zarba berdi. Bu kashfiyotlar tabiatda o'zgarmaydigan hech narsa yo'qligini isbotladi. Ayni paytda, ular falsafiy qarashlarga

¹Кахановский В.П. Ўша асар. –С. 170.

ham o'z ta'sirini ko'rsatdi. XVIII asr oxiri, XIX asr boshlarida falsafa tarixida Gegel dialektik taraqqiyot nazariyasini olg'a tashladi.

Gegelnings rivojlanish va o'zgarish haqidagi nazariyasi dialektika va dialektik metodning shakllanishiga zamin yaratdi. Gegel dialektikasi butun tarixiy va ruhiy olamni jarayon, ya'ni uzluksiz harakatda rivojlanishda, o'zgarishda, yangilanishda ekanligini e'tirof etdi. Bu o'zgarishlar, rivojlanishlar, yangilanishlarning manbai sifatidagi ichki zidlanishlar deb qaraldi.

Tabiat va jamiyatning ana shunday rivojlanish, o'zgarish, yangilanish jarayonlarini ochib berishda, ya'ni dialektikani o'rganishda qo'llaniladigan metod dialektik metod sanaladi.

Dialektik metod quyidagi muhim belgilari bilan xarakterlanadi:

1) olamga o'zaro munosabatda bo'lgan uzvlardan tashkil topgan butunlik sifatida yondashadi;

2) ob'ektga doimiy o'zgarish holatida, harakatda, rivojlanishda, yangilanishda deb qaraydi;

3) dialektik metod tabiat rivojlanishini sezilmas va sekin-asta ro'y beruvchi miqdor o'zgarishlarini sifat o'zgarishlariga olib keluvchi jarayon sifatida baholaydi.

Dialektik metod metodologik asos bo'lgan tilshunoslik, eng avvalo, o'rganilayotgan ob'ektda mavjud bo'lgan umumiylik-xususiylik dialektikasini til-nutq zidlanishi asosida, uning bo'linuvchanlik tabiatiga ega bo'lgan nisbiy butunlik ekanligini uzviy tahlil metodini qo'llagan holda, ichki tarkibiy qismlari o'rtasidagi ziddiyatlarni oppozitiv metodni qo'llagan holda ochib beradi. Tilga doimo rivojlanishda, o'zgarishda bo'lgan butunlik-sistema sifatida qaraydi.

Metafizik (lot. fizikadan oldin) metod. Ob'ektni ajralgan holda, o'zaro munosabatidan tashqarida o'rganadi. Ob'ektning ichki o'zgaruvchanlik xususiyatini e'tiborga olmaydi. Shuning uchun butunni tashkil etgan ichki a'zolarining ziddiyatli munosabatlari, bu zidlanishlarning ob'ektni rivojlantiruvchi, o'zgartiruvchi kuch ekanligini nazardan chetda qoldiradi. Tabiat barqaror, o'zgarimas xususiyatga ega, uning taraqqiyot jarayoni miqdor o'zgarishlari sifat o'zgarishlariga olib kelmaydigan oddiy o'sish, deb baholaydi. Ob'ektlarning taraqqiyot manbai ichki ziddiyatlar emas, balki tashqi qarama-qarshi kuchlar ekanligini e'tirof etadi.

Tilshunoslikda o'rganilayotgan ob'ektning faqat o'ziga qarab, boshqa shunga o'xshash ob'ektlarga bo'lgan munosabatlaridan tashqarida, ichki tarkibiy qismlari o'rtasidagi zidlanishlarni (oppozitiv munosabatlarni) e'tiborga olmasdan tavsiflash lingvistika faniga umumiy falsafiy metafizik metodni qo'llash hisoblanadi.

Fenomenologik metod. Fenomenologiya – (yun. phainomenon “mavjud”, logos “ta'limot”) fenomen yoki hodisalar nazariyasidir. Uning asoschisi Edmund Gusserl bo'lib, Martin Xaydegger tomonidan rivojlantirilgan. Fenomenologiya ning tekshirish metodi fenomenologik metod sanaladi. Uning bosh maqsadi borliqdagi voqea va hodisalar qanday bo'lsa, shundayligicha ta'riflashdir. Masalan, qalam yozuv quroli. Ayni paytda ayollar qoshini bo'yash uchun ham ishlatiladi. “Borliqdagi narsalar bizga qay tarzda namoyon bo'lsa, shundayligicha qabul qilish va ta'riflash” fenomenologiya ning asosiy maqsadi bo'lganligidan, fenomenologik metod asosida qalamga ikki xil ta'rif berish mumkin bo'ladi: 1) yozuv quroli; 2) kosmetik qurol.

Fenomenologiya falsafiy ta'limot sifatida XX asrning 20-30-yillarida E.Gusserl g'oyalari ta'siri ostida ilk bor Germaniyada shakllandi.

Fenomenologiya ning tanqidiy tig'i tabiiy fanlar tomonidan ta'riflangan hodisalarnigina haqiqat deb qarashga qarshi yo'naltirilgan. Shuning uchun ham qalamni atomlarning muayyan yig'indisi deb tushunish xato deb hisobdanadi.¹

Fenomenologiya ko'pincha oddiy voqealarni ta'riflaydi: don yanchish, ot taqasini qoqish, xat yozish kabi. Bular haqiqiy hayotiy olam va uning uzvlari (fenomenlari) sanaladi. Kundalik buyumlar, fikrlar, hodisalar, lingvistik hodisalar ham fenomenlar sifatida qaraladi.

Fenomenologik nuqtai nazardan, muayyan sub'ekt tomonidan foydalanilgan til, ya'ni nutq moddiy dunyoning bir qismini tashkil qiladi. Nutq tarkibida so'zlovchi ma'lum bir so'zni qaysi

¹ Скирбекк Г., Гилье Н. Фалсафа тарихи. -Тошкент: Шарк, 2002, 669-бет

ma'noda ishlatgan bo'lsa, shundayligicha izohlash fenomenologik metodning maqsadi sanaladi. Demak, so'zlarning pragmatik amallarini belgilash fenomenologik metodning vazifasiga kiradi.

Fenomenologiya bilan hermenevtika uzviy aloqadordir. Har ikkisi matnni tushunish bilan bog'likdir. Demak, lingvistik pragmatika uchun har ikki metod metodologik asos bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Hermenevtik metod. Hermenevtika – (yun.hermeneutike, hermenio “tushuntiraman”) matnlarni tushunish, talqin qilish san'ati, uni talqin qilish tamoyillari haqidagi ta'limot sanaladi. Uning tekirish metodi hermenevtik metoddir.

Hozirgi kunda hermenevtika gumanitar fanlarning metodologik asosi hisoblanadi. Matnda muallifning nima demoqchiligini o'quvchi tomonidan to'g'ri tushuna olish hermenevtikning vazifasi sanaladi.

Hermenevtika ildizlari antik davrlarga borib taqalsa ham, mustaqil ilmiy yo'nalish sifatida XIX asrda nemis mutafakkirlari F.Shleyermakser va V.Dilteylar asarlari orqali shakllandi. Bu yo'nalish XX asrda nemis olimi G.G.Gadamer va frantsuz olimi P.Rikyorlar tomonidan rivojlantirildi. G.G.Shpet bu ta'limotning ko'p asrlik tarixini tadqiq etgan bo'lsa,¹ M.M.Baxtin o'zining “Gumanitar fanlarning falsafiy asoslariga doir”, “Adabiyotshunoslik metodologiyasiga doir”, “Gumanitar fanlar metodologiyasiga doir” kitoblari orqali uni ommalashtirdi.

Hermenevtikaning markaziy tushunchasi tushunishdir. Shleyermakser o'zi kashf etgan hermenevtik doirani talqin qilishning asosiy tamoyili hisoblaydi. Bunga muvofiq, butunlik(masalan, matn)ga xos bo'lgan ruh uning alohida qismlarida ham o'z ta'sirini qoldiradi. Bo'laklar butunlik asosi, butunlik esa bo'laklarning ichki uyg'unligi sifatida tushunilishi lozim.²

Gadamer fikricha, tushunish, eng avvalo, nutq orqali amalga oshadi. Demak, tushunish shaxslararo munosabatda voqelanadi. So'zlovchi yoki adibning matn orqali nima demoqchiligini tinglovchi tomonidan to'g'ri tushunish hermenevtikaning vazifasi sanaladi.

Nutq gaplarning, gap esa so'zlarning sintagmatik munosabatidan tashkil topadi. Demak, har qanday nutq butun va bo'lakning shajaraviy munosabatidan tashkil topadi. Bunda butunga xos umumiy mazmun bilan, bo'lakka xos xususiy mazmun ishtirok etadi. Gadamerning ta'kidlashicha, bir butun matnni tushunish, uning tarkibidagi so'zlar yig'indisi asosida tushunish emas, u aytilgan axborot yaxlitligidan kelib chiqadigan hodisadir.³ Har qanday nutq shakl va mazmun o'rtasidagi munosabatdan tashkil topgan butunlik bo'lib, uning har ikki tomoni o'ziga xos ichki tuzilishga ega. Bu ikki tomonning ichki tuzilishi ko'p hollarda bir-biriga muvofiq kelmaydi. Masalan, Eshigingizga qulchilikka keldik gapining sintaktik tuzilishi bilan mazmuniy tuzilishi bir-biriga mos kelmaydi. O'zbeklarning nutq odobi, urf-odatini bilmaydigan o'zbek tilini o'rganayotgan shaxs gap tarkibidagi so'zlarning alohida-alohida ma'nolaridan butunga xos umumiy ma'noni chiqara olmaydi.

Bir qator gaplarda yuza ma'no ostiga tag ma'no yashiringan bo'ladi. Ayniqsa, ana shunday sharoitda tinglovchiga tilni tushunish ko'nikmasi kerak bo'ladi. Agar ana shunday ko'nikmaga ega bo'lmasa, matnni to'g'ri tushuna olmaydi. Shu bilan birga, alohida nutq parchasini butundan uzib olinganda ham bu nutq parchasidan so'zlovchining maqsadini to'g'ri tushunib bo'lmaydi. Shuning uchun matnni butun va bo'lak munosabatini e'tiborga olgan holda o'rganish bo'lak mazmunini to'g'ri tushunishga yordam beradi.

Ko'rinadiki, hermenevtika hozirgi davrda rivojlanib borayotgan lingvistik pragmatika uchun metodologik asos bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Sinergetik metod. XX asrda kashf etilgan nisbiylik nazariyasi va kvant mexanikasidan boshqa yana kvant kimyosi, mikro-makro- mega dunyolar fizikasi, reaktiv dinamika nazariyasi singari yangi fanlar maydonga keldi. Ana shunday yangi fanlar orasida sinergetika alohida ajralib turadi.

¹ Шпет Г.Г. Герменевтика и ее проблемы. // Контекст. 1989, 1990, 1991, 1992, -М.: 1989-92

² Скирбекк Г., Гилье Н. Кўрсатилган асар, 446-бет

³ Хализев В.Е. Теория литературы. –М.: 2000, -С.107.

Sinergetika (lot. Synergeia “hamkorlik”) – organik va noorganik dunyoda sodir bo’laligan o’z-o’zidan tashkil etilish tamoyilining matematik modellarini yaratuvchi umumiy fandir. Sinergetika ob’ektning muhim belgisi “tashkillanish” belgisidir. “Tashkillanish”ning “tashkil etish”dan farqi shundaki, ikkinchi jarayonga sub’ekt aralashadi, birinchisi esa ob’ektiv jarayondir. Masalan, ishlab chiqarishni tashkil etish, fizikaviy va kimyoviy usullar yordamida yangi moddalar hosil qilish, so’z yasovchi vositalar yordamida yangi so’zlar yaratish – bularning hammasi sub’ektning tashkilotchilik, yaratuvchilik faoliyati mahsuli sanaladi. Ammo tashkillanish odam faoliyatining ta’sirisiz, o’z-o’zidan ichki bajariladigan jarayondir. Ana shunday ichki tashkillanish jarayonini o’rganuvchi fan sinergetika hisoblanadi.

Uning asoschisi haqida adabiyotlarda ikki xil fikr yuritiladi. Ko’pchilik adabiyotlarda sinergetikaning asoschisi sifatida belgiyalik fizik, Nobel mukofoti laureati Ilya Prigojin ekanligi e’tirof etiladi. Xususan, O.Fayzullaev bu fanni I.Prigojin kafsh etganligini, so’ngra I.Stingers, G.Nikolis, G.Xaken singari olimlar rivojlantirganini bayon qiladi. N.Shermuhamedovanning fikricha esa, 1973 yili nemis olimi G.Xaken o’z-o’zini tashkil etish muammolariga bag’ishlangan birinchi konferentsiyada nutq so’zlagan yil sinergetikaning tug’ilgan yili hisoblanadi.¹

Olima bu yangi fanni ilk bor Xaken “sinergetika” nomi bilan nomlaganini bayon qilar ekan, bunday nomlanish sababini Xakenning asarida bayon qilingan fikrlar orqali tushuntiradi. Birinchidan, unga “mikroskopik darajada tuzilma va tegishli faoliyatni vujudga keltiradigan ko’plab kichik tizimlarning birgalikdagi faoliyati tadqiq qilinadi. Ikkinchidan, tizimlarning o’z-o’zini tashkil etish umumiy tamoyillarini topishga u turli fanlarni jalb etadi.”²

Sinergetika ta’limotiga ko’ra, olamda har bir narsa tizimdir. Tizimlar orasida o’zaro ta’sir mavjud. Bu ta’limot olamda hamma narsa bir-biriga bog’liq ekanligini e’tirof etadi. Masalan, odam organizmiga tashqi muhit ta’sir qiladi, ya’ni havo, ozuqa, energiya, axborot va boshqa. Sinergetika bunday tashqi muhitning hammasi yig’ilib, organizmga ta’sir qiladi, umuman, ochiq tizim ta’sirida yashaydi, deb qaraydi. O.Fayzullaev bunga o’z munosabatini bildirib: “Biz mana shunday cheksiz ochiq tizimni yopiq tizimlar zanjiridan tashkil topadi, degan bo’lar edik”, - deydi.³ Uning fikricha, biologik va ijtimoiy tizimlar mana shunday xususiyatga ega bo’lib, bu har xil tabiatga ega bo’lgan tizimlarning bir xil matematik modellarini tuzish sinergetikaning vazifasiga kiradi.

Sinergetika borliqdagi har bir narsa-hodisaning doimiy taraqqiyoda, o’zgarishda ekanligini e’tirof etadi. Taraqqiyot jarayonida beqaror va barqaror holat o’rtasidagi aloqa borligiga alohida e’tibor berish sinergetikaning bosh tamoyilidir.¹

Sinergetika paydo bo’lgunga qadar beqarorlikka salbiy baho berilgan va bu hodisa e’tibordan chetda qolgan. I.Prigojin esa “Beqarorlik falsafasi” asarida bu holatga alohida ahamiyat berdi va uni sinergetikaning asosiy tushunchasiga aylantirdi.

U beqarorlikni borliqning muhim jihati sifatida talqin etadi. I.Prigojinning fikricha, har qanday eski sistema yangi sistema bilan almashinar ekan, avvalo, beqarorlik, tartibsizlik yuz beradi. So’ngra barqaror holat va tartibli vujudga keladi.

Sinergetikaning chiziqsizlik tamoyili taraqqiyot oldindan belgilab qo’yilgan yo’ldan ketmay, olamdagi narsa, hodisalarning ichki xususiyati va tashqi aloqadorligi negizida har safar yangi, betakror yo’ldan borishi мумкинлиги e’tirof etiladi.² Sinergetikada ikki holat – beqarorlik va barqarorlik holatiga, beqarorlikdan barqarorlikka o’tish jarayoniga e’tibor qaratiladi. Bu dialektik jarayonning birinchi holati fluktuatsiya, ikkinchisi esa befurkatsiya deyiladi.

¹ Шермухамедова Н. Фалсафа ва фан методологияси. –Тошкент: 2005, 183-бет.

² Шермухамедова Н. Ўша асар. 184-бет; Хакен Г. Сinergetika. –М.: 1970, -С. 380.

³ Файзуллаев О. Физика ва фалсафа. “Маърифат”, 16.04.2005.

¹ Билиш фалсафаси. –Тошкент: “Университет”, 2005, 236-бет

² Билиш фалсафаси. 236-бет.

Barqaror holatdan og'ish, tartibsizlik, kaos fluktuatsiya, rivojlanishning ikkiga ayrilib tartibga tushish holati befurkatsiya sanaladi. O'tish jarayonida bir necha tarmoqqa ajralishi – polifurkatsiya holati ham bo'lishi mumkin.

Sinergetika faqat tabiiy fanlar uchungina emas, ijtimoiy-gumanitar fanlar, xususan, lingvistika uchun ham metodologik asos bo'lishi mumkin. Chunki har qanday til ichki rivojlanib borayotgan ijtimoiy hodisadir. Shunday ekan, undagi miqdor o'zgarishlari sifat o'zgarishlariga olib kelishi tabiiy. Buni o'zbek tili unlilar sistemasi taraqqiyotida ham yaqqol ko'rish mumkin. O'zbek tilining ichki tarixiy taraqqiyoti va yondosh tillarning ta'sirida qadimgi turkiy “to'rt pog'onali, ikki qatorli” 8 fonemali unlilar sistemasidan qator belgisi yo'qolgan 6 fonemali unlilar sistemasiga o'tishi ana shunday beqarorlik, tartibsizlikdan tartiblilikka o'tish jarayonining natijasidir.

Tilshunoslikda ilk bor A.Rahimov lisoniy tiplar taraqqiyotida tipologik o'zgarishlarning sodir bo'lish mexanizmini yoritishda sinergetika tamoyilidan o'rinli foydalandi.³

Hozirgi kunda sinergetika tamoyillarining faqat tabiiy fanlardagina emas, balki ijtimoiy fanlarda ham keng qo'llanilayotganligi uning falsafiy metod sifatida e'tirof etilganidan guvohlik beradi.

Sinergetika yutuqlariga mahliyo bo'lgan ayrim olimlar uni dialektikaga zidlagan holda, dialektikaning o'rnini bosganligini ta'kidlamodalar. Bunday fikrga tanqidiy baho berib, O.Fayzullaev quyidagilarni bayon qiladi: “Dialektika eskirdi, uning o'rnini sinergetika egallab oldi, deguvchilar orasida, afsuski, faylasuflar ham bor. Aslida bu noto'g'ri fikr. Axir uch ming yillar davomida falsafaning o'zagi hisoblanadigan dialektika, avvalo, tabiatda, jamiyatda va bilish nazariyasidagi ziddiyatlar, o'zgarishlar, rivolanish va tanazzullar, dunyoqarashlar, sababiyat va oqibat, mohiyat va voqelik, qonuniyat va tasodif kabi masalalar bilan shug'ullanib kelmoqda. Bu falsafiy masalalar bilan sinergetika shug'ullanmaydi-ku! Dialektika bilan nisbiylik nazariyasi. Dialektika bilan kvant mexanikasi, dialektika bilan genetika orasidagi munosabat qanday bo'lsa, dialektika bilan sinergetika orasidagi munosabat ham shundaydir. Ya'ni dialektika tabiatning o'zida va tabiat fanlarida, jamiyat fanlarida, texnika fandarida, jumladan, sinergetika fanida bab-barovar namoyon bo'ladi”.¹

Prof. Q.Nazarov ham sinergetikaning dialektika bilan munosabati haqida xuddi shunday fikr bildiradi. Uning ta'kidlashicha, sinergetikani XX asr tabiiy fanlarining falsafa sohasiga kiritgan eng katta uslubiy yutuqlaridan biri sifatida baholash mumkin. Ammo bu uning dialektikani falsafadan butunlay surib chiqardi, degani emas. Zero, falsafada har bir ta'limot, uslub va metodning o'z o'rne va faoliyat doirasi bor. Dialektikaning falsafadagi ahamiyatiga kelganda esa, uning ijtimoiy bilimlar sohasidagi o'rne, qadr-qimmatini nihoyatda katta va u falsafaning asosiy qismlaridan biri bo'lib qolaveradi. Sinergetika ham fanlarning oxirgi va mutloq uslubi emas, balki taraqqiyot natijasida o'zgaradigan va takomillashadigan tafakkur mevasidir.²

Ko'rinadiki, sinergetika dialektika bilan uzviy bog'liq bo'lgan mustaqil falsafiy metoddir.

Yuqorida bayon qilinganlardan shu narsa ma'lum bo'ladi, xususiyl ilmiy metodlar faqat bitta umumiy falsafiy metod, metodologik asos bilan cheklanib qolmaydi. O'rganilayotgan ob'ektning murakkab belgilarini ochish uchun qo'l keladigan turli falsafiy metodlarga tayanish mumkin.

Savol va topshiriqlar:

1. Metod nima?
2. Metodika-metod-metodologiya kabi tushunchalarni izohlang.
3. Falsafiy metodlar haqida gapiring.

³ Раҳимов У. Фузия лисоний типини квантитатив ва синергетик ёндашув асосида тадқиқ этиш (Ўзбек тили мисолида). НДА., -Тошкент: 2009.

¹ Файзуллаев О. Ўша асар.

² Қаранг. Билиш фалсафаси. 236-бет.

4. Sinergetika nima? Uning asosiy belgilari qaysilar?
5. Fenomenologik metod deganda nimani tushunasiz?
6. Fenomenologik metod qachon, qaerda, kimning g'oyalari ta'sirida shakllangan?
7. Germenevtik metodning mohiyati nimada?
8. Metafizik metodning o'ziga xosligi nimada?
9. Dialektik metod qaysi belgilari bilan xarakterlanadi?
10. Dialektik metod qanday qonuniyatlarni e'tiborga oladi?

Adabiyotlar

1. Степанов Ю.С. Методы и принципы современной лингвистики. –М.: 1975.
2. Кахановский В.П. Философия и методология науки. –М.: 1999,
3. Скирбекк Г., Гилье Н. Фалсафа тарихи. -Тошкент: Шарқ, 2002.
4. Шпет Г.Г. Герменевтика и ее проблемы...// Контекст. 1989, 1990, 1991, 1992, -М.: 1989-92.
5. Шермухамедова Н. Фалсафа ва фан методологияси. –Тошкент: 2005.
6. Хакен Г. Синергетика. –М.: 1970.
7. Файзуллаев О. Физика ва фалсафа. “Маърифат”, 16.04.2005.
8. Билиш фалсафаси. –Тошкент: “Университет”, 2005.
9. Хализев В.Е. Теория литературы. –М.: 2000.
10. Раҳимов У. Фузия лисоний типини квантитатив ва синергетик ёндашув асосида тадқиқ этиш (Ўзбек тили мисолида). НДА., -Тошкент: 2009.

5-mavzu: Umumilmiy va xususiy ilmiy metodlar

Reja:

1. Umummantiqiy metodlar.
2. Nazariy metodlar.
3. Empirik metodlar.

Tayanch so'z va iboralar: *analiz, sintez, axborot, model, struktura, modellashtirish, funksiya, sistema, element, nisbiylik.*

Metodlar ham umumiydan xususiyligiga qarab darajalanish xususiyatiga ega. Ana shu darajalanish belgisiga ko'ra yuqori sathni falsafiy metodlar (metafizik, dialektik, fenomenologik, germenevtik va boshqa.) egallaydi. Undan so'nggi sathni umumilmiy metodlar tashkil qiladi. Garchi bu sathdagi metodlarning e'tirof etilgan tasnifi mavjud bo'lmasa ham, turli tasniflar ichidan eng muhimi sifatida “yuqoridan quyiga” tamoyili asosida quyidagi uch kichik sathni ajratish mumkin: 1) umummantiqiy; 2) nazariy; 3) empirik.

Olamni ilmiy bilishda umummantiqiy metodlarning ahamiyati katta. Ob'ektni bilishning analiz, sintez, mavhumlashtirish, umumlashtirish, induksiya, deduksiya, analogiya, modellashtirish, sistem yondashuv singari usullari umummantiqiy metodlar hisoblanadi.

Analiz. (yun. “ajratish”) ob'ektni mustaqil o'rganish maqsadida qismlarga, ichki uzvlarga ajratishdir. Masalan, gapni uni tashkil etgan ichki a'zolarga, so'zni ichki tuzilish uzvlariga ajratish analiz metodi sanaladi.

To'plamni sinflarga, sinflarni kichik sinflarga; to'dani turlarga bo'lish, ya'ni tasniflash ham analizning turi sanaladi. Masalan, so'zlarni turkumlarga, turkumlarni yana o'z ichida muayyan tamoyil asosida guruhlariga ajratish. Xususan, so'zlarni mustaqil, yordamchi, oralik (modal, undov, taqlid) singari guruhlariga, ularning har qaysisini yana turkumlarga, har bir turkumni ichki turlarga ajratish ham analizning bir ko'rinishidir.

Demak, analiz usuli ob'ektni ham sintagmatik, ham paradigmatic nuqtai nazardan parchalashni o'z ichiga oladi. Butunning ketma-ket munosabati bo'lgan qismlarini parchalash sintagmatik nuqtai nazardan, butunni ustma-ust munosabatini qismlarga parchalash

paradigmatik nuqtai nazardan analiz qilish sanaladi. Xususan, gapni qo'shma, murakkablashgan, sodda gaplarga, bu guruhlarini yana ichki turlarga bo'lish; gap bo'laklarini kesim va uning kengaytiruvchilariga bo'lish va hokazo. Shuningdek, leksema sememasini semalarga parchalash ham paradigmatic tahlilga mansubdir.

Sintez. Ilmiy bilishda sintezning ahamiyati katta. Bilish jarayonida butunni qismlarga ajratish uning ichki tuzilishini ob'ektiv yoritishda qanchalik muhim bo'lsa, bo'lakni butunga, turni jinsga birlashtirish, ya'ni yiriklashtirish ham shunday ahamiyatli sanaladi. Bo'lakni butunga, turni jinsga birlashtirishni Yu.S.Stepanov yiriklashtirish deb nomlaydi.¹

Umumilmiy tadqiqot metodlari fan tarixiy taraqqiyotida XX asrdan keng qo'llanila boshladi. U falsafa bilan xususiy fanlarning fundamental nazariy-metodologik holati o'rtasidagi oraliq holatni egallaydi.²

Umumilmiy tushunchalarga, eng avvalo, "axborot", "model". "struktura". "modellash", "funksiya", "sistema", "element", "nisbiylik" singari tushunchalar mansubdir.

Umumilmiy tushunchalarning xarakterli belgisi, birinchidan, uning mazmuniga bir qator xususiy fanlarning belgilari, tushunchalari va falsafiy kategoriyalarning birikib ketishi, ikkinchidan, ularni matematik nazariya, simvolik logika vositalari yordami bilan modellash mumkinligi hisoblanadi.

Umumilmiy yondashuvning eng muhim jihati shundaki, o'zining "oraliqlik" xarakteri bilan falsafiy metoddan xususiy ilmiy metodga o'tishda vosita rolini o'ynaydi. Shunday ekan, u ham ilmiy tadqiqotlarga metodologik asos bo'la oladi.

Xususiy ilmiy metodlar. Fanning ma'lum bir sohasida qo'llaniladigan tadqiqot usullari, bilish tamoyillari majmualari xususiy ilmiy metodlar sanaladi.

Masalan, tilshunoslikda tavsifiy, qiyosiy-tarixiy, kontrastiv, kvantitativ, struktur kabi metodlar qo'llaniladi. Bu metodlarning har biri o'z ichida xilma-xil tadqiqot usullariga, tadqiqot texnikasiga ega. Demak, muayyan fan sohasida qo'llaniladigan xususiy metodlarning tarkibida qo'llaniladigan bunday usullar, tadqiqot texnikalari ham ko'pincha metod nomi bilan yuritiladi. Masalan, struktur metod uzviy (komponent) tahlil, distributsiya, transformatsiya singari qator metodlarni o'z ichiga oladi. Muayyan ilmiy metod ichidagi bu metodlar, o'z navbatida, turli usullarga bo'linadi. Masalan, transformatsiya metodi permutatsiya, additsiya, soddalashtirish singari usullarni o'z ichiga oladi. Ko'rinadiki, har bir metod ichki shajaraviy bo'linish xususiyatiga ega.

Har qanday fanning asosiy vazifasi bizni qurshab turgan olamdagi narsa va hodisalarning xususiyati va qonuniy aloqalarini bilish sanaladi. Xuddi ana shu vazifa har qanday fanga bilish jarayoni permanent jarayonga aylanish orqali namoyon bo'luvchi dinamiklik belgisini yuklaydi. Fan doimo o'sishda, rivojlanishdadir. U hech qachon ma'lum bir davrda erishgan yutug'i bilan cheklanmaydi. Fanning har bir taraqqiyot bosqichi keyingisi uchun zamin hozirlaydi. Bilish jarayoni muayyan metodga bo'ysungan bo'ladi. Bilish jarayonining metodga tobe bo'lishi ikki asosiy sabab bilan belgilanadi. Birinchidan, narsaning xossasi va uning aloqalari ko'pincha bevosita kuzatishda berilmaydi. O'rganilayotgan hodisaning ana shu yashirin belgilarini aniqlash uchun yordam beradigan tadqiqot usullarini qo'llashga ehtiyoj seziladi. Ikkinchidan, metod fanni tashkil qiluvchi va yo'naltiruvchi ahamiyatga ega. U tadqiqotchini o'rganilayotgan materialning mohiyatini ochishda turli xil chalq'ishlardan saqlaydi.

Ayrim olimlar ilmiy tadqiqotda ilmiy metodning ahamiyatini inkor qiladilar. Xususan, mashhur fizik Maks Born hech qanday metodologiyani tan olmaydi. Uning fikricha, fanda gnoseologik ko'rsatkichlarga ega bo'lgan hech qanday to'ppa-to'g'ri falsafiy yo'l yo'q. Tadqiqotchi changalzorlarda adashib, o'z yo'lini qidiradi va oldinga intilish orqali ortidan o'z yo'lini yaratadi.

Darhaqiqat, fanda adashishlar, yanglishlar bo'ladi. Lekin bu bilan metodologiya va metodni butunlay yo'qqa chiqarish adolatdan bo'lmaydi. Adashish va yanglishlar ko'pincha fanning tadqiqot metodi hali belgilanmagan davriga to'g'ri keladi. Tadqiqot metodi to'g'ri

¹ Степанов Ю.С. Методы и принципы современной лингвистики. –М.: 1975, -С. 18.

² Кахановский В.П. Курсатилган асар. –С. 184.

tanlanishi bilan adashish va yanglishishlar orqaga chekinadi. Shuning uchun har qanday metod tadqiqotchiga kompas bo'lib xizmat qiladi va ilmiy haqiqatga vaqt va kuchni tejagan holda, ratsional va tezroq erishishga yordam beradi.

Ilmiy tadqiqot metodining o'ziga xosligi tadqiqot ob'ekti va tadqiqot maqsadi bilan belgilanadi.

Bizni qurshab turgan olamdagi har bir hodisa nihoyatda ko'pqirrali tabiatga ega. Bundan til hodisasi ham mustasno emas. Shuning uchun bunday ko'pqirrali hodisaning har qaysi qirrasini o'rganish alohida metodni, alohida yondashuvni talab qiladi.

Mavjud metodlardan birining tanlanishi tadqiqotchining o'z oldiga qanday maqsadni qo'ygani bilan bog'liq bo'ladi. Masalan, fanda hali noma'lum bo'lgan muayyan tilning grammatikasini yaratishni maqsad qilib olgan tadqiqotchi qo'lida to'plangan materiallar asosida bir metodni, ma'lum bir tilning tarixiy taraqqiyotini o'rganishni, shu tilning turli sath birliklari proformalarini tiklashni maqsad qilib olgan tadqiqotchi boshqa bir metodni, konkret bir tilning dialektologiyasini o'rganishni maqsad qilib olgan tadqiqotchi yana bir metodni tanlaydi.

Shuning uchun ham har qanday konkret ilmiy tadqiqot metodi ma'lum qo'llanish chegarasiga ega. Ana shu holatga asoslanib, B.A. Serebrennikov: "Tadqiqotda u yoki bu metodni etakchi, monopol deb e'lon qilib bo'lmaydi. Til kabi ko'pqirrali til hodisasini o'rganish uning har bir tomonini yoritishga yordam beradigan xilma-xil metodlarni birgalikda qo'llashni talab qiladi".¹

Savol va topshiriqlar:

1. Umummantiqiy metod nima?
2. Analiz va sintez haqida gapiring.
3. Nazariy va empirik metod nima?

Adabiyotlar

1. Степанов Ю.С. Методы и принципы современной лингвистики. –М.: 1975.
2. Хализев В.Е. Теория литературы. –М.: 2000,
3. Скирбекк Г., Гилье Н. Фалсафа тарихи. -Тошкент: Шарқ, 2002.
4. Шпет Г.Г. Герменевтика и ее проблемы...// Контекст. 1989, 1990, 1991, 1992, -М.: 1989-92.
5. Кахановский В.П. Философия и методология науки. –М., 1999.
6. Павлов И.П. Лекции по физиологии. –М.: 1952.
7. Шермухамедова Н. Фалсафа ва фан методологияси. -Тошкент: 2005.
8. Хакен Г. Синергетика. –М.: 1970.
9. Файзуллаева О. Физика ва фалсафа. "Маърифат", 16.04.2005.
10. Билиш фалсафаси. –Тошкент: "Университет", 2005.

6-mavzu: Ilmiy tadqiqot tamoyillari

Reja:

1. Tamoyil tushunchasi haqida.
2. Tarixiylik tamoyili.
3. Ziddiyat tamoyili.

Tayanch so'z va iboralar: *tamoyil, tamoyil tadqiqot metodi, tarixiylik tamoyili, ziddiyat tamoyili.*

¹ Общее языкознание. Методы лингвистических исследований. –М., 1973, -С. 259

Har qanday ilmiy tadqiqot metodi muayyan tamoyillarga amal qiladi. Demak, tamoyil tadqiqot metodi tarkibiga kiruvchi muhim unsurlardan biridir.

Tamoyil – real borliqning muhim belgilarini aks ettiruvchi va, ayni paytda, uni bilish usulini ifodalovchi fundamental nazariy tushunchadir.¹

U insonning bilish va amaliy faoliyatini tartibga solish uchun xizmat qiluvchi tayanch nuqta bo'lib, muayyan metodologik talablar sistemasini o'zida namoyon qiladi va u yoki bu tushunchalar va qonunlar vositasi orqali ifodalanadi.

Inson faoliyati ma'lum darajada doimo me'yorga bo'ysunadi. Demak, ma'lum qoidalar asosida tartibga solinadi. Tartibga solish – bu har qanday shakldagi inson faoliyatini muayyan qoidalariga muvofiq holga keltirishdir.

Masalan, o'zbek orfografiyasi ma'lum qoidalarga amal qilib, bu qoidalar muayyan tamoyillar asosida belgilanadi. Xususan, fonetik tamoyil asosida bir xil qoida, morfologik tamoyil asosida boshqa bir qoida, tarixiy tamoyil asosida yana boshqa qoida belgilanadi.

Ko'rinadiki, tamoyil insonning bilish faoliyatiga dahldor bo'lib, gnoseologiyaning markaziy tushunchalaridan biri sanaladi.

Inson faoliyatini tartibga solishda me'yor muhim faktor bo'lib xizmat qiladi. Chunki u real borliq in'kosining maxsus shakli hisoblanadi.

Tamoyil ham ierarxik xususiyatga ega bo'lib, umumiydan xususiyligiga qarab o'zaro tubelilik munosabati asosida bog'langan murakkab sistemani tashkil qiladi.

Eng universal, umumiy tamoyil umumfalsafiy tamoyil bo'lib, ilmiy bilish jarayonini tartibga soladi va metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.

Shu bilan birga, har bir fanning, ichki bo'limlarining ob'ektni ilmiy bilishda tasnif va tavsiflashda o'zlariga xos tamoyillari mavjud.

Masalan, o'zbek tilining fonologik sistemasini belgilash turli tamoyillar asosida amalga oshirilishi mumkin: funktsional tamoyil, distributiv tamoyil, perseptiv tamoyil va boshq.

Tadqiqotchining o'rganilayotgan ob'ekt haqida qanday xulosaga kelishi unga qaysi tamoyil asosida yondashayotganiga bog'liq. Demak, bir ob'ekt haqida turli tamoyil asosida turlicha xulosaga kelish mumkin. Har bir tamoyil o'rganilayotgan ob'ektning bitta belgisiga tayanadi va shu belgisi asosida ob'ekt haqida xulosa chiqaradi.

Demak, ko'pqirrali, murakkab belgiga ega bo'lgan ob'ekt haqida to'laqonli bilishga ega bo'lish uchun uning turli qirralariga tayanib ish ko'rgan turli xil tamoyillar o'rtasidagi munosabatga e'tibor qaratish lozim bo'ladi.

Yuqorida ta'kidlanganidek, umumfalsafiy tamoyil barcha xususiy fanlar bo'yicha olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlar uchun umumiylik kasb etadi. Xususan, dialektik falsafa metodologik asos bo'lib xizmat qilgan ilmiy tadqiqotlarda ikki muhim tamoyil ustuvor sanaladi: 1) tarixiylik tamoyili; 2) zidlanish tamoyili.

Tarixiylik tamoyili. Tarixiylik (istorizm) borliqning ichki rivojlanishini ifodalovchi falsafiy, dialektik tamoyil sanaladi. U muayyan narsa va hodisaning vaqt o'qida uzluksiz munosabatda bo'lgan o'tgan, hozirgi, kelasi zamondagi holatlarining bir butunligini ifodalaydi.

Tarixiylik tamoyili quyidagi asosiy talablarni o'z ichiga oladi: a) tadqiqot predmetining hozirgi, haqiqiy holatini o'rganish. Masalan, hozirgi o'zbek tili shevalarida unlilar sistemasini belgilash; b) hozirgi holatini o'rganilayotgan ob'ektning kelib chiqishini, tarixiy taraqqiyot bosqichlarini o'rganish. Masalan, hozirgi o'zbek tili unlilar sistemasining qanday qilib ikki qatorli, to'rt pog'onali 8 talik unlilar sistemasidan kelib chiqish sabablarini aniqlash; v) istiqbolini ko'ra bilish, narsa va hodisaning keyingi rivojlanish-tendentsiyasini tahlil qilish. Masalan, o'zbek shevalarida amalda bo'lgan turli miqdordagi unlilar sistemasidan 6 talik unlilar sistemasini tanlab olish.

Tarixiylik faqat narsa va hodisalarning tarixiy taraqqiyotinigina emas, balki tushunchalarning ham rivojlanish, o'zgarish tarixini o'rganadi.

¹ Кахановский В.П. Ўша асар. 212-бет

Shuning uchun ham dialektik metodga tayangan har qanday fanlarda hozirgi kunda tarixiylik tamoyili keng qo'llanilmoqda.

Zidlanish tamoyili. Ziddiyat tamoyili narsa va hodisalarning ob'ektiv ichki zidlanishiga asoslanuvchi falsafiy, dialektik tamoyil sanaladi.

Bu tamoyil dialektik falsafaning qarama-qarshiliklar birligi va kurash qonuniga tayanadi va quyidagi asosiy talablarni qo'yadi.: a) narsa va hodisalar tarkibidagi ichki a'zolarining zidlanish munosabatlarini aniqlash; b) bu zidlanishdagi zidlanuvchi a'zolaridan bittasini "sof holda" turli tomondan to'la tahlil qilish; v) zidlanuvchi a'zolaridan ikkinchisini "sof holda" turli tomondan to'la tahlil qilish; g) narsa va hodisalarni qarama-qarshiliklar birligi sifatida tadqiq etish; d) bu zidlanishning narsa va hodisaning boshqa zidlanishlar sistemasidagi o'rnini belgilash; e) bu zidlanishning tarixiy taraqqiyot bosqichlarini kuzatish va boshq.

Masalan, o'zbek tili undoshlar sistemasi qanday zidlanish munosabatlaridan tashkil topganligi aniqlanadi. Xususan, jarang-jarangsizlik, portlovchilik-sirg'aluvchilik, labiallik-labiodentallik, til oldilik-til orqalik, titroqlik-titroq emaslik, sonorlik-shovqinlilik singari zidlanish munosabatlari belgilanadi. Shundan so'ng har bir zidlanuvchi juftlikning bitta a'zosining turli xil belgilari aniqlanadi. Xususan, t-d zidlanishida t undoshining til oldilik, portlovchilik, jarangsizlik belgilari aniqlanadi. Shundan so'ng ikkinchi zidlanuvchi a'zo bo'lgan d undoshining ana shunday belgilari yoritiladi. Keyingi bosqichda undoshlarning qarama-qarshiliklar birligi ekanligi ochiladi. Va har bir zidlanuvchi juftlikning zidlanish sistemasidagi o'zni, qaysisini farqlovchi, qaysisi farqlamaydigan belgi ekanligi aniqlanadi.

Narsa va hodisalarning ichki taraqqiyotini ta'minlovchi real ziddiyatni ongda aks ettiruvchi dialektik ziddiyat bilan formal mantiq qonunlari bilan ta'qiqlanuvchi fikriy chalkashlik va noizchillikni ifodalovchi mantiqiy ziddiyatni farqlamoq lozim.

L.Elmslevning empirik tamoyillaridan biri bo'lgan "ziddiyatga yo'l qo'ymaslik" tamoyili ham ana shu mantiqiy ziddiyatga qaratilgan edi.

Bilish jarayonida ziddiyatning muhim rol o'ynashini ta'kidlagan Hegel uning "haqiqat mezonini", ziddiyatni e'tiborga olmaslik esa "adashish o'lchovi" ekanligini ta'kidlaydi.

Ziddiyatga tayanish fan taraqqiyotining zaruriy momenti sanaladi.

Shuning uchun ham F.de Sossyur bilish jarayonida ziddiyatga tayangan holda "Tilda farqlashdan boshqa hech narsa yo'q".-deydi. Struktur tilshunoslikning funksional lingvistika tarmog'i lingvistik ziddiyatlarni chuqur o'rgangan holda, uni turli belgilar asosida bir necha guruhlariga tasnif qilgan edi.

Darhaqiqat, har bir shaxs o'zini qurshab turgan olamni bilish jarayonida bilayotgan narsa va hodisani oldindan o'zi bilgan narsa va hodisalarga qiyoslaydi, zidlaydi. Ular o'rtasidagi o'xshash va farqli tomonlarni aniqlaydi. O'xshash belgilari asosida ularni muayyan sinflarga birlashtiradi. Bir sinfga ma'lum umumlashtiruvchi belgi asosida birlashtirilgan a'zolar, ayni paytda, muayyan farqlovchi belgilari asosida bir-biridan farqlanadi. Har ikki jarayon, ya'ni sinfga birlashtirish va sinf a'zolarini bir-biridan farqlash o'rganayotgan ob'ektni boshqa ob'ektga qiyoslash, zidlash asosida olib boriladi. Bu esa ziddiyat tamoyilining bilish jarayonida naqadar muhim ekanligini ko'rsatadi.

Savol va topshiriqlar:

1. Tamoyil qanday tushuncha?
2. O'zbek tilining fonologik sistemasini belgilash qaysi tamoyillar asosida amalga oshiriladi?
3. Ilmiy tadqiqotlarda qaysi tamoyillar ustuvor sanaladi?
4. Tarixiylik tamoyilining asosiy talablarini aytib bering.
5. Ziddiyat tamoyilining qanday asosiy talablari mavjud?

Adabiyotlar

1. Степанов Ю.С. Методы и принципы современной лингвистики. —М.: 1975.

2. Хализев В.Е. Теория литературы. –М.: 2000,
3. Скирбекк Г., Гилье Н. Фалсафа тарихи. -Тошкент: Шарқ, 2002.
4. Кахановский В.П. Философия и методология науки. –М.: 1999.
5. Шермухамедова Н. Фалсафа ва фан методологияси. -Тошкент: 2005.
10. Билиш фалсафаси. –Тошкент: “Университет”, 2005.

7 - mavzu: Ilmiy tadqiqot aspektlari

Reja:

1. O'rganilayotgan ob'ektning serqirra tabiati.
2. Tadqiqot aspektlari.
3. Tadqiqot aspektlari hamkorligi.

Tayanch so'z va iboralar: *aspekt, akustik aspekt, artikulyatsion aspekt, funksional aspekt, semosiologik aspekt, onomosiologik aspekt, struktur aspekt, stilistik aspekt, umumiy va xususiy metodlar hamkorligi.*

Har qanday o'rganilayotgan ob'ekt ko'p qirrali, murakkab xarakterga ega bo'ladi. Shuning uchun tadqiqotchi uning hamma tomonlariga emas, balki muayyan bir tomoniga tayanadi. Ob'ektning ilmiy tadqiqoti uchun asos bo'lgan tomoni aspekt hisoblanadi. Borliqdagi narsa va hodisalarni ma'lum bir aspektda o'rganish har qanday fan uchun odatdagi hol sanaladi. Bizni qurshab turgan olamni turli fanlar turli tomondan o'rganishning o'zi fikrimizning dalilidir. Masalan, gul o'simlik sifatida botanikaning, kimyoviy birikmalar sifatida kimyoning, ranglar uyg'unligi sifatida san'atshunoslikning o'rganish ob'ekti sanaladi. Bu fanlar bir ob'ektning turli xil tomonlarini o'rganish bilan bir-biridan farq qiladi.

Xuddi shuningdek, har bir fanning o'zi ham bir ob'ektni turlicha aspektda o'rganib, turli xulosa chiqarishi mumkin. Bu fanning tarmoqlarini keltirib chiqaradi. Masalan, bitta unli yoki undosh tovushning o'zi akustik, artikulyatsion, funksional tomonlarga ega bo'lgan murakkab butunlik sifatida turli tomondan turli aspektda o'rganilishi mumkin: akustik aspekt, artikulyatsion aspekt, funksional aspekt va boshq.

Yoki leksik butunliklar shakl va mazmun tomoniga va har bir tomon o'z ichki tuzilishiga ega bo'lgan murakkab butunlik sifatida turli tomondan o'ranilishi mumkin: semosiologiya aspekt, onomosiologik aspekt, struktur aspekt, stilistik aspekt va boshq. Bu aspektlarning har biri o'z tekshirish usuli va atamalar tizimiga ega bo'lib, bir ob'ektning turli qirralarini turli tomondan ochib beradi.

Bir ob'ektni turli aspektda o'rganish shu ob'ektning bir aspektda ochilmagan qirralarini boshqa aspektda yoritish va shu orqali hodisaning xossalari haqida to'liq ma'lumotga ega bo'lish imkonini beradi.

Masalan, hozirgi o'zbek adabiy tilidagi unlilar sistemasini turli aspektda turli metodni qo'llagan holda o'rganish mumkin. Qaysi metodni qo'llash tadqiqot maqsadiga qarab belgilanadi. Agar tadqiqotchi qanday qilib o'zbek tili 6 talik unlilar sistemasiga aylanib qolganligini izohlashni maqsad qilib olgan bo'lsa, qiyosiy-tarixiy metodni qo'llaydi va tashqi lingvistika (til kontakti) materiallariga murojaat qiladi.

Agar tadqiqotchining maqsadi unlilar sistemasining differentsial va nodifferentsial belgilarini aniqlash bo'lsa, u struktur metoddan foydalanadi va unda oppozitsiya usuli keng qo'llaniladi.

Qiyosiy-tarixiy metod orqali aniqlanmagan unlilarning “atom”lari, ya'ni differentsial belgilari struktur metod orqali belgilanadi. Struktur tilshunoslikning paydo bo'lishi an'anaviy tilshunoslikdagi muammolarning ijobiy hal qilinishiga yo'l ochib berdi. I.P.Susovning

ta'kidlashicha, distributiv tahlil usuli tilning ichki tuzilishini yoritishda cheksiz imkoniyat yaratdi.¹

Savol va topshiriqlar:

1. Ilmiy tadqiqot aspektlari deganda nimani tushunasiz?
2. Tilshunoslik aspektlari haqida gapring.
3. Tadqiqot aspektlari hamkorligi qanday.

Adabiyotlar

1. Общее языкознание. Методы лингвистических исследований. –М.: 1973.
2. Степанов Ю.С. Методы и принципы современной лингвистики. –М.: 1975.
3. Гейзенберг В. Физика и философия. Часть и целое. –М.: 1989,
4. Подкорытов Г.А. Соотношение диалектического метода с частными методами. – ВФ., 1968, №6.
5. Кахановский В.П. Философия и методология науки. –М., 1999.
6. Билиш фалсафаси. –Тошкент: “Университет”, 2005.

8 - mavzu: Umumiy va xususiy metodlar hamkorligi

Reja:

1. Umumiy va xususiy metodlar hamkorligi.
2. Dialektik metodning xususiy metodlar bilan hamkorligi.
3. Lingvistik birliklarning serqirraliligi.

Tayanch so'z va iboralar: umumiy va xususiy metodlar, dialektik metod, lingvistik birliklarning serqirraliligi xususiy ilmiy metod, distsiplinar metod.

Umumiy va xususiy ilmiy metodlar o'zaro uzviy bog'liqdir. Xususiy ilmiy metodlar umumiy metodlarga asoslanadi. Umumiy falsafiy metoddan holi bo'lgan xususiy ilmiy metodlar mavjud emas. Xususan, dialektik metod barcha fanlarda qo'llanadi. Lekin bu dialektik metod barcha xususiy ilmiy metodlarning o'rnini bosadi, degan xulosaga olib kelmasligi kerak.

Umumfalsafiy metodlar xususiy ilmiy metodlarda ularning tadqiq usullaridan ajralgan holda go'yo xususiy metodlari ustiga qo'yilgan qo'shimcha metod sifatida qo'llanilmaydi. Aksincha umumfalsafiy metodlar xususiy metodlarga singib ketgan holda, xususiy metodlar orqali amalga oshadi.¹

Xususiy ilmiy metod. U yoki bu fan tarmog'ida qo'llaniladigan bilishning usul va tamoyillari yig'indisi. Ximiya, fizika, matematika, tilshunoslik singari fanlarda qo'llaniladigan tadqiqot metodlari xususiy ilmiy metod sanaladi. Masalan, distributiv metod, uzviy tahlil metodi, transformatsiya metodi singari metodlar tilshunoslik fanining xususiy metodlari hisoblanadi.

Distsiplinar metod. Ma'lum fanning u yoki bu tarmog'iga xos metodlar distsiplinar metod hisoblanadi. Masalan, tilshunoslikning dialektologiya yo'nalishi o'ziga xos metodlarga, fonetika bo'limi o'ziga xos metodlarga ega. Xususan, astsillografik metod, ximografik metod singari metodlar tilshunoslikning faqat fonetika bo'limida qo'llaniladigan distsiplinar metod sanaladi.

Shunday qilib, metod pog'onaviy tabiatga ega bo'lib, umumfalsafiy metoddan distsiplinar metodga qarab umumiydan xususiyligiga tamoyili asosida yo'nalib boradi.

Har bir tadqiqotchi ilmiy tadqiqot jarayonida u yoki bu umumfalsafiy metodni metodologik asos qilib olish bilan birga, metodning barcha pog'onalaridan foydalanadi.

Ko'rinadiki, metodologiya faqat bitta metod, borinki “eng muhim metod” bilan chegaralanib qolmaydi.

¹ Общее языкознание. Методы лингвистических исследований. –М.: 1973, -С. 267

¹ Подкорытов Г.А. Соотношение диалектического метода с частными методами. –ВФ., 1968, №6.

Dialektik metodning xususiy metodlar bilan aloqasi haqida fikr yuritgan P.Kovach-Ferentsev uning quyidagi belgilarini ajratadi:

1. Dialektik metod xususiy metodlar uchun asos bo'lib xizmat qiladi.
2. Dialektik metod ilmiy tadqiqotning mantiqiy asoslari orqali xususiy metodlarga singib ketadi.
3. Dialektik metod borliq hodisalarining umumiy rivojlanish, o'zgarish tendensiyalarini ochib beradi. Xususiy ilmiy metodlar esa borliqdagi narsa va hodisalarning ichki tuzilishni ochishda unga hamkorlik qiladi.
4. Dialektik metod abstrakt tamoyillarni beradi, xususiy metodlar ularni konkretlashtiradi.
5. Dialektik metod ma'lum darajada xususiy metodlarni umumlashtirish asosida maydonga keladi.

6. Falsafiy metod xususiy metodga "kiradi" va xususiy metod doirasida amal qiladi.²

Falsafiy metodning (dialektik metodning) D.Yelmslevning empirik metodi bilan munosabati haqida fikr yuritgan I.P.Susov uning tamoyillari ob'ektning rivojlanish qonunlarini emas, balki sub'ektning ob'ekt haqidagi tafakkur qonunlarini o'z ichiga olishini bayon qiladi. Xususan, empirik metodning asosiy tamoyili "ziddiyatsizlik", ob'ektivlik", "soddalik" bo'lib, bu odatdagi tushunishda ilmiy tadqiqot olib borishning oddiy uslubiy talabi sifatida qabul qilinadi.

Aslida glossemantik yo'nalishda bu tushunchalar muayyan falsafiy sistema bilan bog'liqdir. Shuni ta'kidlash kerakki, yuqoridagi uch tushuncha: "ziddiyatsizlik", "ob'ektivlik", "soddalik" falsafiy tushuncha hamdir. Turli falsafiy sistemalarda bu tushunchalar turlicha talqin qilinadi.

Bu tushunchalarning birinchisi haqida strukturalistlarning o'zi ham aniq javob bermaganligini, qaysi ziddiyatni bartaraf qilish lozimligi aniq emasligini bayon qilgan I.P.Susov ziddiyatning ikki turi – sub'ektiv ziddiyat va ob'ektiv ziddiyat mavjud bo'lishini ta'kidlaydi.

Uning ta'kidlashicha, dialektik metodning katta ahamiyati shundaki, u tadqiqotchi tafakkur jarayonida o'rganilayotgan ob'ektda mavjud bo'lgan ziddiyatning aks etishi sifatida namoyon bo'lgan ob'ektiv ziddiyatni ochishga imkon beradi va shu bilan birga uni mantiqiy noto'g'ri fikrlash yo'li natijasida maydonga keladigan sub'ektiv ziddiyatdan farqlash imkonini beradi.¹

Ba'zan tafakkurda shunday ziddiyat vujudga keladiki, u bilish taraqqiyotini susaytiradi. Bunday ziddiyat insonning noto'g'ri fikrlashi natijasida kelib chiqadi. Inson – sun'iy ravishda faqat formal-mantiqiy ziddiyatni, ya'ni noto'g'ri fikrlash ziddiyatiningina hosil qilishi mumkin.

Formal-mantiqiy ziddiyat bilan birga inson xohish-irodasidan tashqari, qonuniy kelib chiqadigan ob'ektiv ziddiyat ham mavjud. Bunday ziddiyat dialektik ziddiyat sanaladi. Agar formal-mantiqiy ziddiyat yanglishishga olib kelsa va har bir tadqiqotchi qanday bo'lmasin undan qutulishga intilsa, dialektik ziddiyat bilishni rivojlantirishga va o'rganilayotgan ob'ekt mohiyatiga chuqurroq kirib borishga imkon beradi.

Dialektik ziddiyatni e'tibordan soqit qilish mumkin emas, chunki u o'rganilayotgan narsa va hodisaning mohiyatini tashkil etadi. Dialektik ziddiyat ob'ektiv mavjud bo'lib, bilish jarayonida sub'ekt tomonidan aniqlanadi.

Yuqorida glossemantiklar tomonidan bayon qilingan "ziddiyatsizlik" tamoyili formal-mantiqiy ziddiyatga tegishlidir. Shuning uchun ham bunday ziddiyatga yo'l qo'ymaslik har qanday ilmiy tadqiqotning vazifasi bo'lishi lozim. Glossemantiklar ana shunday ziddiyatni sof formallashtirilgan va matematiklashtirilgan tadqiqot metodlari yoki sof abstrakshtirishga asoslangan matematik mantiq metodini qo'llash orqali bartaraf qilish mumkin.

L.Yelmslev fikricha, formal-mantiqiy ziddiyatni bartaraf qilish orqali tadqiqotchi o'rganilayotgan ob'ektning mohiyatiga kirib boradi.

² П.Ковач - Франчес. Методология и ее роль в системе наук. АКА. –М.: 1968, -С.8

¹ Андреев Н.Д. О методах научного познания. –М.: 1964.-с.37; Общее языкознание. –С.274.

Narsa va hodisalarning ziddiyatli belgilaridan faqat bittasiga tayanib ish ko'rgan olimlar shu narsa va hodisalar haqida ikki xil xulosaga kelishi mumkin. Lekin ana shu qarama-qarshi tomonlar o'rtasidagi munosabatlarni aniqlash asosida butunning dialektik tabiati ochiladi.

XX asr boshlarida atom tuzilishi nazariyasi bilan Makskvell elektrodinamikasi orasida ziddiyat paydo bo'lib qoldi. Masalan, materiya, bir tomondan, dona-dona, chekli, diskret, uzukli holda, ikkinchi tomondan-uzluksiz tarzda paydo bo'ladi. Qaysi biri to'g'ri? Agar ular bir vaqtda, birgalikda qaralsa, ikkalasi ham to'g'ri. 1924 yilda Lup de Broyl har bir elementar zarra bir vaqtning o'zida ikki xil xususiyatga ega: ham kvant (dona-dona, cheklangan), ham maydon (uzluksizlik) holda mavjud, degan xulosaga keldi.

So'ngra Shredinger de Broyl taxmini asosida zarralar uchun to'lqin tenglamasini, Geyzenberg esa kvant mexanikasi asosiy tenglamasini matritsa shaklida kashf etdi. Va nihoyat Shredingerning to'lqin mexanikasi bilan Geyzenbergning kvant mexanikasi o'rtasida ayniyat borligini aniqladi. Shunday qilib, uzluklik va uzluksizlik dialektikasi kashf etildi.¹

Ana shunday xususiyat lingvistik birliklarda ham kuzatiladi. Masalan, ham so'zida yuklamalik va bog'lovchilik belgilari, bilan so'zida ko'makchilik va bog'lovchilik belgilari hamkorlikda mavjuddir. Shuning uchun ularni ayrim mualliflar bitta belgisi asosida yordamchi so'zlardan faqat bittasiga kiritsa, ayrim mualliflar har ikki belgisini birgalikda olgan holda, birinchisini yuklama-bog'lovchi, ikkinchisini esa ko'makchi-bog'lovchi deb hisoblaydilar.

Savol va topshiriqlar:

1. Xususiy metod qaysi metodga asoslanadi?
2. Xususiy ilmiy metodining mohiyatini tushuntirib bering.
3. Dialektik metod qanday metod? Тушунтириб беринг.
4. Distsiplinar metod deganda nimani tushunasiz?

Adabiyotlar

1. Шермухаммедова Н. Фалсафа ва фан методологияси. –Тошкент, 2005.
2. Степанов Ю.С. Методы и принципы современной лингвистики. –М., 1975.
3. Скирбекк Г., Гилье Н. Фалсафа тарихи. -Тошкент: Шарқ, 2002.
4. Кахановский В.П. Философия и методология науки. –М.: 1999.
5. Билиш фалсафаси. –Тошкент, “Университет”, 2005.

9-mavzu: Xususiy metodlar hamkorligi

Reja:

1. Xususiy metodlar hamkorligi.
2. Metodlar plyuralizmi.
3. Metodlarning gormonik yaxlitligi.

Tayanch so'z va iboralar: *xususiy metodlar, metodlar plyuralizmi, metodlarning garmonik yaxlitligi, modifikatsiyalanish..*

Metodologiya faqat bitta metod bilan, hatto “eng muhim”, “yagona ilmiy” sifatlari bilan nomlanuvchi metod doirasida cheklanmaydi. V.Geyzenberg ta'kidlaganidek, tadqiqotchi hech qachon faqat muayyan bitta metodga tayanib qolmasligi, hech qachon o'z tafakkurini yagona falsafa bilan cheklab qo'yimasligi lozim.¹

¹ Файзуллаев О. Физика ва фалсафа. “Маърифат”, 2005, 16 апрель.

¹ Гейзенберг В. Физика и философия. Часть и целое. –М.: 1989, -С.85

Shuningdek, metodologiya alohida metodlarning oddiy yig'indisi emas. Metodologiya turli sath usullari, tamoyillari, yo'llarining murakkab dialektik, yaxlit subordinativ sistemasidir.² Bu nuqtai nazardan quyidagilarni e'tiborga olish zarurligini ko'rsatadi:

1. Har bir metod ajralgan holda, o'z-o'zicha emas, balki boshqa metodlar bilan hamkorlikda qo'llaniladi. Bu ilmiy faoliyat natijasi u yoki bu metodlarning usullaridan o'rinli va samarali foydalanish bilan belgilanadi. Muayyan metodning elementlari o'z-o'zicha emas, balki butunning bir tomoni sifatida mavjud bo'ladi va bir butun sifatida qo'llaniladi. Shuning uchun ham metodologik plyuralizm, ya'ni xilma-xil metodlarni egallash va ulardan o'rinli foydalanishning ahamiyati beqiyosdir. O'zaro zid metodologik yondashuvlarni va ularni to'g'ri uyg'unlashtirishni bilish ham muhimdir.

2. Ilmiy tadqiqotning umumiy asosi, metodologik bilimlar sistemasining negizi falsafa sanaladi va u universal metod hisoblanadi. Uning tamoyillari, qonun va kategoriyalari tadqiqotning umumiy yo'nalishi va strategiyasini belgilaydi.

Ilmiy tadqiqotda faqat falsafiy tamoyillar bilan cheklanib ham qolmaslik va uni e'tibordan chetda ham qoldirmaslik zarur.

3. Hech bir metod universal "hodisa" emas. Boshqacha aytganda, "birorta metodologik" tamoyil ilmiy tadqiqot jarayonida boshi berk ko'chaga kirib qolishdan holi emas".³ Shuning uchun ham metodologik bilimlarning muayyan miqdorini egallab, "nazariy jasorat" ko'rsatish mumkin degan, xulosa chiqargan holda ilmiy bilish taraqqiyotida metodologik tahlil rolini soddalashtirmaslik, tor pragmatik ma'noda tushunmaslik kerak.

Har bir metod, agar undan yetaklovchi kuch sifatida emas, faktlarni yopish uchun tayyor shablon sifatida foydalanilsa, u samarasiz va hatto foydasiz bo'lib qoladi.

Har qanday metodning bosh maqsadi muayyan tamoyillar asosida ma'lum bilish muammolarini muvaffaqiyatli hal qilish, bilimimizni kengaytirishdir.

4. Har qanday muayyan fan doirasidagi ilmiy tadqiqot jarayonida, konkret shart-sharoitdan va tadqiqot maqsadidan kelib chiqib modifikatsiyalanish mumkin. Masalan, ma'lum bir tilning hozirgi holatini o'rganishni maqsad qilib olsak, u vaqtda umumfalsafiy metodlardan bittasini, aytaylik, dialektik metodni tanlaymiz. Til tuzilishining turli sathlari, sath birliklari o'rtasidagi xilma-xil munosabatlarni dialektik qonunlar va kategoriyalar asosida ochishga harakat qilamiz. Natijada umumfalsafiy metod xususiy ilmiy metodga singdiriladi.

5. Ilmiy tadqiqot jarayonida turli metodlardan hamkorlikda foydalanish mumkin. Bunday vaqtda har bir fan sohasida qo'llanilgan va uning qo'llanishi katta ilmiy natijaga olib kelgan metod boshqa fan sohalariga ham qo'llaniladi. Dialektik metod esa umumiy va xususiy metodlar o'rtasida hamkorlik qiladi va bu hamkorlik alohidalik va xususiylik dialektikasiga muvofiq deyiladi.

Masalan, XIX asrda tabiiy fanlarda katta muvaffaqiyat qozongan struktur metod keyinchalik tilshunoslikka ham olib o'tildi va tilshunoslikda ham bu metod yangi-yangi kashfiyotlarning qilinishiga sababchi bo'ldi. Ayni paytda bu metodning tabiiy fanlardan tilshunoslikka ko'chirilishi bilan birga, falsafiy metod ilmiy tadqiqotlarning metodologik asosi bo'lib xizmat qildi.

6. Metodologik bilish sathlari murakkab, vositali xarakterga ega. Xususan, o'ziga xos yoki biologik jarayonlarni u bevosita, to'g'ridan-to'g'ri faqat dialektika tamoyillari asosida tushuntirish mumkin emas. Shuningdek, to'g'ridan-to'g'ri, oraliq bo'g'insiz, tadqiq qilinayotgan hodisaning o'ziga xosligini e'tiborga olmasdan sistemaviy, struktur-funksional, matematik, kibernetik, statistik, sinergetik kabi umumilmiy metodlarni qo'llash ham mumkin emas. Umumilmiy metodlar falsafiy tamoyillarni u yoki bu xususiy fan tiliga "ko'chirish" uchun xizmat qiluvchi eng muhim oraliq bo'g'inni tashkil qiladi.

Masalan, ma'lum bir konkret tilni o'rganishda muayyan falsafiy metod sanaladi. So'ngra tilni qaysi nuqtai nazardan, qaysi maqsadda o'rganishga ko'ra umumilmiy metodlardan bittasi

² Кахановский В.П. Кўрсатилган асар. –С. 287

³ Пригожин И., Стенгерс И. Порядок из хауса: Новый диалог человека с природой. –М.: 1986. –С. 86.

tanlanadi. Aytaylik, struktur metod tanlandi. Struktur metod faqat tilshunoslikkagina dahldor emas, balki adabiyotshunoslikka va boshqa fanlarga ham dahldordir.

7. Har qanday metod yaxlit bir butun holda qo'llanilgandagina, ya'ni uning barcha tomonlari va qirralari garmonik yaxlitlikda olinib, fanning muayyan tarmog'ida maqsadga muvofiq qo'llanilgandagina kutilgan samarani beradi.

Har bir metod, shu jumladan dialektik metod ham, o'z doirasida ma'lum muammolarni hal qilishda tadqiqotchi uchun to'g'ri yo'l ko'rsatsa ham, lekin ulardan har birini absolyutlashtirish, birini boshqalardan ustun qo'yish, "metodologik kanonizatsiya" va universallashtirish oqibatida o'z doirasidan tashqariga olib chiqish ko'p chalkashliklarga olib kelishi mumkin.

Savol va topshiriqlar:

1. Xususiy metodlar hamkorligi haqida tushunchangizni gapiring.
2. Metodlar plyuralizmi nima?
3. Metodlarning gormonik yaxlitligi deganda nimani tushunasiz?.

Adabiyotlar

1. Гейзенберг В. Физика и философия. Часть и целое. –М.: 1989.
2. Файзуллаев О. Физика ва фалсафа. "Маърифат", 2005, 16 апрель.
3. Пригожин И., Стенгерс И. Порядок из хаоса: Новый диалог человека с природой. –М.: 1986.
4. Андреев Н.Д. О методах научного познания. –М.: 1964.
5. Подкорытов Г.А. Соотношение диалектического метода с частными методами. – ВФ., 1968, №6.
6. П.Ковач - Франчес. Методология и ее роль в системе наук. АКД. –М.: 1968, -С.8.
7. Общее языкознание. Методы лингвистических исследований. –М.: 1973.

10-mavzu: Tilni o'rganish metodlari

Reja:

1. Tavsifiy metod.
2. Qiyosiy metod.

Tayanch so'z va iboralar: *falsafiy va mantiqiy metod, umumilmiy metod, tavsifiy metod, qiyosiy-tarixiy metod.*

Ob'ektni bilish jarayonida tadqiqotchi unga muayyan metodologiya va tekshirish metodi asosida yondashadi. O'rganilayotgan ob'ektni qay darajada ob'ektiv izohlash tadqiqotchining qanday metodologiya va tadqiqot metodiga tayanishiga bog'liq. Shuning uchun har qanday fanda metodologiya va metod tayanch nuqta bo'lib xizmat qiladi.

Har qanday fan maxsus tadqiqot metodlarini ishlab chiqadi. Bu ilmiy tadqiqot metodlari falsafiy va mantiqiy metodlar bilan umumilmiy metodlar orqali muvofiqlashadi.

Xususan, tilshunoslikda qo'llaniladigan metodlar matematika yoki fizikada qo'llaniladigan metodlardan farq qiladi. Fizikada asboblardan yordamidagi eksperiment metodi ustuvorlik qilsa, tilshunos matn tahlili va uni umumlashtirish usulidan ko'proq foydalanadi.

Metod atamasi bilan metodika atamasi ko'p hollarda sinonim sifatida ishlatiladi. Lekin metod va metodika bir-biridan farq qiladi. Metod bilish usuli bo'lsa, metodika bilish usulida qo'llaniladigan yo'l-yo'riqdir.

Metodologiya umuman ilmiy metod haqidagi ta'limot hamda xususiy fanlar metodlari haqidagi ta'limot, ya'ni bilish faoliyati yo'llari haqidagi ta'limot sifatida har qanday fan nazariyasi va amaliyotida katta ahamiyatga ega.¹

Ko'rinadiki, metodologiya va metod tushunchalari o'zaro uzviy bog'liqdir. Xususiy fan metodlari bilan umumiy ilmiy metod bir-biri bilan munosabatdadir.

Bilish usullari umumiy va xususiy bo'ladi. Shuning uchun u falsafiy metod, ya'ni umuman bilish usuli haqidagi metod va umumilmiy metodlarga bo'linadi. Birinchi holatda metodologiya u yoki bu falsafiy sistemaga xos bilish metodi tamoyillariga muvofiqligi sifatida tushunilsa, ikkinchi holatda esa metodologiya u yoki bu fan tarmog'iga xos tadqiqot metodlari haqidagi ta'limot sifatida tushuniladi.

Fan metodologiyasi bilishning falsafiy metodining muayyan fan doirasida o'rganilayotgan ob'ekt xususiyatlaridan kelib chiqqan holda konkret qo'llanilishidir.

Falsafiy metod, ya'ni bilish metodi tabiat, jamiyat va tafakkurning umumiy qonuniyatlari haqidagi ta'limot sanaladi.

Umummetodologik tamoyillar turli fanlar bergan ma'lumotlarni umumlashtirish asosida vujudga keladi.

Tilshunoslikda tavsifiy, qiyosiy-tarixiy, struktur singari metodlar qo'llaniladi va ulardan qaysi birining ustuvor metodga aylanishiga ko'ra tilshunoslik tarixi ham turli bosqichlarga bo'linadi.

Tavsifiy metod. Tavsifiy metod tilshunoslikda eng qadimiy va eng keng tarqalgan metod hisoblanadi. Ayniqsa bu metod til o'qitish tajribasi uchun katta ahamiyatga ega.

Tavsifiy metodning o'ziga xos jihati shundan iboratki, u ob'ektni bevosita sezgi a'zolari bergan ma'lumotga asoslanib o'rganadi. Xususan, tavsifiy tilshunoslikning o'rganish ob'ekti matn hisoblanadi. Matndan gaplar, gaplardan so'zlar, so'zlardan morfemalar, morfemalardan tovushlar ajratiladi va ular muayyan guruhlariga birlashtirilgan holda tavsiflanadi.

Tavsifiy metod ma'lumotlari boshqa barcha metodlar uchun tayanch nuqta bo'lib xizmat qiladi. Xususan, struktur metod tavsifiy metod xulosalariga tayangan holda ish ko'radi. Yoki qiyosiy-tarixiy metod uchun ham qiyoslanayotgan ob'ekt haqidagi izohni tavsifiy metod beradi. Demak, u ham tavsifiy metod xulosalari asosida ish ko'radi.

Qiyosiy metod. Olamni bilishda o'rganilayotgan ob'ektni qiyoslash katta rol o'ynaydi. Oldin o'rganilgan ob'ektni yangi o'rganilayotgan ob'ektga qiyoslash bilishning eng asosiy usullaridan biridir. Qiyoslash natijasida qiyoslanayotgan ob'ektlarning umumiy va o'ziga xos jihatlari aniqlanadi. Bunday usul tilshunoslikda ham qardosh va qardosh bo'lmagan tillarning umumiy va o'ziga xos jihatlari yoritishda keng qo'llaniladi. Shuning uchun ham qiyoslash umumilmiy tafakkur jarayoni sifatida lingvistik tahlilning barcha metodlarida uchraydi.

Lekin lingvistik tadqiqot metodikasida bir tilning ichki tuzilishi bo'yicha qiyoslash va tillararo qiyoslash jiddiy farqlanadi. Bir tilning ichki tuzilishi bo'yicha qiyoslash shu tilning turli grammatik hodisalari va kategoriyalarini o'z ichiga oladi. Masalan, sifat bilan ravish qiyoslanadi va ularning umumiy hamda o'ziga xos jihatlari aniqlanadi.

Tillararo qiyoslashda turli tillar bir-biriga taqqoslanadi.

Tillararo qiyoslash, bir tomondan, qardosh tillarni, ikkinchi tomondan, noqardosh tillarni o'rganish va o'qitish tajribasi ta'sirida maydonga keldi.

Tillararo qiyoslash o'ziga xos tadqiqot usullari sistemasiga ega. U ikki xil tilshunoslik metodini vujudga keltirdi. Birinchisi, qardosh tillarni qiyoslash, ikkinchisi esa noqardosh tillarni qiyoslash.

Birinchi tipdagi qiyoslashda qardosh tillardan bittasini boshqasiga qiyoslash yo'li bilan ularning tarixiy taraqqiyoti, ular o'rtasidagi farqlanish jarayoni ochib beriladi. Bunday qiyoslash qiyosiy-tarixiy metod asosida olib boriladi. Bu metod tillarning genetik umumiyligiga asoslanadi.

¹ Шермухаммедова Н. Фалсафа ва фан методологияси. Тошкент, 2005, 211-бет

Ikkinchi tipdagi qiyoslash turli sistemadagi tillar asosida olib boriladi va uning natijasida tipologik kategoriyalar aniqlanadi. Bunday metod qiyosiy-chog'ishtirma metod sanaladi.

Savol va topshiriqlar:

1. Umumiy va xususiy metodlar deganda nimani tushunasiz?
2. Tavsifiy metodni qanday izohlaysiz?
3. Qiyosiy-tarixiy metod va qiyosiy-chog'ishtirma metodning farqi nimada? Izohlab bering.

Adabiyotlar

1. Нурмонов А. Структур тилшунослик: илдизлари ва йўналишлари. –Тошкент: 2009.
2. Нурмонов А., Искандарова Ш. Тилшунослик назарияси. -Тошкент: Фан, 2008.
3. Нурмонов А. Ўзбек тилшунослиги тарихи. –Тошкент: Ўзбекистон, 2002.
4. Усмонов С. Умумий тилшунослик. –Тошкент: Ўқитувчи, 1972.
5. Расулов Р. Умумий тилшунослик. 1-қисм. –Тошкент: 2005.

11 - mavzu: Tarixiy-genetik (geneologik) metod

Reja:

1. Tarixiy-genetik metod haqida.
2. Tillarning qarindoshligi haqida.
3. Rekonstruksiya haqida.

Tayanch so'z va iboralar: *tarixiy-genetik metod, tillarning qarindoshligi, rekonstruksiya, hind-ovropa bobo tili, morfologik proformalar, differensial belgilar, qisqa unli, cho'ziq unli.*

Tillarning fonetik, leksik-grammatik birliklarini qiyoslab, ularning o'xshash belgilarini aniqlash asosida muayyan til oilalariga birlashtirib o'rganish tarixiy-genetik metod sanaladi.

Tarixiy-genetik metodning haqiqiy asoschisi Mahmud Koshg'ariy sanaladi. U turkiy tillarni hoqonicha-turkcha, qipchoq, o'g'uz guruhlariga bo'lgani holda, bu guruhlar o'rtasidagi fonetik, leksik-grammatik farqlanishlar haqida izchil ma'lumot beradi. Shu bilan birga bu tillar bir umumiy manbadan kelib chiqqanligi haqida fikr yuritadi.

Shunday bo'lishiga qaramasdan XIX asrga qadar Mahmud Koshg'ariyning bu asari ilmiy jamoatchilikka noma'lum bo'lganligi tufayli tarixiy-genetik (geneologik) metod nemis olimi Avgust Shleyxer nomi bilan bog'landi. U hind-ovropa til oilasini o'rgangan holda, bu oilaga mansub tillar bir ajdoddan, ya'ni bir bobo tildan kelib chiqqan degan xulosaga keldi. U tilshunoslik tarixida ilk bor hind-ovropa bobo tilini tiklashga va uning har bir shajarasining tarixiy taraqqiyotini ko'rsatishga erishdi.

Bobo til nazariyasi qiyosiy-tarixiy tadqiqotlarning kengayishiga va rivojlanishiga kuchli ta'sir qildi. Bobo til shakllarini tiklash XIX asr o'rtalarida qiyosiy-tarixiy tilshunoslikning bir maqsadi bo'lib qoldi.

Keyinchalik bu g'oya ikki yo'nalishda rivojlandi. Birinchi yo'nalish A.Shleyxerning bobo til va uning "o'lishi" haqidagi qarashi haqiqiy holatni ancha soddalashtirish ekanligini ko'rsatadi. Xususan, I.Shmidt A.Shleyxerning bu nazariyasiga tanqidiy yondashgan holda, "to'liqlik nazariya"sini olg'a suradi va bu nazariya keyinchalik "areal lingvistika" yo'nalishining shakllanishiga asos bo'ldi.

Ikkinchi yo'nalish tarafdorlari bobo til muammosining umumiy ahamiyatlilik darajasini qayta ko'rib chiqish tendensiyasida bo'ldilar. Jumladan, A.Meye hind-ovropa bobo tilini tiklash mumkin emas, degan xulosaga keladi. Uning fikricha, hind-ovropa tillariga mansub bo'lgan tillarni qiyoslash asosida bobo tilni tiklash mumkin emas. Chunki o'lgan tilni qiyoslash asosida

tiklab bo'lmaydi. Roman bobo tili haqida gapirish mumkin. Chunki bu tillar uchun umumiy bo'lgan manba – lotin tili yodgorliklari mavjud.

Ayrim mualliflar bobo til nazariyasini, umuman, rad etadilar. Xususan, N.Ya.Marr bobo til g'oyasi ilmiy uydirma ekanligini. Aslida hind-ovrupa tillariga asos bo'lgan hech qanday bobo til bo'lmaganligini. Bu tillar aslida bir bobo tildan emas, balki bir necha qabila tillaridan kelib chiqqanligini bayon qiladi.

Shuni ta'kidlash kerakki, qarindosh tillar hozirgi kunda mavjud ekan, til oilasi haqida va bu oilaning ibtidosiyu bobo tili haqida fikr yuritish mumkin bo'ladi. Ayniqsa, bu til oilasining har bir a'zosi uchun umumiy bo'lgan yozma yodgorliklar mavjud bo'lsa, bobo til holati haqida baxs yuritish oson bo'ladi.

Bu jihatdan, roman bobo tili haqida fikr yuritish uchun qanday imkoniyat bo'lsa, turkiy bobo til haqida baxs yuritishga ham shunday imkoniyat mavjud. Chunki turkiy bobo til haqida ma'lumot beruvchi qadimgi turk yozma yodgorliklarining mavjudligi bunga qulay sharoit yaratadi. Shuning uchun ham turkiy tillarni qiyosiy o'rganish bilan shug'ullanuvchi har qaysi tadqiqotchi bobo til shaklini tiklashga, rekonstruksiya qilishga harakat qiladilar.

Rekonstruksiya usuli qiyosiy-tarixiy tilshunoslikning tayanchi sanaladi.

Xususan, A.M.Shcherbak turkiy tillarning fonetikasi va grammatikasini qiyosiy-tarixiy metod asosida tadqiq etar ekan umumturkiy fonologik sistemani va morfologik proformalarni (barcha turkiy tillar uchun umumiy grammatik shakllarni) tiklashga urinadi.

U turkiy tillar unli fonemalarining tarixiy yozma manbalar asosida fonologik belgilarini ajratar ekan, ana shu fonologik muhim (relevant) belgilarga tayangan holda turkiy bobo til unlilar sistemasini rekonstruksiya qiladi. Buning uchun, eng avvalo, u bobo til davrida quyidagi farqlovchi belgilar amal qilinganligini taxmin qiladi:

- 1) keng / torlik (kompaktlik / diffuzlik)
- 2) qattqlik / yumshoqlik (quyi tonallik / yuqori tonallik)
- 3) lablanmaganlik / lablanganlik (oddiy tonallik / bemol tonallik)
- 4) cho'ziqlik / qisqalik.

Ana shu differensial belgilar asosida quyidagi 8 ta (a, o, y, **ī**, **ä**, **ö**, **ÿ**, **i**) qisqa va 8 ta (**ā**, **ō**, **y**, **ī**, **ä**, **ö**, **ÿ**, **i**) cho'ziq unlilardan tashkil topgan turkiy bobo til unlilar sistemasini tiklaydi.

Undoshlarning esa quyidagi to'rtta farqlovchi belgilari asosida turkiy bobo til undoshlar sistemasini rekonstruksiya qilishga harakat qiladi:

- 1) paydo bo'lish o'rni belgisi (lab undoshlari, til oldi undoshlari, til o'rta undoshlari / til orqa undoshlari)
- 2) nazallik / nazal emaslik
- 3) sonantlik / sonant emaslik
- 4) paydo bo'lish usuli (portlovchi, sirg'aluvchi (o'rta / yon / titroq).

Ana shu belgilar asosida turkiy bobo til undoshlar sistemasi 15 ta undosh fonemalardan iborat bo'lganligini tiklaydi.¹

Shuningdek, N.A.Baskakov ham turkiy bir bo'g'inli so'zlarning fonetik tuzilishini bir-biriga qiyoslash natijasida turkiy bobo tilning bir bo'g'inli so'zlar fonetik tuzilishi (arxitektonikasi)ni tiklashga (rekonstruksiya qilishga) harakat qiladi.

Uning fikricha, turkiy bobo til davridagi so'zlarning fonetik tuzilishini quyidagi to'rt modelda gavdalantiradi.

I. 1. W – h	II. 1. j – h	III. 1. h – h	IV. 1. " – h
2. W - j	2. j – I	2. h – i	2. " – j
3. W - w	3. j – w	3. h – w	3. " – w

¹ Щербак А.М. Сравнительная фонетика тюркских языков. –М.: 1970. –С. 105.

Muallif hozirgi turkiy tillarda **h** -, **j** -, **W** - , " - modelidagi so'zlar ham mavjudligini, lekin bunday so'zlar yuqorida ko'rsatilgan to'rt modelning transformatsiyasidan kelib chiqqanligini ta'kidlaydi.²

Bu modellarni ifodalash uchun qo'llanilgan shartli belgilar quyidagi tovushlarni bildiradi:

- W** – barcha lab-lab va lab-tish undoshlarni bildiradi;
- j** - barcha til oldi va til o'rta undoshlarini bildiradi;
- h** - barcha til orqa undoshlarini bildiradi;
- "** - orttirilgan fonetik elementni bildiradi;
- bo'g'in hosil qiluvchi unli giperfonemani bildiradi.

Masalan, **W-j** modeli bugungi *bet, besh, bosh, bos, pol, men* singari so'zlar fonetik tuzilishini gavdalantiradi.

Savol va topshiriqlar:

1. Tarixiy-genetik (qiyosiy) metod qanday metod?
2. Rekonstruksiya deganda nimani tushunasiz? Misollar bilan izohlab bering.
3. Qanday rekonstruksiyalarni bilasiz?

Adabiyotlar

1. Баскаков А.Н. Введение в изучение тюркских языков. –М.: 1969.
2. Общее языкознание – методы лингвистических исследований. –М.: 1973.
3. Щербак А.М. Сравнительная фонетика тюркских языков. –Л.: 1970.
4. Щербак А.М. Сравнительная грамматика тюркских языков. –Имя. –Л.: 1977
5. Щербак А.М. Сравнительная грамматика тюркских языков. Глагол. –Л.: 1984.

12-mavzu: Glottoxronologik metod

Reja:

1. Glottoxronologik metod haqida tushuncha.
2. Glottoxronologik metodining o'ziga xos xususiyatlari.

Tayanch so'z va iboralar: *Moris Svodesh, glottoxronologik metod, glottogenez nazariyasi, tarixiy-tipologik tadqiqotlar, makrotil oilalari, paleonevrologiya fani.*

Til doimo o'sishda, rivojlanishida bo'lgan dinamik hodisadir. Ana shunday o'zgarishlar davrlar o'tishi bilan yig'ilib, miqdor o'zgarishi sifat o'zgarishiga olib keladi. Farqli elementlar ko'payib, bir til bag'ridan ikkinchisi ajralib chiqadi. Ana shunday ajralish davrini tarixiy materiallar bilan tasdiqlash mumkin bo'lmagan vaqtda boshqa metodlarga ehtiyoj seziladi. Lingvistik vositalar yordamida tilning kelib chiqishi va tarixiy taraqqiyot davrlarini belgilash leksikostatistik yoki glottoxronologik metod sanaladi. Mazkur metod Amerika olimi Moris Svodesh tomonidan qo'llanilgan. S.Svodesh biologiya fanlaridagi radiouglerod yordamida yoshni belgilash metodini tilshunoslikka olib kirdi. Har qanday jonli organizmda (hayvonlarda, o'simliklarda va boshq.) ma'lum miqdorda radioaktiv uglerod mavjud bo'ladi. Bu modda organizm o'lishi bilan asta-sekin muayyan tezlikda tarqala boshlaydi. O'lik organizmdagi uglerod miqdorini o'lchash orqali uning o'lganiga qancha vaqt bo'lganini aniqlash mumkin bo'ladi. Ana shu yo'l bilan arxeologik yodgorliklar yoshi aniqlanadi.

M.Svodesh ana shu usulni til materiallariga qo'llagan holda, tilning leksik qatlamidagi leksemalarning asosiy qismi barqaror tezlikda o'zgarishiga e'tibor berdi. Bunday barqaror tezlikda o'zgarish xususiyatiga ega bo'lgan so'zlarning saqlash foizi ming yilda 81 % + 3 % ga teng deb olinadi.

² Баскаков Н.А. Введение в изучение тюркских языков. –М.: 1969, -С.130

O'zaro qarindosh tillarda saqlanib qolgan ularning hammasi uchun umumiy leksemalar miqdoriga qarab bu tillarning mustaqil til sifatida ajralib chiqqaniga qancha vaqt bo'lganini aniqlash mumkin ekanligini ta'kidlaydi. Buning uchun 200 so'zdan iborat "tajriba lug'ati" tuzilib, uning turli qarindosh tillarda uchrash-uchramasligi ko'rib chiqiladi.

Ana shu usul asosida S.Svodesh qadimda umumiy etnik va til umumiyligiga ega bo'lgan eskimoslar bilan aleutlarning mustaqil xalq va bu xalqlar tillarining mustaqil til bo'lib ajralganiga 2900 yil bo'lganini aniqladi.

Aleutlarning eng qadimgi yashagan joylaridan topilgan arxeologik yodgorliklarni uglerod miqdoriga ko'ra tekshirish asosida ularning yoshi 3000 yil ekanligi ma'lum bo'ldi. Demak, Svodesh taxmini arxeologik ma'lumotlar asosida o'z tasdig'ini topdi.

Bundan tashqari tilshunoslikda tilning kelib chiqishi haqidagi glottogenez nazariyasi ham tarix fani bilan uzviy bog'liqdir.

Glottogenez (yunoncha glotta – til genesis – kelib chiqish so'zlaridan olingan) inson tabiiy tovush tilining boshqa belgilar tizimidan farqli ravishda shakllanish jarayonini o'zida ifoda etadi.¹ Keyingi chorak asr davomida glottogenez muammosi umuman tilning, hayotning kelib chiqishi nazariyasini o'rganuvchi umumfalsafiy, sotsiologik, psixologik muammoga aylandi. Glottogenez kompleks muammo sifatida bir qator lingvistik metodlar (qiyosiy-tarixiy metod, glottoxronologiya metodi² kabilar) yordamida o'rganilmoqda, bunda inson haqidagi boshqa fanlar-antropologiya, paleonevrologiya kabilar) erishgan yutuqlar ham inobatga olinadi. Umuman, glottogenez kompleks, yaxlit muammo bo'lgani uchun uni faqat sof lingvistik metodlar (ayniqsa, qiyosiy-tarixiy metod va tarixiy topologiya metodi) yordamida emas, balki inson haqidagi boshqa fanlar ishlab chiqqan metodlar yordamida ham o'rganiladi. Qiyosiy-tarixiy tilshunoslik ayrim makrotil oilalariga kiruvchi qadimgi bobo tillarini (bunday tillar o'nga yaqin) aniqlab, ularning ham eng dastlabkisi Homo sapiens (ya'ni, hozirgi zamon kishisi)ni belgilashga intilishi fan uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Glottogenez nazariyasiga muvofiq, eng qadimgi til (Homo sapiens sapiens) bundan yuz ming yil oldin Afrikada va Yevroosiyoda qadimgi odamlarning ko'payishi bilan turli tillarga (makrotil oilalarining qadimgi bobo tillariga) ajrala boshlaydi.

Tarixiy-tipologik tadqiqotlar makrotil oilalarida til kategoriyalari (zamon, nisbat, shaxs-son kategoriyasi kabilar)ning shakllanish jarayonini aniqlash imkonini beradi. Antropologiya va unga yondosh fanlar (masalan, paleonevrologiya) metodlari yordamida tilning shakllanish jarayonini aniqlash mumkin. Bundan yuz ming yil oldin neondertallar (Homo sapiens) va hozirgi odamlarning dastlabki tipi (Homo sapiens sapiens) orasidagi farqlar paydo bo'lishi bilan til ham hozirgi, tabiiy tovush tili shakliga ega bo'la boshlagan. Boshqacha aytganda, tabiiy tovush tili (Homo sapiens sapiens)ning neondertallar (Homo sapiens)dan eng muhim farqli belgisidir.

Paleonevrologiya fanining xulosalariga qaraganda, bundan 500-600 ming yil burun Homo sapiens turkumiga kiruvchi primatlarda miyaning chap qismi rivojlana boshlagan, bu esa qo'l harakatlari, turli imo-ishoralar va nutqni idora qilish imkonini bergan.

XX asr davomida glottogenez nazariyasi A.Trombetti, B.Rozenkrants, Vyach, Vs.Ivanov, G.A.Klimov kabi tilshunoslar, V.V.Bunak, G.U.Xyuz, A.Liberman kabi antropologlar, V.I.Kochetkova singari paleonevrologlar tomonidan tadqiq etilgan, bu ish hozir ham davom etmoqda. Ayniqsa, bunday tadqiqotlar XX asrning 70-yillaridan boshlab tez sur'atlar bilan rivojlana boshladi. 1976 yilda Amerika milliy akademiyasida shu muammoga bag'ishlab maxsus simpozium o'tkazilgan bo'lsa, 1984 yilda YUNESKO tomonidan o'tkazilgan xalqaro simpozium ham shu muammoga bag'ishlanadi. Parijda 1984 yildan buyon xalqaro glottogenez muammosini tadqiq etish markazi faoliyat ko'rsatib kelmoqda.

Savol va topshiriqlar:

1. Glottogenez nima?
2. Mazkur metod kim tomonidan ilk bor qo'llanilgan?

¹ Бу ҳақда қаранг. Якушин Б.В. Гипотезы о происхождении языка. –М.: 1984, 5-82-бетлар.

² Қаранг: Климов Г.А. О глоттохронологическом методе датировки

3. Glottoxronologik metodining o'ziga xos xususiyatlari tushuntirib bering.

Adabiyotlar

1. Степанов Ю.С. Методы и принципы современной лингвистики. –М.: 1975.
2. Общее языкознание. Методы лингвистических исследований. –М.: 1973.
3. Нурмонов А. Структур тилшунослик: илдизлари ва йўналишлари. –Тошкент: 2009.
4. Нурмонов А., Искандарова Ш. Тилшунослик назарияси. -Тошкент: Фан, 2008.
5. Нурмонов А., Йўлдошев Б. Тилшунослик ва табиий фанлар. –Тошкент: Шарк, 2001.
5. Брендаль В. Структуральная лингвистика. - В. кн. Звегинцев В.А. “История языкознания XIX и XX веков в очерках и извлечениях”. Ч.II. –М.: 1960.
6. Усмонов С. Умумий тилшунослик. -Тошкент: Ўқитувчи, 1972.
7. Баскаков Н.А., Содиқов А.С., Абдуазизов А.А. Умумий тилшунослик. -Тошкент: Ўқитувчи, 1979.

Kvantitativ metod

Reja:

1. Kvantitativ metodning mohiyati.
2. Lisoniy tiplar.
3. Sepir va Dj. Grinberglarining lisoniy tiplarga ajratish tamoyillari.
4. Indeks lar.

Tayanch so'z va iboralar: *Tarixiy-genetik metod, kvantitativ metod, qarindosh tillar, flektiv, sintez, agglyutinatsiya, so'z qo'shish indeksi, prefiksatsiya, suffiksatsiya, til tipologiyasi, ajralish ideksi, so'z o'zgarishi, analitik, sintetik, leksik-grammatik parametrlar.*

Lisoniy tillarni belgilashda va tillarni oilalarga birlashtirishda kvantitativ va tarixiy-genetik metodlardan keng foydalaniladi.

Kvantitativ metod Amerika tilshunosi E. Sepir tomonidan qo'llanilgan bo'lsa,¹ uning shogirdi Dj. Grinberg tomonidan rivojlantirildi. E. Sepir va uning izdoshlari turli tillarni yaxlit holda qiyosiy-tipologik planda o'rganish uchun kvantitativ metoddan foydalandi. Dj. Grinberg esa ulardan farqli ravishda tillarni bir butun holda emas, balki ularning ayrim kategoriyalarini, muayyan qismlarini bir-biriga qiyoslashda bu metodni ishga soldi.

Ko'rinadiki, kvantitativ metod dunyo tillarini muayyan belgisi asosida qiyoslash, ularni ana shu belgi asosida ma'lum guruhlariga, tiplarga birlashtirish uchun qo'llanadigan metoddir. Demak, kvantitativ metod qiyosiy (kontrastiv) tilshunoslikning qiyosiy-tarixiy tilshunoslik deb nomlanuvchi yo'nalishga zidlanuvchi til tipologiyasi yoki lingvistik tipologiyaning asosiy metodlaridan biridir.

Qiyosiy tilshunoslikning asosiy vazifasi til oilalari va til tiplariga birlashtirish sanaladi. Birinchi vazifani bajarishni maqsad qilib olgan tilshunoslik tarixiy-genetik metoddan foydalanadi. Ikkinchi vazifa esa lingvistik tipologiya tomonidan amalga oshiriladi va kvantitativ metodga tayanadi.

Tarixiy-genetik metod tillarning qarindoshlik belgisini aniqlaydi va til oilalariga birlashtiradi. Bir oilaga mansub bo'lgan tillar bir tarixiy ajdoddan – bobo tildan kelib chiqqan hisoblanadi. Bunday tillar fonetik, leksik-grammatik parametrlar bo'yicha tarixiy-taraqqiyotning oldingi davrlariga chuqurlashgan sari umumiy tomonlari kuchayib boradi. Bunday tillar bir ajdoddan, bir genetik manbadan tarqalganligi uchun qarindosh tillar sanaladi. Dunyo tillarining

¹ Сепир Э. Язык. –М.: -Л.: 1934, -С. 234.

genetik belgisiga ko'ra tasnifi esa geneologik tasnif hisoblanadi. Masalan, roman tillari oilasi, german tillari oilasi, slavyan tillari oilasi, turkiy tillar oilasi kabi.

Qiyosiy tilshunoslikning ikkinchi yo'nalishi qarindosh bo'lmagan tillarni morfologik belgilariga ko'ra muayyan til tiplariga birlashtirish bilan shug'ullanadi.

Bunday vazifani bajarishda kvantitativ metoddan foydalaniladi. *Muayyan miqdoriy indekslar yordamida tillarni ma'lum lisoniy tiplarga birlashtirish uchun xizmat qiluvchi metod kvantitativ metod hisoblanadi.*

XIX asr boshlarida (1808) nemis olimi Fridrix fon Shlegel tillarni kelib chiqish tarixi asosida emas, balki morfologik belgilari asosida tasnif etdi. Bunga ko'ra, dunyo tillari qo'shimchali va fleksiya tillarga bo'linadi. Tillarning bunday tasnifida tillar morfologik tiplarga guruhlanadi. Bir lisoniy tipga qarindosh tillargina emas, noqardosh tillar ham mansub bo'ladi.

Fridrix Shlegelning dunyo tillarining ikki tipga tasnifi 1818 yilda uning ukasi Avgust fon Shlegel tomonidan qayta ko'rib chiqildi va uch tipga ajratildi: a) qo'shimchasiz tillar: b) qo'shimchali tillar: v) flektiv tillar.

Birinci tip keyinchalik ajralgan yoki o'zakli tillar nomi bilan yuritiladigan bo'ldi. Bunday tillar Avgust Shlegelning fikricha, grammatik tuzilishga ega bo'lmagan tillar sanaladi. Barcha so'zlar faqat o'zakdan iborat bo'ladi. Uning ta'kidlashicha, bunday tillarda biror bir ilmiy asar yozish qiyin, shuning uchun bunday ishni amalga oshirish qahramonlik hisoblanadi.

Affiksli tillarda grammatik ma'no va munosabatlar o'zakka qo'shiladigan affikslar yordamida ifodalanadi. Shu bilan birga bu affikslar o'z mustaqil ma'nolarini ham saqlab turadi.

Flektiv tillarda ham grammatik ma'no va munosabatlar affikslar yordamida ifodalansa ham, lekin bu affikslar qo'shimchali tillardan farqli ravishda, o'z mustaqil ma'nolarini yo'qotgan bo'ladi. A.Shlegelning fikriga ko'ra eng hayotchan til go'yo flektiv til emish.

Aka-uka Shlegellar va undan keyingi mualliflarning ta'kidlashlaricha, o'zakli tillarga xitoy tili, flektiv tillarga hind-evrupo va somiy tillari mansub bo'lib, qolgan tillarning barchasi oraliq holatni egallagan agglutinativ tillarga kiradi.

Ayni paytda hind-evrupo tillarda fleksiya hodisasining kuchsizlanib, yo'qolib borayotganligi fakti Shlegelni flektiv tillarni qadimiy flektiv tillar, ya'ni sintetik tillar, keyingi flektiv tillar – analitik tillarga bo'lishga majbur qiladi.

Lisoniy tiplar tasnifiga doir V.Gumboldt qarashlari tilshunoslik tarixida alohida o'rin tutadi. U har bir tilda til egalarining ruhi (Geist) namoyon bo'lishini ta'kidlagan holda,¹ dunyo tillarini to'rt guruhga ajratadi. Dunyo tillarining an'anaga aylangan uch a'zoli tasnifiga to'rtinchi tip sifatida inkorporatsiyali tillarni qo'shadi va bunday lisoniy tipga Amerika induslari tilini kiritadi.

V.Gumboldt lisoniy tiplarni evolyutsion asosda past rivojlangan tiplardan yuksak rivojlangan tiplar kelib chiqqanini aytsa ham, lekin uning sababini bayon qilishdan, tarixiy-evolyutsion tavsif berishdan o'zini tiyadi.

V.Gumboldtning bu nazariyasini Ch.Darvin va Gegel g'oyalari ta'sirida bo'lgan A.Shleyxer rivojlantirdi va tarixiy-evolyutsion tavsif berishga harakat qildi. Uning fikricha, lisoniy tiplar til taraqqiyotining muayyan bosqichini o'zida namoyon qiladi. Til tiplari uch guruh bilan chegaralanadi va bu uch tip Gegel dialektikasining uch bosqichiga muvofiq keladi. Bunday qarashga ko'ra, flektiv tillar amorf va agglutinativ tillarga nisbatan sintezlashning yuqori bosqichi sanaladi. Fleksiyaning buzilishi ruhning (Geist) yangi rivojlanish bosqichini belgilaydi.

Ayrim mualliflar lisoniy tiplarga "yaxshi" va "yomon" baho nuqtai nazaridan yondashdilar. Maks Myuller ta'biriga ko'ra, "oriy va turon tillari o'rtasidagi farq yaxshi va yomon mazaika o'rtasidagi farqni eslatadi. Oriy so'zlari go'yo bir bo'lakdan yasalgan, turon so'zlarida esa choklar va yoriqlar aniq ko'rinib turadi.

Lisoniy tiplar tabiatini bunday tushuntirishning g'ayriilmiy ekanligini lisoniy tiplar taraqqiyoti, bir lisoniy tip belgilarining kuchsizlanishi va ikkinchi lisoniy tip belgilarining

¹ Гумбольдт В. О сравнительном изучении языков применительно к различным эпохам их развития. - Вильгельм фон Гумбольдт. Избранные труды по языкознанию. -М.: 1984, -С. 307.

kuchayishi holatlarining kuzatilishi tasdiqlaydi. Shuning uchun Sepir “Til”(1921) asarida lisoniy tiplarni belgilashda boshqacha yo’ldan bordi. U tillarni tiplarga ajratishda evolyutsion va baho aspektidan mutlaqo voz kechdi. Uning fikricha, xitoy va venger tillari lotin yoki ingliz tillari kabi fikr quroli bo’lish uchun samarali emas, degan xulosa chiqarishga hech qanday real asos mavjud emas.

Til kamida 500 000 yillardan buyon mavjud. Agar shu davr mobaynida lisoniy tiplar taraqqiyotini ajralgan – agglyutinativ va flektiv tillar chizig’ida aks ettirsak, u vaqtda hozirgi ajralgan tillar ibtidoiy davrni aks ettirishi hech qachon mumkin emas. Darhaqiqat, inson paleontologiyasi va muz davri bergan ma'lumotlar yuqoridagi g’oyani allaqachon inkor qildi.

Sepir davriga kelib shu narsa ma'lum bo’ladiki, ajralgan lisoniy tipning klassik namunasi sifatida qaralayotgan xitoy tili ilgari murakkab morfologik sistemaga ega bo’lgan.

Agglyutinatsiya atamasi flektivlik atamasiga zidlanadi. Lekin flektivlik atamasi konkret ma’nodan maxrum bo’lgan va gapda so’zlar o’rtasidagi munosabatni ifodalash uchun xizmat qiluvchi affikslar uchun ham qo’llaniladi. Masalan, otlardagi kelishik qo’shimchalari yoki fe’llardagi shaxs va son fleksiyasi. Ana shundan kelib chiqilsa, turk tili bir vaqtning o’zida ham agglyutinativ (agar usul e’tiborga olinsa), ham flektiv (agar kelishik sistemasi va fe’llarning tuslanish sistemasi e’tiborga olinsa) til sanaladi.

O’zigacha bo’lgan lisoniy tiplar tasnifiga tanqidiy yondashgan Sepir dunyo tillarini analitik, sintetik va polisintetik tiplarga ajratadi va ularni murakkablik darajasiga ko’ra joylashtiradi.

Sepirning bunday tasnifi uchun asos bo’lgan birinchi belgi so’zning murakkablik darajasi bo’lsa, ikkinchi muhim belgi so’z tarkibiy qismlarining tuzilish texnikasidir.

Ikkinchi belgiga ko’ra, tobe element o’zak qismga mexanik ravishda qo’shiluvchi va bunday vaqtda har ikki qismda hech qanday o’zgarish bo’lmaydigan tillar fuziya natijasida tarkibiy qismlarini aniqlash va ajratish qiyin bo’lgan tillarga zidlanadi.

Dj.Grinberg o’z ustozlari Sepir tasnifini ijodiy rivojlantiradi. U o’zining dunyo tillarini tiplarga tasnif qilish metodi zaminida Sepir metodi turishini, bu metodning bir oz o’zgargan turi ekanligini ta’kidlaydi.¹

Sepir lisoniy tiplarga ajratishda uch belgiga tayangan bo’lsa, Grinberg beshta belgiga asoslanadi. Bulardan birinchi belgi so’zlarning sintezlashish darajasi sanaladi. Sepir davridan boshlab Amerika tilshunosligida fonemalarning ma’noli minimal ketma-ketligi morfema hisoblanadi. Masalan, ingl. sind – ind “kuylash” ikki morfemani o’z ichiga oladi, lekin bir so’zni tashkil qiladi. Bunda M – morfema miqdori, W – so’z miqdori belgilaridan foydalanilsa, M / W munosabati sintez o’lchovi bo’lib xizmat qiladi va u sintetiklik indeksi sifatida qaralishi mumkin. Uning eng quyi chegarasi 1,00 sanaladi. Chunki har qanday so’z eng kamida bitta ma’noli birlikka ega bo’lishi kerak. Yuqori chegarasi nazariy jihatdan mavjud emas, lekin amalda 3,00 dan yuqorisi kam uchraydi. Analitik tillarda bu indeks ko’rsatkichi past, sintetik tillarda esa yuqori, polisintetik tillarda esa eng yuqori bo’ladi.

Ikkinchi belgi sifatida aloqa usuli olinadi. Bunda ma’noli birliklar qo’shilganda, ularning tovush tarkibida o’zgarish ro’y bermaydigan yoki qisman o’zgarishga uchraydigan tillar bir qutbni egallaydi. Bunga klassak agglyutinativ tillar deb nomlanuvchi tillar muvofiq keladi.

Bunday tillarga o’zaro modifikatsiyalanuvchi yoki elementlar qo’shib ketuvchi tillar zidlanadi.

Agglyutinatsiya indeksi – bu agglyutinativ qurilmalar miqdorining morflar choki miqdoriga munosabatidir. So’zdagi morflar choki doimo morflar miqdoriga nisbatan bitta kam bo’ladi. Masalan, *leaves* so’zida ikkita morf bo’lib, bitta morflar choki mavjud. Agglyutinatsiya indeksi A/J bilan belgilanadi. Bunada A – agglyutinativ konstruktsiya miqdoriga teng, J esa inglizcha juncture “chok” so’zining bosh harfi bo’lib, morfemalar choki miqdorini bildiradi.

¹ Гринберг Дж. Квантитативный подход к морфологической типологии языков. – Новое в лингвистике. – М.: 1963, -С.73.

Agglyutinatsiya indeksi yuqori bo'lgan tillar agglyutinativ tillar, agglyutinatsiya indeksi past bo'lgan tillar fuzion tillar sanaladi.

Uchinchi belgi (parametr) Sepirning tasnifida markaziy belgi sifatida qaralgan derivatsion va konkret – relyatsion tushunchalarning mavjudligi yoki mavjud emasligi belgisidir.

Dj.Grinberg bu o'rinda morfemalarning uch turiga asoslanadi: o'zak morfemalar, derivatsion morfemalar va so'z o'zgartuvchi morfemalar. Har bir so'z kamida bitta o'zak morfemaga ega bo'ladi. Ko'pchilik tillarda bir qancha so'zlar o'zak morfemadan boshqa hech qanday morfemaga ega bo'lmaydi. So'zda bittadan ortiq o'zak morfemaning mavjudligi qo'shma so'zni hosil qiladi. Bu tillarni tiplarga ajratishda muhim belgi sanaladi. Ayrim tillarda qo'shma so'zlar, umuman, mavjud emas yoki juda kam uchraydi. Boshqalarida esa u keng tarqalgan. Ayrim tillar bu nuqtai nazardan oraliq holatni egallaydi. Sepir nazaridan chetda qolgan bu belgini Dj.Grinberg farqlovchi belgi sifatida oladi va uni R/W indeksi bilan belgilaydi. Bunda R (ingl. Root “o'zak”) o'zaklar miqdoriga, W esa so'z miqdoriga teng.

Ikkinchi morfema turi derivatsion (so'z yasovchi) morfemadir. Masalan, *suv – chi* so'zidagi *–chi* morfemasi. Derivatsion indeks D/W sanaladi va u derivatsion morfemalar miqdorining so'z miqdoriga munosabatini bildiradi. D/W indeksi yuqori bo'lgan tillar derivatsion tillar qatoriga kiradi.

Uchinchi morfema turi so'z o'zgartiruvchi morfemalar sanaladi. Uning indeksi i / w bilan belgilanadi (i – ingl. inflectional “so'z o'zgartiruvchi”). Bu indeks so'z o'zgartiruvchi morfema miqdorining so'z miqdoriga munosabatini bildiradi.

To'rtinchi belgi (parametr) o'zakka nisbatan tobe elementlarning joylashish tartibi sanaladi. Bu o'rinda asosiy farqlovchi belgi sifatida prefiks va suffikslardan foydalanishdagi farqlanish e'tiborga olinadi. Prefiks indeks P/W prefiks miqdorining so'z miqdoriga munosabatini ko'rsatadi. Suffiks indeks S/W esa suffiks miqdorining so'z miqdoriga munosabatini ko'rsatadi.

Beshinchi belgi (parametr) turli tillarda foydalaniladigan so'zlarni bog'lash usuli hisoblanadi. Dunyo tillari bu belgi bo'yicha uch usuldan foydalanadi: moslashuvsiz so'z o'zgarishi, so'z tartibi va moslashuv. Bunday usullar uchta indeks bilan belgilanadi:

O/N (o – ingl.order “tartib”)

Pi/N (ingl.Pure inflection-“sof so'z o'zgarish”)

Co/N (ingl. Concord “moslashuv”)

Shunday qilib, Dj.Grinberg dunyo tillarini quyidagi indekslar asosida lisoniy tiplarga ajratadi:

- 1) M/W – sintez indeksi
- 2) A/J – agglyutinatsiya indeksi
- 3) R/W – moslashuv indeksi
- 4) D/W – derivatsiya indeksi
- 5) I/W – so'z o'zgarishining ustunligi indeksi
- 6) P/W – prefiksatsiya indeksi
- 7) S/W – suffiksatsiya indeksi
- 8) O/N – ajralish indeksi
- 9) Pi/N – sof so'z o'zgarish indeksi
- 10) Co/N – moslashuv indeksi.

Lisoniy tiplarga ajratishning to'g'riligini isbotlash uchun bir xil miqdordagi matnlardan indekslar miqdori aniqlanadi. Xususan, Dj.Grinberg 1951 va 1953 yillarga mansub ingliz tilidagi 100 ta so'zlik matnlarni yuqoridagi indeks asosida quyidagi miqdorini belgilaydi:

	1951	1953
Sintez	1,62	1,68
Agglyutinatsiya	0,31	0,30
So'z qo'shish	1,03	1,00
Prefiksatsiya	1,00	1,04
Suffiksatsiya	0,50	0,64

Soʻz oʻzgarishi 0,64

0,53

Shunday qilib, indekslar lisoniy tiplarga ajratishning tayanch nuqtalari boʻlib xizmat qiladi.

Savol va topshiriqlar:

1. Kvantitativ metod nima?
2. Lisoniy tip deganda nimani tushunasiz?
3. Lisoniy tiplarning qanday tasniflari mavjud?
4. Lisoniy tiplarga ajratishda qanday indekslardan foydalaniladi? Misollar keltiring.

Adabiyotlar

1. Степанов Ю.С. Методы и принципы современной лингвистики. –М.: 1975.
2. Общее языкознание. Методы лингвистических исследований. –М.: 1973.
3. Нурмонов А. Структур тилшунослик: илдизлари ва йўналишлари. –Тошкент: 2009.
4. Нурмонов А., Искандарова Ш. Тилшунослик назарияси. Тошкент: Фан, 2008.
5. Брендаль В. Структуральная лингвистика. - В. кн. Звегинцев В.А. “История языкознания XIX и XX веков в очерках и извлечениях”. Ч.II. –М.: 1960.
5. Усмонов С. Умумий тилшунослик. Тошкент: Оʻқитувчи, 1972.
6. Баскаков Н.А., Содиқов А.С., Абдуазизов А.А. Умумий тилшунослик. Тошкент: Ўқитувчи, 1979.
8. Гумбольдт В. О сравнительном изучении языков применительно к различным эпохам их развития. - Вильгельм фон Гумбольдт. Избранные труды по языкознанию. –М.: 1984.
9. Гринберг Дж. Квантитативный подход к морфологической типологии языков. – Новое в лингвистике. –М.: 1963.

14-mavzu: Struktur metod va uning yoʻnalishlari

Reja:

1. Strukturalizm va struktur metod.
2. Struktur tilshunoslikning paydo boʻlishi.
3. Strukturalizm yoʻnalishlari.

Tayanch soʻz va iboralar: *strukturalizm, struktur metod, struktur tilshunoslik, strukturalizm yoʻnalishlari, funktsionallik tamoyili, sinxroniya va diaxroniya oʻrtasidagi munosabat.*

Tilshunoslik tarixida strukturalizm XIX asrning 70-yillaridan boshlab hukm surgan yosh grammatikachilarning pozitivistik qarashlariga qarshi maydonga chiqib boshladi. Ularning yosh grammatikachilarga qarshi chiqishiga frantsuz “sotsiologik maktabi” va Fosslerning “nemis neofilologik maktabi” qarashlari maʼlum darajada zamin yaratdi. Garchi bu maktablar yosh grammatikachilar qarashlaridan tamoman uzilmagan boʻlsa ham, lekin tilni, bir tomondan “sotsial fakt”, ikkinchi tomondan, psixologizm deb tushunish strukturalizmdan maydonga kelishiga turtki boʻldi.

Har qanday ilmiy oqim kabi strukturalizm ham oʻz gʻoyaviy asoslariga ega. Struktur tilshunoslikning paydo boʻlishiga I.A.Boduen de Kurtene va F.de Sossyur qarashlari asos boʻlib xizmat qildi.

I.A.Boduen de Kurtene tilshunoslikka funktsionallik tamoyilini olib kirdi. Uning ma'nosi shuki, lingvistik vositalar nutq jarayonida bajaradigan vazifasiga qarab belgilanadi. Bunday tamoyil fonetika sohasida fonema tushunchasining tug'ilishiga olib keldi.

U nutqiy jarayondagi fiziologik tavsifi bilan teng bo'lmagan tovush haqida fikr yuritdi. Natijada fonema tushunchasiga asos soldi.

Shvetsariya tilshunosi F.de Sossyurning tilshunoslik oldidagi buyuk xizmati shundaki, u sinxroniya bilan diaxroniyani aniq farqladi. Shuningdek, sinxron nuqtai nazar ma'lum bir tilning muayyan bir davrida mavjud bo'lgan elementlarning o'zaro uzviy bog'liq bo'lgan sistemani hosil qiladi, degan fikrga kelishiga imkon tug'dirdi. Uning fikricha, til qismlari sinxron munosabatda o'rganilishi mumkin bo'lgan sistemadir.

Garchi sinxroniya va diaxroniya o'rtasidagi munosabat, tilning sinxron holatiga xos sistemaviylik dastlab Boduen tomonidan olg'a tashlangan bo'lsa ham, lekin Sossyur tomonidan aniq ifodasini topdi va uning bu ikki bosh g'oyasi, ya'ni tilning sinxron tahlili, til sistemasi hamda til strukturasi va til funksiyasi haqidagi g'oyalar yangi tilshunoslikning shakllanishida tayanch nuqta bo'lib xizmat qildi.

V.Matezius fikriga ko'ra, Boduen, Sossyur g'oyalariga asoslangan funktsional va struktural nuqtai nazar hozirgi kunda tilshunoslik istiqboli uchun puxta zamin yaratuvchi yagona nazariyadir.

F.de Sossyurning tilga elementlar munosabatidan tashkil topgan butunlik sifatida yondashuvi, nutqiy faoliyatning til va nutq o'rtasidagi o'zaro munosabatlardan tashkil topgan butunlik deb e'tirof etishi, tilning sinxron va diaxron holatini aniqlab berishi va uning belgilik tabiatini yoritishi struktur tilshunoslikning tug'ilishiga zamin yaratdi.

Shuning uchun A.A.Xolodovich F.de Sossyur kitobining tilshunoslik tarixidagi ahamiyati haqida fikr yuritir ekan, uning dunyoga kelishi tilshunoslik tarixida yangi davrning boshlanishiga olib keldi, deydi.

Bundan tashqari, struktur tilshunoslikning paydo bo'lishiga XX asrda tabiiy fanlar qo'lga kiritgan yutuqlar ham sabab bo'ldi. Xususan, XX asrning birinchi choragida fizika fanida eng kichik zarrachalar kashf etildi. Buning natijasida bevosita sezgi a'zolarimiz ta'siriga beriladigan har qanday hodisalar o'z ichida ichki tarkibiy qismlardan tashkil topishi va bu tarkibiy qismlarning o'zaro munosabati strukturani hosil qilishi haqida fikr yuritildi. Shunday qilib, struktura atamasi ostida muayyan butunlik tarkibida ishtirok etgan elementlar o'rtasidagi munosabatlarni usuli, xarakteri, qonuni tushunila boshlandi.

Agar XIX asrdagi ilmiy tadqiqotlar bevosita tajriba asosida faktlarni kuzatish va ularni ro'yxatga olish bilan cheklangan bo'lsa, XX asrga kelib, bu faktlar ostida yashirinib yotgan mohiyatni ochishga, ularning ichki uzvlari o'rtasidagi munosabatlarni, o'zaro ta'sirini yoritishga qaratildi.

Barcha fanlar struktura va uni tashkil etgan elementlarning o'zaro munosabatini o'rganishga asosiy e'tibor bera boshladi. Natijada fizikada nafaqat kristall va atomning strukturaga ega ekanligi, balki nur ham muayyan strukturadan tashkil topganligi ma'lum bo'ldi. Fiziologiyada I.P.Pavlovning oliy asab sistemasi haqidagi ta'limotining vujudga kelishi, matematikada 30-yillarda matematik struktura nazariyasining, psixologiyada struktur psixologiyaning maydonga kelishi ob'ektga struktura sifatida yondashuvning natijasi bo'ldi.

Bu davrda struktura tushunchasi barcha fanlar uchun ommaviy tushunchaga aylandi. Bundan tilshunoslik ham istisno emas. Ana shunday umumiy tendensiya ta'sirida sistemaviy-struktur tilshunoslik maydonga keldi.

Barcha fanlarda struktura atamasi keng qo'llanayotgan bo'lsa ham, lekin bu atama talqinida xilma-xillik vujudga keldi. Ana shunday xilma-xillik tilshunoslikka ham o'z ta'sirini ko'rsatdi.

Tilshunoslikda struktura atamasi turli ma'noda talqin qilinadi. Ulardan keng tarqalgani ikki xildir:

Birinchisida struktura deb o'zaro bog'langan va shartlangan munosabatda bo'lgan elementlardan tashkil topuvchi butunlik tushuniladi. Strukturaga bunday yondashuv

o'rganilayotgan ob'ektni uni tashkil etgan elementlar o'rtasidagi ichki aloqa va bog'liqlikni yoritishni talab etadi.

Ikkinchi yo'nalishda esa struktura sof shakllar va sof munosabatlar sifatida tushuniladi. Shakl esa konkret qo'llanilishdan uzilgan holda talqin qilinadi.

Ana shundan kelib chiqqan holda struktur tilshunoslikning turli tarmoqlari dunyoga keldi. Ular funktsional lingvistika, glossematika va deskriptiv lingvistika yo'nalishlaridir.

Savol va topshiriqlar:

1. Struktura nima?
2. Struktur tilshunoslik qanday paydo bo'lgan?
3. Struktura atamasi ostida nima tushuniladi?
4. Struktur tilshunoslikning qanday tarmoqlari mavjud?
5. Qanday strukturalizm maktablarini bilasiz?
6. Strukturalizm maktablarining umumiy tomonlarini aytib bering.

Adabiyotlar

1. Степанов Ю.С. Методы и принципы современной лингвистики. –М.: 1975.
2. Общее языкознание. Методы лингвистических исследований. –М.: 1973.
3. Нурмонов А. Структур тилшунослик: илдизлари ва йўналишлари. –Тошкент: 2009.
4. Нурмонов А., Искандарова Ш. Тилшунослик назарияси. -Тошкент: Фан, 2008.
5. Брендал В. Структуральная лингвистика. - В. кн. Звегинцев В.А. "История языкознания XIX и XX веков в очерках и извлечениях". Ч.II. –М.: 1960.

15-mavzu: Glossematika

Reja:

1. Glossemantikaning o'ziga xos xususiyati.
2. Glossemantikaning asosiy tamoyillari.

Tayanch so'z va iboralar: *glossemantika, struktural lingvistika, strukturalizm, deduktivlik va empirik tamoyil, munosabat elementlari.*

Struktur lingvistikaning muhim tarmog'i glossematikadir. Bu yo'nalish F.de Sossyur kontsepsiyasi asosida, lekin uning qarashlariga bir tomonlama yondashgan holda maydonga keldi.

Glossematika yunoncha glossa "til" so'zidan olingan bo'lib, bu yo'nalish tarafdorlarining e'tirof etishiga ko'ra, ob'ektni o'rganishda o'ta sub'ektivizmga yo'l qo'ygan va shuning uchun noilmiy bo'lgan an'anaviy tilshunoslikka qarama-qarshi ravishda paydo bo'ldi.

Glossemantikaning asosiy tamoyillari V.Brendalning "Struktural lingvistika", L.Elmslevning "Til nazariyasi tezislari", "Boshqaruv tushunchasi", "Lingvistikada struktur tahlil metodi", "Til va nutq" singari bir qator asarlarida bayon qilingan.

V.Brendal yuqorida ko'rsatilgan asarida struktural lingvistikaning paydo bo'lish sabablari haqida yozar ekan, bu yo'nalish maydonga kelgunga qadar bo'lgan qiyosiy–tarixiy tilshunoslik, yosh grammatikachilar qo'llagan tekshirish metodlariga baho beradi. Adabiy oqimlarning naturalizm va realizm davriga xos eng kichik faktlarni aniq va sinchkovlik bilan tahlil etish tamoyilidan ilhomlangan qiyosiy-tarixiy tilshunoslik sof pozitivistik xususiyatga ega bo'lgani, u bevosita kuzatishga beriluvchi hodisalarni, ya'ni tovushli nutqni o'rganish bilan cheklanganligiga tanqidiy baho beradi.

Pozitivizm yosh grammatikachilar davrida ham amal qilgani ta'kidlanadi.

XX asrda ko'zga ko'ringan gnoseologlar pozitivistik nuqtai nazarining kuchsiz tomonlarini ochib tashladi. Bunday kontsepsiya hozirgi fanning ravnaqi uchun endi xizmat qilolmasligi aniq bo'lib qoldi.

Natijada barcha fanlarda, shuningdek, lingvistikada ham antipozitivistik ruh kuchaydi.¹

Ana shunday sharoitda struktur tilshunoslik paydo bo'lganligini ta'kidlaydi.

Strukturalizm nomi bilan ma'lum bo'lgan yangi nuqtai nazarining xarakterli belgisi, uning fikricha, butunlik tushunchasiga ta'kid berishdir.

Glossematikaning asosiy tamoyillari uning yirik vakili bo'lgan L.Elmslev asarlarida yorqin o'z ifodasini topgan.

“Boshqaruv tushunchasi” asarida struktural lingvistika endigina shakllanayotgani, hozirgi kunda u amal qiladigan dastur haqida gapirish ham hali erta ekanligini ta'kidlagan holda, bu tilshunoslikning muhim jihati tilga struktura sifatida yondashuv ekanligini bayon qiladi”.²

Uning fikricha, struktura o'z ichki tartibiga asoslangan iyerarxiya ekanligi va yagona tayanch nuqtaga egaligi bilan xarakterlanadi. Bu iyerarxiyani faqat deduktiv yo'l bilan yoritish mumkin.

Xuddi shunday iyerarxiyani o'rganishga mo'ljallangan deduktiv metodni esa *empirik* yoki *immanent-semiologik metod* deb hisoblaydi.

Empirik yoki immanent-semiologik metod belgilar funksiyasini lingvistik tadqiqotlarning asosiy predmeti deb hisoblaydi. Bu metod, L.Yelmslev ta'biri bilan aytganda, semiologik hodisalar bilan semiologik bo'lmagan hodisalarni farqlamasdan, ularni aralashgan holda o'rganuvchi har qanday metoddan afzallikka ega. Empirik metod bu *soddalik* tamoyiliga asoslangan metoddir.

K.Xansenning fikriga ko'ra, matematikaga tilshunoslikni yaqinlashtirish, hamma joyda sistemani ko'rishga intilish, o'sha davr fizikasi ta'sirida materiyaning mavjudligini rad etgan holda tilni aniq tadqiq etishda sof lingvistik predmet – immanent tushunchalarga tayanish L.Yelmslev qarashlarining negizidir.¹

Uning ta'kidlashicha, semiologik funksiya yangi tushuncha emas. Yangilik semiologik funksiyani birinchi planga olib chiquvchi struktural yondashuvdir. Struktural metod tufayligina lingvistika sub'ektivlik va noaniqlikdan, intuitiv va sof shaxsiy xulosalardan holi bo'lgan chinakam fanga aylandi.

Struktural lingvistika tilshunoslikda yangi yo'nalish sanalib, uning metodi bir vaqtning o'zida deduktivlik va empirik tamoyilga asoslanishini bayon qiladi.

“Lingvistikada struktur tahlil metodi” asarida hozirgi tilshunoslikning asoschisi ko'p jihatdan F.de Sossyur hisoblanishi, chunki u birinchilardan bo'lib, tilni struktur o'rganishga, ya'ni til birliklarining bevosita nutq jarayonida qanday voqelanishidan qat'iy nazar, ular o'rtasidagi munosabatni o'rganishga da'vat etganini bayon qiladi.

Ana shundan kelib chiqqan holda, u real til birliklari tovush yoki harf va ma'nolar emas, balki tovush yoki harf va ma'nolar yordamida gavdalangan munosabat elementlaridir, degan xulosaga keladi. Muhim narsa tovush yoki harflar emas, balki nutq zanjirida va grammatikadagi paradigmalarda mavjud bo'lgan munosabatlardir. Xuddi ana shu munosabat til sistemasini tashkil etadi. Xuddi ana shu ichki sistema ma'lum bir tilni boshqa bir tildan farqlab turuvchi xarakterli belgi sanaladi.

Shuning uchun munosabatlar tugunini o'rganish lingvistikaning bosh maqsadi bo'lishi kerakligini, bu munosabatlar tugunining konkret namoyon bo'lishi til uchun muhim emasligini bayon qiladi. Uning fikricha, ma'lum bir qiymat turli moneta, qog'oz pul, cheklar orqali namoyon bo'lishi mumkin. Lekin ular qanday gavdalanishidan qat'iy nazar qiymat o'zgarmaydi.

¹ Брендаль В. Структуральная лингвистика.-Звегинцев В.А.История языкознания.-с.40-41.

² Ельмслев Л. Понятие управления.-В.А.Звегинцевнинг юкоридаги асари, -с.47

¹ Хансен К. Пути и цели структурализма. –ВЯ. 1959, №4, -С.94

Shu sababli L.Yelmslev tilni immanent o'rganishni talab qiladi va bunday o'rganishni o'zigacha bo'lgan o'rganish usuli, narsalarning o'zgaruvchan belgilarini farqlamasdan o'rganuvchi transtendent bilishga qarama-qarshi qo'yadi. Uning fikricha, shu kungacha til transtendent bilish, ya'ni tilga yondosh hodisalarni bilish vositasi bo'lib keldi. Masalan, klassik filologiya, eng avvalo, tildan ko'ra adabiyot va madaniyatni; qiyosiy tilshunoslik, eng avvalo, tarixni o'rganish bilan shug'ullanib keldi. Aslida lingvistik nazariya tilni tildan tashqaridagi hodisalar (fizik, fiziologik, psixologik va boshq.) bilan aralashgan holda emas, balki o'z ichidagi yaxlit strukturani o'rganish lozimligini ko'rsatadi.

U o'zi mansub bo'lgan struktur tilshunoslikka izoh berar ekan, tilga o'zaro munosabatlar sxemasi sifatida yondashish mening bosh vazifam, deb bilaman, deydi.¹

U fikrini davom ettirar ekan, mening butun urinishlarim tilni (lingua) amaliy qo'llanishga bog'liq bo'lmagan holda sof forma yoki sxema tarzida o'rganishga qaratilgandir, deydi.² Bunday qarash F.de Sossyurning bosh g'oyasi hisoblangan "lingvistikaning yagona va haqiqiy o'rganish ob'ekti "o'zi va o'zi uchun" tarzida qaraluvchi til, ya'ni tilning ichki tuzilishi bo'lishi kerak, degan g'oya ta'sirida maydonga kelganligini qayd etadi.

Savol va topshiriqlar:

1. Glossematikaning asosiy tamoyillari nimalardan iborat?
2. Glossematika amal qilgan deduktiv metod qanday metod?
3. Munosabatlar tugunini tushuntirib bering.
4. Glossematikalar shakl va substantsiya atamaları ostida nimalarni tushunadilar?
5. Mazmuniy eng kichik birlikni glossematiklar qanday atama bilan nomlaydilar?
6. Glossematikaning tilshunoslik tarixida tutgan o'rni qanday?

Adabiyotlar

1. Брендалъ В. Структуральная лингвистика.- В. кн. Звегинцев В.А. "История языкознания XIX и XX веков в очерках и извлечениях". Ч.II. -М.: 1960.
2. Общее языкознание. Методы лингвистических исследований. -М.: 1973.
3. Нурмонов А. Структур тилшунослик: илдизлари ва йўналишлари. -Тошкент: 2009.
4. Нурмонов А., Искандарова Ш. Тилшунослик назарияси. -Тошкент: Фан, 2008.
5. Хансен К. Пути и цели структурализма. -ВЯ. 1959, №4, -С.94.
6. Ельмслев Л. Метод структурного анализа в лингвистике. - В. кн. Звегинцев В.А. "История языкознания XIX и XX веков в очерках и извлечениях". Ч.II. -М.: 1960.
7. Ельмслев Л. Понятие управления. - В. кн. Звегинцев В.А. "История языкознания XIX и XX веков в очерках и извлечениях". Ч.II. -М.: 1960.
8. Звегинцев В.А. Глоссематика и лингвистика. - Новое в лингвистике. I. -М.: 1960.

16 - mavzu: Distributiv tahlil metodi

Reja:

1. Distributiv tahlil metodi haqida.
2. Distributiv tahlil metodining o'ziga xos xususiyatlari.
3. Distributiv tahlil bosqichlari.
4. Distributsiya qoidalari.

Tayanch so'z va iboralar: *deskriptiv tilshunoslik, segmentatsiya, substitutsiya, distributiv tahlil, distributsiya modellari, kontrast distributsiya, qo'shimcha distributsiya, erkin almashinish distributsiyasi, kirish yoki qisman ekvivalent distributsiya.*

¹ Ельмслев Л. Метод структурного анализа в лингвистике. -с.52.

² Ельмслев Л. Ўша асар, -с.33.

Distributsiya atamasi tilshunoslikka Amerika tilshunoslik maktabi tomonidan kiritilgan. Yu.S.Stepanovning fikricha, bu atama dastlab Amerika tilshunosi, glottoxronologiya metodining asoschisi M.S.Svodesh tomonidan 1934 yilda qo'llanilgan.¹

Deskriptiv tilshunoslik til tuzilishini ifoda va ma'nodan tashkil topgan butunlik, deb tushunadi va ifoda tuzilishini tilning bosh komponenti, deb hisoblaydi.² Mazmun tuzilishini esa ikkinchi muhim komponent sifatida baholaydi. Lekin mazmuniy tuzilishga munosabat Amerika tilshunosligida bir xil emas. Shuning uchun lingvistik ma'no va uning lingvistik tadqiqotlardagi o'rni masalasi Amerika tilshunosligining fundamental muammosiga aylandi.

Blumfild tilning ifoda va ma'no tomonini e'tirof etgan va ma'noni konkret vaziyat bilan bog'liq ekanligini ko'rsatgan bo'lsa, Yel maktabini tashkil etgan shogirdlari va izdoshlari (Dj Treyjer, Z.Xarris, B.Blok va boshq.) lingvistik tadqiqotlardan mazmuniy tomonni to'la chiqarib tashlash talabi bilan chiqdilar.

Lingvistik birliklarning ifoda va ma'no tomonini e'tirof etuvchilar bu ikki tomonning o'z tuzilish birliklari mavjud ekanligini ta'kidlaydilar va asosan ifoda tuzilish birliklari tahliliga e'tiborini qaratadilar.

Deskriptiv tahlil ob'ekti muayyan bir tildagi alohida tugal jumla sanaladi. Jumla esa ma'lum shaxs nutqining ikki pauza orasidagi parchasi hisoblanadi. Lekin jumla bilan gapning bir-biriga teng emasligi, jumla bir so'zdan ham, so'z birikmasidan ham, tugallanmagan gapdan ham tashkil topishi mumkinligi ta'kidlanadi.

Deskriptivchilarning bayon qilishlariga ko'ra, lingvistik tadqiqot ma'lum bir dialektidagi jumalarni to'plashdan va to'plangan materiallarni tahlil qilishdan iborat bo'ladi.

To'plangan material, ya'ni matn elementlarga bo'linadi va bu elementlarning bir-biriga nisbatan distributsiyasi aniqlanadi.

Lingvistik elementlar sinfi substitutsiya eksperimental texnikasi asosiga quriladi. Elementlarning birikish qonunlari esa bevosita ishtirokchilar bo'yicha tahlil qilish asosida tiklanadi.

Deskriptivchilarning ta'kidlashlaricha, **segmentatsiya, substitutsiya, distributiv tahlil** tilning har qanday aspektini tadqiq etishda qo'llanilishi mumkin. Bevosita ishtirokchilarga ajratish asosidagi tahlil esa faqat morfologiya va sintaksis doirasida qo'llaniladi.

Til tuzilishini ifoda va ma'no, ya'ni shakl va mazmun tuzilishi munosabatidan tashkil topgan butunlik sifatida e'tirof etuvchi deskriptivchilar ko'proq shakliy tuzilish birliklarini o'rganishga e'tibor qaratadilar.

G.Glisonning bayon qilishicha, tilning mazmuniy sistemasini o'rganish shakliy sistemani o'rganishga nisbatan bir muncha sekin amalga oshirildi va kam natijaga erishildi. Shu kungacha mazmuniy tuzilishni o'rganish ilmiy asosda yo'lga qo'yilgan deb aytib bo'lmaydi. Deskriptivchilarning tilning ifoda tomonini o'rganishdagi xatosi shunda bo'ladiki, mazmuniy tuzilish bilan shakliy tuzilish o'rtasidagi aloqani tushunmadi va shakliy tuzilishni o'rganayotganda mazmuniy tuzilishni e'tiborga olmadi. Afsuski, mazmuniy tuzilishga faqat shakliy tuzilish orqali yondashish mumkin.

Mazmuniy tuzilishdan farqli ravishda, shakliy tuzilish bevosita sezgi a'zolarimizga beriladi va uni oson o'rganish mumkin. Shuning uchun akustik va artikulyatsion fonetikada tovushni o'rganishda yuqori darajadagi aniqlikka erishildi.¹

G.Glison ifoda planini qismlarga ajratar ekan, uning asosiy elementlari sifatida *fonema* va *morfemalarni* ajratadi.

Uning fikricha, fonema bir jumlaning ikkinchisidan farqlash uchun xizmat qiluvchi til ifoda sistemasining minimal birligi sanaladi.²

¹ Степанов Ю.С. Методы и принципы совр. Лингв. –М.: 1975, -С. 203

² Глисон Г. Введение в дескриптивную лингвистику. –М.: 1959. -С.33.

¹ Глисон Г.Введение ...-С.45.

² Глисон Г. Ўша асар. -С.41.

Morfema ifoda sistemasining ikkinchi asosiy birligi sanaladi va uning ta'rifi ancha murakkab ekanligi ta'kidlangani holda, tilning mazmuniy sistemasi bilan bog'liq qo'llaniladigan tilning ifoda sistemasi birligi hisoblanadi.³

Distributiv tahlilning birinchi bosqichi jumlaning eng kichik qismlarga ajratish-segmentlash va ularni daftarda simvollar bilan ifodalashdan boshlanadi. Masalan, *kitobni o'qimoq* birikmasini erkin ravishda quyidagi segmentlarga ajratishimiz mumkin: *ki-tob-ni o'-qi-moq*. Tadqiqotchi informantdan (talaffuz qiluvchidan) bu birikmaning talaffuzini takrorlashni iltimos qiladi yoki shu birikma boshqa informant orqali talaffuz qildiriladi.

Ikkinchi marotaba talaffuz qilinganda, jumla tarkibidagi tovushlar oldingisidan bir oz farqlanishi mumkin. Masalan, o birida cho'ziqroq, ikkinchisida qisqaroq talaffuz qilinishi mumkin. Lekin informantlar har ikki holatda talaffuz qilingan tovushlarni bir xil deb qabul qiladi. Chunki o ning cho'ziq-qisqa talaffuz qilinishi informantlar uchun muhim bo'lmaydi, ma'no farqlamaydi.

So'ngra bu jumladan ajratilgan segmentlarni boshqa jumla tarkibiga qo'yib ko'ramiz va informant uchun shunday qilish mumkin ekanligini tekshirib ko'ramiz.

Ana shu asosda har bir tovush u yoki bu segmentning vakili ekanligini aniqlaymiz. Bir tovushni turli o'rinlarda qo'llab, ularning *qurshovi* belgilanadi. Elementning *qurshovi* yuqoridagi yo'l bilan aniqlangan elementlar *qo'shnichiligidir*.

"Elementlar qo'shnichiligi" atamasi ostida bir elementning boshqa elementga nisbatan egallagan pozitsiyasi tushuniladi. Bir xil qurshovda turgan segment turli informant tomonidan turlicha talaffuz qilinib, ma'noga ta'sir etmasligi mumkin. Bunday holatda ular bir segmentning turli vakillari sanaladi. Lekin ma'no o'zgarishiga olib kelsa, bunday segmentlarni bir segmentning turli vakillari deb bo'lmaydi. Masalan, *tokning* birinchi segmenti o'rniga *n* segmentini qo'ysak, tamomila yangi ma'noli *nok* kelib chiqadi. Demak, *t* va *n* segmentlari boshqa-boshqa segmentlarning vakillari sanaladi.

Jumlalarni segmentlash natijasida yuzlab ko'rinishlarda talaffuz qilinuvchi **fonlar** ajratiladi. Bu segmentlarning nisbatan cheklangan miqdordagi sinflarga birlashtirilishi natijasida fonemalar aniqlanadi. Segmentlarni ana shunday guruhlariga - sinflarga birlashtirishda elementlar **distributsiyasi** (joylashish tartibi) xizmat qiladi.

Elementlar distributsiyasi atamasi ostida shu elementlarning barcha qurshovlari yig'indisi tushuniladi.

Distributiv lingvistikada ikki tovush o'rtasidagi uch xil munosabat ajratiladi. Bunday munosabat tiplari distributsiya modellari deyiladi.¹ Distributsiyaning, odatda, 3 ta, ba'zan 4 ta turiga ajratiladi:

- a) kontrast distributsiya;
- b) qo'shimcha distributsiya;
- v) ekvivalent yoki erkin almashinish distributsiyasi;
- g) kirish yoki qisman ekvivalent distributsiya.

Distributsiya modellarining bu turlari N.S.Trubetskoyning fonema va uning variantlarini belgilashning uch qoidasini eslatadi.²

Ikki element bir xil pozitsiyada (qurshovda) biri o'rnida ikkinchisi kelib, ma'noni farqlash vazifasini bajarsa, bu elementlar *kontrast distributsiya* munosabatida bo'lgan hisoblanadi. Masalan, *tom*, *nom*, *jom* so'zlarining birinchi segmentlari *t-n-j* bir xil pozitsiyada kelib, ma'no farqlash vazifasini bajarib, o'zaro kontrast distributsiya munosabatidadir.

O'zaro kontrast distributsiya munosabatida bo'lgan elementlar ikki mohiyatning vakillari hisoblanadi.

Ikki element bir xil pozitsiyada biri o'rnida ikkinchisi kela olmasa, bu elementlar o'zaro *qo'shimcha distributsiya* munosabatida bo'lgan sanaladi. Masalan, *bil* so'zi tarkibidagi i o'rniga shu qurshovda yl ni qo'llab bo'lmaydi, yoki *qyl* so'zi tarkibidagi yl o'rniga shu qurshovda i ni

³ Глисон Г. Ўша асар. -С.43.

¹ Березин Ф.М. История лингвистических учений. -М., 1975, -С.257.

² Қаранг. Шу китобнинг "Прага структурализми" бўлими.

qo'llab bo'lmaydi. Demak, *i* va *u* tovushlari o'zaro qo'shimcha distributsiya munosabatidadir. Qo'shimcha distributsiya munosabatida bo'lgan ikki segment bir mohiyatning turli vakillari sanaladi. Fonologik sathda bir fonemaning ikki xil varianti hisoblanadi.

Ikki element bir xil pozitsiyada ma'noni o'zgartirmagan holda biri o'rnida ikkinchisi erkin holda almashina olsa, bu ikki segment bir-biri bilan erkin almashinish distributsiyasi munosabatida bo'ladi.

Masalan, *gijda* so'zidagi portlovchi *dj* tovushi o'rnida sirg'aluvchi *j* tovushini almashtirish mumkin, lekin bu almashinish so'zning ma'nosini o'zgartirmaydi. O'zaro erkin almashinish distributsiyasi munosabatida bo'lgan ikki element bir mohiyatning ikki varianti hisoblanadi.

Lingvistik tahlilning fonologik sathdagi ana shunday texnikasi Xarris tomonidan morfologik sathga ham olib o'tildi. Uning fikricha, tilning fonologik birliklarining pozitsiyalari orqali tilda ularning qanday kombinatsiyalari morfemani hosil qilishini hisoblash mumkin bo'ladi. Morfologik birliklarni segmentlarga ajratish boshqa shunday birliklarga qiyoslash, solishtirish metodi orqali amalga oshiriladi.

Xarris ma'noga murojaat qilishdan qochish maqsadida morfologiyada mazmuniy kriteriyani distributsiya kriteriyasi bilan almashtirishga harakat qiladi.

Morfema distributsiyasi deyilganda shu morfema qo'llanilishi mumkin bo'lgan barcha kontekstlar yig'indisi tushuniladi.¹

Morfologiyada ham xuddi fonologiyadagi kabi uchta distributsiya modeli ajratiladi. Ikki element bir xil qurshovda biri o'rnida ikkinchisi almashinib, grammatik ma'noni o'zgartirib yuborsa, bu ikki element o'zaro kontrast distributsiya munosabatida bo'ladi. Kontrast distributsiya munosabatida bo'lgan ikki birlik ikki morfemaning ikki xil varianti - morfi yoki allomorfi sanaladi. Masalan, *kitob-im*, *kitob-ing* so'zlaridagi *-im*, *-ing* shakllari bir xil pozitsiyada biri o'rnida ikkinchisi almashinib kela oladi va bu almashinish ma'no o'zgarishiga olib keladi. Shuning uchun ular ikki morfemaning allomorfllari sanaladi.

Og'zaki so'zlashuv nutqida toqqa, eshikka, dalaga singari so'zlardagi ikkinchi ma'noli qismlarning hech biri shu qurshovda biri o'rnida ikkinchisi kela olmaydi. Shuningdek, toqqa, tog'i so'zlarining birinchi ma'noli qismlari toq va tog' qurshovda biri o'rnida ikkinchisi kela olmaydi. Ular qo'shimcha distributsiya munosabatidadir. Shuning uchun bu shakllar bir morfemaning turli variantlari sanaladi.

Singli - *singlisi*, *manbai* - *manbasi* singari so'zlardagi *-i* va *-si* erkin almashinish distributsiyasi munosabatida bo'ladi va shuning uchun ular bir morfemaning turli variantlari hisoblanadi.

Yuqorida bayon qilinganlardan shu narsa ayon bo'ladiki, distributsiya tahlili asosan segmentlarning shakliy qurshoviga, distributsiyaga tayanadi. Shuningdek, distributiv tahlilda tayanch tushuncha bo'lgan distributsiyaning o'zi aniq izohini topmaydi.

F.M.Berezinning ko'rsatishicha, agar distributsiyani shu element uchraydigan barcha qurshovlar yig'indisi deb tushunadigan bo'lsak, distributsiya element asosida izohlanadi. Elementning o'zi esa distributsiya asosida izohlanadi. Natijada "sehrli halqa" hosil bo'ladi. Shuningdek, elementlar qurshovi tushunchasi ham aniq emas. Agar uni o'rganilayotgan elementning ma'lum miqdordagi qurshovi deb tushunadigan bo'lsak, bu tushunchaning unchalik aniq emasligini sezish qiyin emas. Uning fikricha, u yoki bu tilning xususiyatini bitta distributiv tahlil yo'li bilan o'rganish mumkin degan umumiy qarash ham unchalik to'g'ri emas. Lekin shuni tan olish kerakki, distributiv tahlil lingvistik tahlilning ob'ektivligini aniqlashga sharoit yaratdi.¹

Savol va topshiriqlar:

1. Amerika strukturalizmi nima uchun deskriptiv lingvistika deb nomlanadi?

¹ Глисон Г. Ўша асар. -С.96.

¹ Березин Ф.М. История лингвистических учений.-М.,1975, с.258.

2. Deskriptiv lingvistika vakillari tilshunoslikning bosh vazifasi deb nimani tushunadi?
3. Deskriptiv tilshunoslik til tuzilishini qanday tushunadi?
4. G.Glison ifoda planini qanday qismlarga ajratadi?
5. Distributiv lingvistikada distributsiya modellarining qaysi turlari belgilanadi? Ularga alohida ta'rif bering.
6. Blumfild sistemasining asosiy tamoyillari nimalardan iborat?
7. Distributiv tahlil metodi qanday?
8. Distributsiya nima va uning qanday turlari mavjud ?

Adabiyotlar

1. Степанов Ю.С. Методы и принципы совр. Лингв. –М.: 1975.
2. Глисон Г. Введение в дескриптивную лингвистику. –М.: 1959.
3. Березин Ф.М. История лингвистических учений. -М.: 1975.
4. Нурмонов А. Структур тилшунослик: илдизлари ва йўналишлари. Тошкент: 2009.
5. Нурмонов А., Искандарова Ш. Тилшунослик назарияси. -Тошкент: Фан, 2008.

17-mavzu: Bevosita ishtirokchilar metodi

Reja:

1. Bevosita ishtirokchilar metodining mohiyati.
2. Bevosita ishtirokchilarga ajratish usullari.

Tayanch soʻz va iboralar: *bevosita ishtirokchilar metodi, konstruktsiya, graduallik (darajalanish), simbol, indeks, L.Blumfild.*

Deskriptiv lingvistika vakillari jumlaning eng kichik ma'noli qismlariga ajratishda, ya'ni segmentlarga bo'lishda bevosita ishtirokchilar (BI) asosidagi tahlilga ham tayanadilar.

Bu metodga ishora L.Blumfildning "Til" asarida uchrasa ham, uning aniq tamoyillari R.Uellz va Yu.Naydalar tomonidan ishlab chiqildi.

BI metodiga muvofiq, tayanch nuqta konstruktsiya hisoblanadi. Konstruktsiya tarkibidan ishtirokchilar va **bevosita ishtirokchilar** (BI) ajratiladi.


Konstruktsiya atamasi ostida ma'noli qismlarning ketma-ket munosabatidan tashkil topgan butunlik tushuniladi. Ishtirokchilar deb kattaroq konstruktsiya tarkibiga kirgan soʻz yoki konstruktsiya (yoki morfema)ga aytiladi. Muayyan konstruktsiyaning bevosita shakllari shida ishtirok etgan bir yoki bir necha ishtirokchilarga **bevosita ishtirokchilar deyiladi**.¹ Masalan, *Shabboda qurg'ur ilk sahar olib ketdi gulning totini*, (H.O.) jumlasini konstruktsiya hisoblanadi. Uning tarkibida ishtirok etgan barcha ma'noli soʻzlar ishtirokchilar, bevosita aloqaga kirishgan soʻzlar esa bevosita ishtirokchilar (BI) sanaladi. *Shabboda* soʻzi bilan *totini* soʻzi oʻrtasida ma'lum ma'noda bog'lanish (biri gapning boshlovchisi, ikkinchisi gapning yakunlovchisi) bo'lsa ham, lekin ular oʻrtasida bevosita aloqa mavjud emas. Aksincha, *gulning* soʻzi *totini* soʻzi bilan *ilk sahar* soʻzi *olib ketdi* soʻzi bilan, *shabboda qurg'ur* soʻzi *olib ketdi* soʻzi bilan oʻzaro zich bog'langandir.

Bunga muvofiq nutqning har bir mustaqil parchasi ikki qismdan tashkil topadi. Oʻz navbatida, har qaysi qism yana oʻz ichida ana shunday qismlardan iborat bo'ladi. Ko'rinadiki, har bir konstruktsiya binar tamoyilga ko'ra qismlarga bo'linadi va bu bo'linish konstruktsiya doirasida graduallik (darajalanish) xususiyatiga ega bo'ladi.

Yuqoridagi gapni sxematik ravishda quyidagicha ko'rsatish mumkin:

Shabboda qurg'ur ilr sahar olib ketdi gulning totini

¹ Глисон Г. Введение...-С.190.



BI tahlilida, avvalo, so'z birikmalari ajratiladi va ular bir gap ichida birlashtiriladi. Shuning uchun BI tahlilini birlashtirish, o'rash deb ham yuritiladi.

Birlashtirish jarayonida quyidagi qoidalarga amal qilinadi:

1) bir vaqtning o'zida ikkitadan ortiq bo'lmagan elementlar birlashtiriladi. Masalan, birdaniga olib ketdi gulning totini tarzida birlashtirish mumkin emas. Avval gulning so'zi totini so'zi bilan birlashtiradi. So'ngra gulning totini so'zi olib ketmoq so'zi bilan birlashtiradi;

2) bog'lanmaydigan elementlarni birlashtirish mumkin emas. Xususan, yuqoridagi gapda qurg'ur, ilk so'zlarini birlashtirib bo'lmaydi;

3) BI tahlilini qo'llash tartibi qat'iy belgilangan bo'ladi.²

BI metodiga muvofiq, til grammatikasi shakliy to'g'ri gaplarni hosil qiluvchi (tug'diruvchi) kibernetik qurilma hisoblanadi. Har bir tilning grammatikasi belgilarning yopiq (oxirgi) simvollar va bu simvollar zanjirining qayta kodlashtirish qoidalaridan iborat bo'ladi. Qayta kodlashtirish qoidasi $X-Y$ shakliga ega bo'ladi. Bunda $X-Y$ simvollar zanjirini ifodalaydi. Bir guruh simvollar so'z va morfemalarni ifodalash uchun, boshqalari esa sintaktik guruh va gaplarni ifodalash uchun xizmat qiladi. Bundan tashqari $\#$ shaklidagi alohida belgi ham ishlatiladiki, u gapning boshlanishi va oxirini ifodalash uchun qo'llaniladi.

Har qanday gapning hosil qilish (tug'dirish) qurilmasi quyidagicha amal qiladi. Gapni BIga ajratish uchun asos bo'lgan har qanday gap zanjirini ifodalash uchun $\#S\#$ belgisi qo'llaniladi. Qayta kodlashning birinchi qoidasi $\#S\# \rightarrow \#Y_1\#$ qo'llanilishi natijasida $\#Y_2\#$ zanjiri hosil qilinadi. $\#Y_1\# \rightarrow \#Y_2\#$ qoidasining izchil amal qilinishi natijasida $\#Y_2\# \rightarrow \#Y_3\#$ va boshqa. $\#Y_2\#, \#Y_3\#$ zanjirlari hosil qilinadi.


Bu jarayon qismlarini boshqa simvollar bilan ifodalash mumkin bo'lmagan holatgacha olib boriladi va zanjir terminal zanjir deb yuritiladi. Bunday zanjir $\#Y_p\#$ belgisi bilan ifodalanadi. Undan hosil qilingan zanjirlar yig'indisi $\#Y_p\#$ ning derivatsiyasi deyiladi.

Grammatik to'g'ri gaplarni hosil qilishning bunday jarayonini matematik shajara orqali ifodalash qabul qilingan. Masalan, quyidagi qoidalar berilgan bo'lsin: 1) $S \rightarrow A+B$, 2) $A \rightarrow C$, 3) $B \rightarrow D+F$, 4) $C \rightarrow a$,

5) $D \rightarrow b$, 6) $F \rightarrow c$. Bu qoidalar asosida quyidagi derivatsiya hosil qilinadi:

$\#S\#, \#A+B\#, \#C+B\#, \#C+D+F\#, \#a+D+F\#, \#a+b+F\#, \#a+b+c\#$.

Bu derivatsiyani shajara tarzida quyidagicha ifodalash mumkin:



² Шаумян С.К.-Теоретические основы трансформационной грамматики.-Новое в лингвистике, II. -М.: 1962, -С.392.

Agar A simvoli ism guruhini, B-fe'l guruhini, C-otni, D-fe'lni, F-to'ldiruvchini, *a*-o'quvchi so'zini, *c*-kitobni so'zini, *b*-o'qidi so'zini ifodalasa, unda yuqoridagi derivatsiya *O'quvchi kitobni o'qidi* gapining struktur tavsifini ifodalaydi.¹

BI metodiga asosan gaplarni qismlarga bo'lish so'z birikmalariga ajratishni eslatadi va gap bo'laklariga ajratishdan hech qanday farq qilmaydigandek ko'rinadi.

Aslida esa BIga ajratish gapni bo'laklarga ajratishdan tubdan farq qiladi. F.M.Berezinning fikricha, gap bo'laklari bo'yicha tahlil aniq javob berolmagan narsalarga BI metodi yo'li bilan qilingan tahlil javob bera olishi mumkin.²

BI metodi asosan sintaksisda qo'llaniladi. Sintaksisda obro'-e'tibor qozongan bu metod keyinchalik morfologiya va fonologiyaning ayrim masalalarini hal etishda qisman qo'llanila boshlandi.

BI metodi asosidagi fonologik tahlil Ch.Xokketning "Fonologiya bo'yicha qo'llanma" (1955) asarida aniq namoyon bo'ldi. Fonologik sathda ham BI asosidagi tahlil uchun zarur bo'lgan pog'onali (iyerarxik) munosabat ko'zga tashlanadi.

Ch.Xokket fonologik tahlilning asosiy nuqtasi deb jumlaning bo'g'inlarga ajratishni biladi. Har bir bo'g'in strukturasi uch element mavjudligi ko'rsatiladi: bo'g'in boshlanishi, bo'g'in cho'qqisi va bo'g'in oxiri.

Bu elementlar BI asosida tahlil etiladi. Masalan, o'zbek tilidagi *tol* so'zining bo'g'in boshlanishidagi tovushi birinchi BI sifatida ajratiladi. Qolgan bo'g'inning cho'qqisi va bo'g'in oxiri qismlari ikkinchi BI sifatida o'zaro birlashtiriladi.

Ya'ni *t-o-l* sxemasini oladi. Bo'linishning ikkinchi bosqichida bo'g'inning cho'qqisi va bo'g'in oxiri qismlari bir-biridan ajratiladi.

Til elementlarining ketma-ketligi va ular o'rtasidagi munosabatni o'rganishga qaratilgan BI metodi struktur tilshunoslikning dastlabki davrlarida ancha muvaffaqiyatga erishgan va tilshunoslarning diqqat-e'tiborini o'ziga jalb etgan bo'lsa ham, lekin keyinchalik lingvistik tahlilning ob'ektiv va aniq bo'lmog'i uchun unda bir qator ojiz tomonlar mavjud ekanligi ma'lum bo'lib qoldi.

S.K.Shaumyanning fikricha, bu metodning eng ojiz tomoni shundaki, BI metodi lingvistik tadqiqotlarda invariantlik muammosini hal qilishda etarli kuchga ega emas.

Quyidagi gaplarni qiyoslaymiz:

1. O'quvchi kitob o'qiyapti
2. Kitobni o'quvchi o'qiyapti?
3. Kim kitob o'qiyapti?

Har qanday kishi birinchi gapning darak, ikkinchi va uchinchi gapning so'roq gaplar ekanligini yaxshi biladi. Lekin BI metodi bu gaplarni farqlashning formal o'lchovlarini bermaydi. Agar formal o'lchov sifatida so'z tartibini oladigan bo'lsak, birinchi va uchinchi gaplarni bir guruhga kiritishimiz kerak bo'ladi. Agar ohang asosida chegaralaydigan bo'lsak, ikkinchi gapdagi so'roq ohang uchinchi gapda boshqacha.

Shunday qilib, yuqoridagi metod bilan zidlanuvchi darak va so'roq gaplar asosida yotgan invariantni belgilash qiyin.

Yoki rus tilidagi quyidagi gaplar tashqi strukturasi ko'ra bir paradigmani tashkil etadi. Ularning hammasi qaratqich-qaralmish munosabatini ifodalaydi.

1. Пение птиц
2. Изучение языка
3. Приглашение писателя

Dastlabki ikki sintaktik qurilma mazmunan o'zaro zid munosabatni ifodalaydi. Birinchi qurilmada qaratqich (родительный) kelishikdagi qush (ptitsa) so'zi kuylash (penie) harakatining bajaruvchisi sanalsa, ikkinchi qurilmada xuddi shu kelishikdagi *языка* so'zi *o'rganmoq* fe'lidan anglashilgan harakatning ob'ekti hisoblanadi. Uchinchi birikma esa mazmunan ikki ma'nolidir.

¹ Шаумян С.К. Ўша асар. –С.392.

² Березин Ф.М. Ўша асар. –С. 259.

Birinchi ma'noda taklif qilish (приглашение) harakatining bajaruvchisi *yozuvchi* (писатели), ikkinchi ma'noda *yozuvchi* (писатель) taklif qilinuvchi, ya'ni ob'ekt hisoblanadi.

O'zbek tilidagi qaratqichli konstruktsiyalarda ham ana shunday omonimlik xususiyati uchrab turadi. Masalan, *uning imtihoni* birikmasidan ikki ma'no ifodalanadi; 1) uning imtihon olishi; 2) uning imtihon topshirishi. Bu *U imtihon oladi* va *U imtihon topshiradi* gaplarining transformatsion o'zgaruvidan tashkil topgan.¹

Lekin BI grammatikasi yuqoridagi konstruktsiyalarning ko'rsatilgan mazmuniy farqlarini simvollar orqali ifodalay olmaydi.²

Bundan tashqari, F.M.Berezinning fikricha, BI metodi aktiv va passiv, tasdiq va inkor konstruktsiyalar o'rtasidagi aloqani ko'rsatish imkoniyatiga ham ega emas. Shuningdek, bu metod sintaktik sathda eng kichik (elementlar) birlik nima, degan savolga ham javob bera olmaydi.³

Ana shunday kamchiliklarni bartaraf qilish maqsadida ishtirokchilarning shakliy ko'rsatkichlarini ifodalash uchun maxsus indekslardan foydalanish mumkin. Masalan, yuqorida keltirilgan uchta misoldagi qaratqich kelishigi uchun *G*, bosh kelishik uchun *N* simvollar bilan birgalikda, sub'ektni bildirayotgan qaratqich uchun *G₁*, ob'ektni bildirayotgan qaratqich uchun *G²* singari indeksli simvollardan foydalanish va shu yo'l bilan BI metodidagi grammatik omonimiyani izohlashdagi kamchiliklarni bartaraf qilish mumkin. Lekin bunda yangi qiyinchilikka duch kelinadi. Grammatik omonimiyani bartaraf qilishga sun'iy harakat tufayli grammatik tavsif turli simvol va indekslar bilan o'ta murakkablashadi.

BI metodidagi yuqorida ko'rsatilgan ojiz tomonlar tadqiqotchilarni bundan ko'ra mukammalroq tahlil metodlarini qidirishiga undadi. Ana shunday ob'ektiv zaruriyat tufayli transformatsiya metodi (TM) maydonga keldi.

Savol va topshiriqlar:

1. Bevosita ishtirokchilar va oxirgi (terminal) ishtirokchilar atamaları ostida nimalar tushiniladi?
2. Blumfild tilning asosiy birliklari sifatida nimalarni e'tirof etadi?
3. Blumfild morfemani qanday tasnif qiladi?
4. Blumfildning sintaksis va parataksis bo'yicha qarashlarini ayting.
5. Bevosita ishtirokchilar metodi tilni qanday tekshiradi?

Adabiyotlar

1. Бўронов Ж. Инглиз ва ўзбек тиллари қиёсий грамматикаси. -Тошкент: 1973, 42-бет.
2. Шаумян С.К.-Теоретические основы трансформационной грамматики. -Новое в лингвистике, II. -М.,1962. -С.392.
3. Березин Ф.М. История лингвистических учений.-М.,1975, с.258.
4. Нурмонов А. Структур тилшунослик: илдизлари ва йўналишлари. -Тошкент: 2009.
5. Нурмонов А., Искандарова Ш. Тилшунослик назарияси. -Тошкент: Фан, 2008.

18-mavzu: Transformatsiya metodi (TM)

Reja:

1. Transformatsiya metodining kelib chiqishi.
2. Transformatsiya turlari.

¹ Бўронов Ж. Инглиз ва ўзбек тиллари қиёсий грамматикаси. -Тошкент: 1973, 42-бет.

² Шаумян С.К. Ўша асар. -С.394.

³ Березин Ф. Ўша асар. -С.260.

Tayanch soʻz va iboralar: *transformatsion metod, an'anaviy, struktur, generativ (tug'diruvchi) lingvistika, empirizm, ratsionalizm, mentalizm va antimentalizm, yadro gap, transformatsiya qoidasi, hosila gap, operand, transformatsiya operatori, derivatsiya operatori, permutatsiya, substitutsiya, ad'yunktsiya, ellipsis.*

Transformatsiya metodi dastlab deskriptiv lingvistika nazariyotchilaridan biri Z.S.Xerris tomonidan tavsiya qilingan edi.¹ Uning fikriga ko'ra, transformatsion tahlil (TT) BI metodi duch kelgan murakkabliklarning bir qancha qismini bartaraf qilishga yordam beradi. TT ko'p jihatdan til tuzilish tahlilining algebraik metodini namoyon qiladi.²

Z.S.Xerris tomonidan tavsiya etilgan TM uning shogirdi N.Xomskiy tomonidan rivojlantirildi.³

L.S.Barxudarov TL ni ham o'z ichiga olgan generativ lingvistikani (GL) struktur lingvistikadan farqlagan holda, uni tilshunoslikning struktur lingvistikadan keyingi bosqich deb hisoblaydi.⁴

U tilshunoslik tarixini olamni bilishning dialektik nazariyasi belgilab bergan uch bosqichning qaysisiga tayanib ish ko'rish belgisiga ko'ra uch bosqichga – uch grammatik nazariyaga bo'ladi: a) an'anaviy, b) struktur, v) generativ (tug'diruvchi) lingvistika.

L.S.Barxudarov fikriga ko'ra, yuqoridagi uch tilshunoslik bilishning uch bosqichiga asoslanadi. Dialektik falsafa bilishning bevosita kuzatish, analiz va sintez bosqichlarini e'tirof etadi. An'anaviy tilshunoslik bilishning birinchi bosqichiga, struktur tilshunoslikning deskriptiv yo'nalishi ikkinchi bosqichiga, struktur tilshunoslikning glossematika va TL yo'nalishi esa sintez bosqichiga tayanadi.

XX asrning 50-yillarida shakllanib, rivojlanish bosqichiga o'tgan struktur tilshunoslikning deskriptiv maktabi vakillari an'anaviy tilshunoslikning aniq lingvistik tadqiqot tamoyillari yo'q ekanligini tanqid qilgan holda, o'z oldilariga tilni o'rganishning formallashtirilgan tahlil tizimini ishlab chiqishni maqsad qilib qo'ydilar. Ana shunday tahlil asosida tadqiqotchi ob'ektni o'rganishda har qanday sub'ektivlikdan holi bo'lgan ob'ektiv xulosaga kelishi mumkinligini ta'kidlaydilar. Lekin struktur tilshunoslikning glossematika yo'nalishida substantsiyani shakldan ajratish shu darajaga yetdiki, natijada shakl o'zining substantsiyasidan ajralib qoldi.

Bu esa struktur tilshunoslik bag'ridan yangi yo'nalish – generativ lingvistikaning o'sib chiqishiga olib keldi.

Hozirgi kunda empirizm nomi bilan yuritilayotgan tilshunoslik yo'nalishi L.Blumfild nomi bilan bog'lansa, unga qutbiy zidlanishda turuvchi ratsionalizm yo'nalishidagi generativ lingvistika N.Xomskiy nomi bilan bog'liqdir. Bu ikki yo'nalish o'rtasidagi muhim farqlovchi belgilar empirizm va ratsionalizm,¹ mentalizm va antimentalizmdir. L.Blumfild ma'nodan holi bo'lgan shaklni o'rganishni targ'ib qiladi. Shuning uchun uning g'oyasi antimentalistik xarakterga ega.

TMga muvofiq, har qanday tilning sintaktik sistemasini yadro gaplar nomi bilan yuritiluvchi eng kichik (elementlar) gaplar tiplari yig'indisi sifatida gavdalantirish mumkin. Yadro gaplar deb sodda, yig'iq, darak gap tushuniladi. Fe'l kesimli gap bo'lsa, kesimi aniq nisbatda turadi. Bu eng kichik gaplar har bir tilning sintaktik sistemasining asosini tashkil etadi.

¹ Хэррис З.С. Совместная встречаемость и трансформация в языковой структуре. –Новое в лингвистике, II, - М.: 1962. -С.528.

² Хэррис З.С. Ёша асар. –С. 529.

³ Хомский Н. Синтаксические структуры. – Новое в лингвистике. II, -М., 1962, -С. 412.

⁴ Бархударов Л.С. Истоки, принципы и методология порождающей грамматики. (введение). –«Проблемы порождающей грамматики и семантики». тўплами. -М., 1976, -С. 5.

¹ Звегинцев В.А. Язык и лингвистическая теория. -МГУ, 1973, -С. 61.

Yadro gaplardan turli shakliy o'zgarishlar asosida asosiy ma'noni saqlagan holda ikkilamchi sintaktik qurilmalarning hosil qilinishi transformatsiya hisoblanadi. Bu metod gapning shakliy va mazmuniy tuzilishlarining o'zaro munosabati zaminida vujudga keladi.²

TM gapning ichki va tashqi strukturasi va bu struktura birliklarining o'zaro munosabatiga tayanadi. Deskriptiv lingvistikada qo'llanuvchi ichki struktura gapdan anglashilgan ma'no tuzilishini, tashqi struktura esa muayyan mazmuniy tuzilishining shakliy, ifoda tomonini bildiradi.

V.S.Xrakovskiy ta'kidlaganidek, matn tarkibidagi har qanday gap (jumla) nutqiy faoliyatning yakuniy xosilasi sanalib, murakkab, ko'p qirrali xususiyatga ega bo'ladi. Shuning uchun uni turli tomondan turlicha o'rganish mumkin.³

Bir yo'nalish doirasida nutqiy jarayonda gap hosil qilishga oid masalalar asosiy o'rganish ob'ekti bo'lsa, ikkinchi yo'nalish doirasida gap modellari ro'yxatini, inventarini belgilash bilan bog'liq sof lingvistik masalalar o'rganiladi. A.V.Isachenkoning fikriga ko'ra, sintaktik modellarning yakuniy modellarini izlash ilmiy sintaksisning birlamchi va asosiy vazifasidir.⁴ Lekin tadqiqot maqsadi faqat gap modellarining statistik tavsifi bilangina cheklanib qolmasligi lozim. Sistemaviy sintaksis uchun sinxroniyadagi u yoki bu sintaktik modellar o'rtasidagi o'zaro munosabatni yoritish, statistik tavsifni dinamik tavsif bilan to'ldirish zarur bo'ladi.

Transformatsion tahlil ana shunday zaruriyatni qoplash vazifasini bajaradi. TM uchun **yadro gap, transformatsiya qoidasi** va hosila gap tushunchalari muhim sanaladi.

Yadro gap, ya'ni transformatsiya uchun asos bo'lgan gap operand, hosila gap *transform* yoki **transformand**, operanddan transformandni hosil qiluvchi vositani *transformatsiya operatori* deb yuritiladi.¹

Z.Xerrisning fikriga ko'ra, transformatsiya bir gapning ikkinchi gap shakliga shunday o'zgarishiki, unda asos gap hosila gap o'rtasida ham leksemalar tarkibi, ham ma'nosi nuqtai nazardan bir xillik mavjud bo'ladi.² Demak, mazmuniy mundarija transformandlar uchun invariant sanaladi.

Operand bilan transformand o'rtasida transformatsiya munosabati mavjud bo'ladi. Ular ikkisi o'zaro transformatsiya munosabati bilan bog'langan bo'ladi.

Shunday qilib, o'zaro transformatsiya munosabatida bo'lgan gaplar bir xil leksik maqomga ega bo'lib, bir xil elementar ma'nolar kombinatsiyasidan tashkil topgan holda, turli xil grammatik (shakliy) maqomga ega bo'ladi.

Transformatsiya maxsus transformatsiya qoidalari orqali amalga oshiriladi. J.Bo'ronov ta'kidlaganidek, transformatsion qoida asosiy va hosilaviy modellar o'rtasidagi munosabatlarni topish usuli sanaladi. Transformatsion qoida BIGa *ajratish qoidasini*, *transformatsion modellar yaratish qoidasini* va *morfofonemik qoidalarni* o'z ichiga oladi. Transformatsion qoida bitta konstruktsiya yoki gapning ma'nosini ochishda bir qancha hosilaviy konstruktsiya yoki gaplardan foydalana oladi.³

Demak, transformatsiyaga asos bo'lgan konstruktsiya va transformandlar bir umumiy ma'no va barqaror leksik birliklar zanjiri asosida birlashib, bir sintaktik paradigmani hosil qiladi va unda yadro gap paradigmaning bosh a'zosi sanaladi.

Ko'rinadiki, yadro gap modeli va uning turli hosilalari ro'yxatining olinishi u yoki bu tilda muayyan axborotni turlicha ifodalash imkoniyatlarini ochib beradi.

Yuqorida ta'kidlanganidek, yadro gapning shaklini o'zgartirish bilan uning turli transformandlarini hosil qilish ma'lum transformatsiya qoidalari asosida amalga oshiriladi.

Ko'pchilik mualliflar tomonidan transformatsiyaning to'rtta qoidasi qayd etiladi:

² Бўронов Ж. Ўша асар, 39-бет

³ Храковский В.С. Очерки по общему и арабскому синтаксису. -М.: 1970,-С. 5.

⁴ Исаченко А.В. Трансформационный анализ кратких и полных прилагательных. —сб. Исследования по структурной типологии. -М.: 1963, -С. 61.

¹ Эшби У.Р. Введение в кибернетику. -М., 1963, -С.61.

² Хэррис З.С. Ўша асар, -С. 540.

³ Бўронов Ж. Ўша асар. 42-бёт.

1) o'rin almashtirish transformatsiyasi yoki *permutatsiya* transformatsiyasi. Bunda yadro gap tarkibidagi sintaktik birliklarning o'rnini almashtiriladi. Lekin bu qoida amalga oshirilganda, sintaktik birlikning mohiyati o'zgarishsiz qoladi.

Masalan, *Farhod keldi* → *Keldi Farhod*;

2) *substitutsiya*, ya'ni yadro gap tarkibidagi bir elementni o'zaro substitutsiya munosabatida bo'lgan boshqa element bilan almashtirish. Masalan, *Men uning nima xohlashini bilaman* → *Men buni bilaman*;

3) *адъюнкция*, ya'ni yadro gap tarkibiga boshqa elementlarni qo'shish. Masalan, *Men o'qidim* → *Men bu kitobni o'qidim*;

4) ellipsis, ya'ni yadro gap tarkibidan ayrim elementlarni soqit qilish. Masalan, *Men keldim* → *Keldim*.

TMning DMdan kuchli tomoni shundaki, DM 40-50- yillargacha faqat faktlarni tahlil qilish bilan cheklangan bo'lsa, TM tahlil metodlarini ishlab chiqishga asosiy e'tiborni qaratdilar.¹

Agar distributiv tahlil va BI metodlari jumla qanday mayda qismlardan tashkil topadi, degan savolga javob berishga harakat qilgan bo'lsa, TM bu jumla qanday gapning transformatsion qayta shakllanishidan hosil bo'lgan, degan savolga javob berishi lozim bo'ldi. F.M.Berezin to'g'ri ta'kidlaganidek, TMning o'jiz tomoni ana shunda namoyon bo'ladi. Chunki TT bevosita lingvistik materialdan kelib chiqmaydi, balki dastlab sof empirik asosga quriladi, so'ngra til materiali asosida tekshiriladi. Bundan tashqari TMning qo'llanilish doirasi va turli tillardagi yadro gaplar tiplarining miqdori aniq belgilanmagan.²

Bundan tashqari, sintaktik sathda transformatsiya bilan derivatsiya o'rtasidagi o'xshashlik va farq ochilmaydi. Yadro gapning mohiyatini o'zgartirib yuboradigan shakli o'zgarishlar ham transformatsiya doirasida o'rganiladi. Masalan, transformatsiya qoidasi sifatida alohida tur qilib *nominalizatsiya* ajratiladi. Bunda yadro gap kesimidagi kesimlik shaklining yo'qotilishi transformatsiya vositasi hisoblanadi. Masalan, *Dars boshlandi* → *darsning boshlanishi*. Bu esa transformatsiya oldiga qo'ygan talabga javob bermaydi. Chunki transformatsiya yadro gapning gaplik holatini saqlab qolish doirasidagi turli ichki grammatik o'zgarishlardir. Yuqoridagi holda esa yadro gap gaplik holatini yo'qotib, birikmaga aylanyapti.

TMdagi ana shu cheklangan tomonni e'tiborga olgan holda, V.S.Xrakovskiy sintaktik transformatsiya bilan sintaktik derivatsiyani bir-biridan farqlash lozimligini ta'kidlaydi.³

S.D.Katsnelson gaplar o'zaro faqat transformatsiya munosabatida emas, balki derivatsiya munosabatida ham bo'lishini bayon qilgan edi.⁴

Shuning uchun V.S.Xrakovskiy sintaktik derivatsiya deb hosila gapning asos gapdan grammatik maqomi va mazmuni jihatidan farq qiladigan shakli o'zgarishni tushunadi.⁵

Derivatsiyaning tarkibiy qismlarini ham transformatsiyaning tarkibiy qismlariga analogiya yo'li bilan quyidagicha belgilaydi: asos gap uchun operand, hosila gap uchun derivat, yasovchi vosita uchun esa derivatsiya operatori atamalarini qo'llaydi.

Yuqorida ko'rib o'tilgan lingvistik tahlil metodlari Amerika deskriptiv lingvistikasining tulshunoslik nazariyasi uchun bergan eng qimmatli tomonlaridir. Bu metodlar garchi tilning qanday funktsial-lashuvi haqida savolga javob bera olmasa ham, lekin uni tavsiflash uchun katta xizmat qildi. Bu tahlil metodlarining ko'p jihatlari bugungi tilshunoslikning tahlil usuli uchun ham foydadan holi emas.

Savol va topshiriqlar:

1. Transformatsiya metodining o'ziga xosligi nimada?

¹ Основные направления структурализма. -М., 1964, -С.191. Яна қаранг. Хомский Н. Синтаксические структуры. -Новое в лингвистике. Вып.2, -М., 1962, -С. 459-460.

² Березин Ф.М. Ўша асар, -С. 263.

³ Храковский В.С. Ўша асар. -С.13.

⁴ Кацнельсон С.Д. Порождающая грамматика и принцип деривации, -сб. «Проблемы языкознания», -М., 1967.

⁵ Храковский В.С. Ўша асар. -С.13.

2. TM qanday munosabatga tayanadi?
3. TM uchun qaysi tushunchalar muhim sanaladi?
4. Mutaxassislar tomonidan transformatsiyaning qanday qoidalar e'tirof etiladi?
5. Transformatsion metod yordamida til qanday o'rganiladi?
6. Transformatsiyaning turlari haqida gapiring.

Adabiyotlar

1. Хэррис З.С. Совместная встречаемость и трансформация в языковой структуре. – Новое в лингвистике, II, -М.: 1962.
2. Хомский Н. Синтаксические структуры. – Новое в лингвистике. II, -М.: 1962..
3. Бархударов Л.С. Истоки, принципы и методология порождающей грамматики. (введение).//–«Проблемы порождающей грамматики и семантики» -М.: 1976, с. 5.
4. Кацнельсон С.Д. Порождающая грамматика и принцип деривации, // «Проблемы языкознания», -М.: 1967.
5. Основные направления структурализма. -М.: 1964.
6. Исаченко А.В. Трансформационный анализ кратких и полных прилагательных. // Исследования по структурной типологии. -М.: 1963, с. 61.
7. Эшби У.Р. Введение в кибернетику. -М.: 1963.
8. Усмонов С. Умумий тилшунослик. -Тошкент: Ўқитувчи, 1972.
9. Баскаков Н.А., Содиқов А.С., Абдуазизов А.А. Умумий тилшунослик. -Тошкент: Ўқитувчи, 1979.

19-mavzu: Oppozitiv metod Reja:

1. Oppozitiv metod haqida tushuncha.
2. Tovushlarning ma'no farqlash funktsiyasi haqida ta'limot.

Tayanch so'z va iboralar: *oppozitiv metod, fonologik muhim (relevant) yoki fonologik zidlanish, fonologik nomuhim (irrelevant) yoki fonologik bo'lmagan zidlanishlar, fonologik mundarija.*

Ferdinand de Sossyurning: “Tilda o'xshashlik va farqlashdan boshqa hech narsa yo'q”, - degan bosh g'oyasi lingvistik oppozitsiyalar tushunchasining tug'ilishiga va lingvistik oppozitsiyalarni o'rganuvchi oppozitiv metodning tug'ilishiga sabab bo'ladi.

Darhaqiqat, bizning bilish jarayonimiz sezgi a'zolarimizga ta'sir qilayotgan narsa va hodisalarning o'xshash tomonlarini aniqlash va shu belgi asosida ularni muayyan sinflarga birlashtirish va, ayni paytda, o'xshashlik asosida birlashgan a'zolari bir-biridan farqlashdan iboratdir. Farqlash esa zidlashni taqozo etadi. Bir sinfga ma'lum o'xshash belgi asosida birlashgan a'zolari farqlash ularni bir-biriga zidlashni taqozo etadi. Chunki o'xshash narsa va hodisalar muayyan belgi asosida zidlangandagina ularning farqli tomonlari namoyon bo'ladi.

Gnoseologiyaning ana shu tamoyilini Praga tilshunoslari o'zlarining tadqiqot metodiga aylantirdilar. Natijada tilshunoslikda oppozitiv metod maydonga keldi.

Oppozitiv metod N.S.Trubetskoy nomi bilan bog'liqdir. U o'zining “Fonologiya asoslari” kitobi orqali bu metodga asos soldi.

N.S.Trubetskoy zidlanishlarni fonologik sath misolida tadqiq qilar ekan, ularni turlicha tasnif qiladi.

U, avvalo, zidlanishlarni ikki guruhga ajratadi; a) fonologik muhim (relevant) yoki *fonologik*; b) fonologik nomuhim (irrelevant) yoki *fonologik bo'lmagan* zidlanishlar.

Ma'lum bir tildagi ikki so'zni bir-biridan farqlash uchun xizmat qiluvchi tovush zidlanishlari fonologik (fonologik-distinktiv yoki ma'no farqlash) zidlanish sanaladi. Bunday

*funktsiyani bajarmaydigan zidlanish esa fonologik bo'lmagan yoki **fonologik nomuhim** zidlanish hisoblanadi.*¹

Har bir nutq tovushi bir qancha artikulyatsion va akustik belgilarga ega bo'ladi. Masalan, o'zbek tilida b tovushini talaffuz qilish uchun bir qancha artikulyatsion harakatlarni bajarish kerak bo'ladi. Hususan, lab labga tegadi va o'pkadan chiqayotgan havo bu to'siqni yorishi natijasida to'siq ochiladi. Bundan tashqari, yuqoridagi har bir artikulyatsion harakatga akustik belgi ham qo'shiladi. Lekin bu artikulyatsion va akustik "atom"larning hech birini fonologik birlik sifatida qarab bo'lmaydi. Chunki bu "atom"larning barchasi birgalikda vazifa bajaradi. Shuning uchun b barcha artikulyatsion-akustik belgilarni o'zida mujassam etgan bir butunlik sifatida fonologik birlik sanaladi.


Fonologiyaning o'rganish birligi fonemadir. N.S.Trubetskoyning fikricha, *muayyan til nuqtai nazaridan ketma-ket boshqa mayda fonologik birlikka bo'linmaydigan fonologik birlik fonema hisoblanadi.*²

Strukturalizm g'oyasi dastlab Praga tilshunoslari vakillari tomonidan fonetik tadqiqotlar jarayoniga qo'llanildi. Tilning tovush tomonini strukturalizm tamoyillari asosida o'rganish fonologiya nomi bilan yuritiladi. Strukturalistlar eng avvalo sistema ichida mavjud bo'lgan munosabatlarga e'tiborini qaratadilar.

Struktura tushunchasi ostida butun tarkibidagi elementlarning o'zaro shartlangan munosabati yotadi, ya'ni butun tarkibidagi har bir element boshqalari bilan shartlangan bo'ladi. Struktura elementlarining o'zaro bunday munosabatini tushunish uchun tilning tashqi belgilarini soqit qilish kerak bo'ladi.

Til strukturasi - bu bevosita kuzatishdan yashiringan va ilmiy, struktur tahlil asosida tiklanadigan tilning ichki asosidir. L.Novak ana shu tamoyil asosida fonemaning quyidagi talqinini beradi: **"Fonema"** *boshqa mayda bo'lakka bo'linmaydigan va shu tilning barcha ichki funktsiyalarining o'zaro kesishishi tufayli aniqlanadigan eng kichik элементдир*¹

Ana shu nuqtai nazardan rus tilidagi *t* fonemasining fonologik belgilari quyidagi aloqalar orqali aniqlanadi:



T fonemasi bu sxemada belgilarning o'xshashligi va farqlanishi asosidagi o'zaro kesishishi orqali aniqlanadi. Ya'ni *p-t-k* munosabati asosida artikulyatsiya o'rniga bog'liq belgi aniqlanadi. *T-T₁* munosabatida qattqlik-yumshoqlik belgisi *t-s* akustik to'siq xarakteri (portlovchilik-sirg'aluvchilik belgisi), *t-d* munosabatida akustik belgi (jaranglilik-jarangsizlik belgisi), *t-ts* zidligi orqali esa soddalik-qorishqlik belgisi aniqlanadi. Ana shular asosida bu fonema strukturasi til oldilik, jarangsizlik, portlovchilik, qattqlik, soddalik belgilarining o'zaro munosabatidan tashkil topgan butunlik sifatida talqin etiladi.

N.S.Trubetskoy fonema va variantni bir-biridan farqlaydi. Uning ta'kidlashicha, real talaffuz qilinayotgan va eshitilayotgan har qanday tovush fonologik muhim belgilar bilan birga, bir qancha fonologik nomuhim belgilarga ham ega bo'ladi. Shuning uchun hech bir tovushni fonema sifatida e'tirof etib bo'lmaydi. Bunday tovushlar muayyan fonemaning turlicha voqelanishi sanaladi. Demak, har qanday fonema bir qancha tovushlar orqali voqelanadi. Nutqiy

¹ Трубецкой Н.С. Основы фонологии. -М.: 1960, -С.38.

² Трубецкой Н.С. Ўша асар. -С.42.

¹ Пражский лингвистический кружок, -Сб.статей. -М.: 1967. -С.97.

akt esa tovushlardan tashkil topadi. Bir umumiy fonemaning nutiq jarayonda turli tovushlar orqali voqelanishi fonemaning variantlari hisoblanadi.²

Praga tilshunoslarining fonologik nazariyadagi katta xizmatlari shundaki, ular qanday qilib fonema bilan uning variantini farqlash qoidalarini ko'rsatib berdilar. Ular to'rtta qoidani ajratadilar:

Birinchi qoida. Ma'lum bir tilda ikki tovush bir fonetik sharoitda ma'noga ta'sir etmagan holda o'zaro erkin almashina olsa, bunday tovushlar bir umumiy fonemaning turli fakultativ variantlari sanaladi. Masalan, *opa*, *Qo'qon* shevasida *apa*.

Ikkinchi qoida. Ma'lum bir tilda ikki tovush bir fonetik sharoitda ma'no yoki fonetik qiyofasini topib bo'lmaz darajada o'zgarishiga olib kelmagan holda biri o'rnida ikkinchisi kela olmasa, bunday tovushlar ikki fonemaning vakillari sanaladi. Masalan, o'zbek tilida *ot* va *it* so'zlarida *o* va *i* tovushlarining o'zaro almashinishi so'zlarning ma'no o'zgarishiga olib keladi. Demak, ular ikki fonemaning vakillari sanaladi.

Uchinchi qoida. Agar ikki akustik (yoki artikulyatsion) o'xshash tovush bir xil fonetik sharoitda hech qachon kela olmasa, ular bir fonemaning kombinator variantlari hisoblanadi.

To'rtinchi qoida. Agar ikki tovush uchinchi tovushga muvofiq kelsa-yu, lekin nutqiq zanjirda tovush birikmasi hosil qilgan holda ketma-ket kelolsa, ularning bir-biriga variant deb hisoblab bo'lmaydi.

Praga tilshunoslarining yana bir yutug'i shundan iboratki, ular fonologik zidlanishlarni mantiqiy jihatdan tasnif qildilar.

Fonologik zidlanishlar tasnifi uchun **fonologik mundarija** tushunchasiga tayandilar. **Fonologik mundarija atamasi ostida fonemaning barcha fonologik muhim belgilari yig'indisi**, ya'ni shu fonemaning barcha variantlari uchun umumiy bo'lgan belgilar tushuniladi. Masalan, o'zbek tilidagi D fonemasining fonologik mundariyasi "til oldilik", "portlovchilik", "jaranglilik" belgilarini o'z ichiga oladi. Fonologik zidlanishlar esa fonemalarning ana shu belgilariga asoslanadi.

N.S.Trubetskoy fonologik zidlanishlarni quyidagi belgilarga ko'ra tasnif etadi.

A. Zidlanish sistemasiga ko'ra;

B. Zidlanuvchi a'zolar o'rtasidagi munosabatga ko'ra;

V. Zidlanuvchi a'zolarining ma'no farqlash kuchiga ko'ra.

A. Zidlanish sistemasiga ko'ra zidlanish turlari

Bu belgiga ko'ra zidlanishlar bir o'lchovli va ko'p o'lchovli, ajralgan va proportsional zidlanishlarga bo'linadi.

Zidlanishlar zidlanuvchi a'zolari farqlash uchun xizmat qiladigan belgilarnigina emas, balki har ikki zidlanayotgan a'zolar uchun umumiy bo'lgan belgini ham taqozo etadi. Bunday belgilar «*qiyoslash uchun asos*» bo'lib xizmat qiladi.

Qiyoslash uchun asos belgiga ega bo'lmagan ikki narsa o'zaro zidlanishi mumkin emas. Qiyoslash uchun asos bo'lgan belgiga ko'ra zidlanishlar ikki turli bo'ladi: 1) *bir o'lchovli*, 2) *ko'p o'lchovli*.

Bir o'lchovli zidlanishlar zidlanuvchi a'zolarining zidlanishlari uchun asos bo'lgan belgi faqat shu zidlanish uchunгина xos bo'lib, zidlanish sistemasining boshqa a'zolarida uchramaydi. Masalan, lotin grafik sistemasidagi *E* va *F* harflari zidlanishini olib ko'raylik. Bu harflarning zidlanishi bir o'lchovlidir. Chunki bu ikki harf o'rtasidagi o'xshash belgilar yig'indisi (vertikal chiziq va ikki gorizontal chiziq) lotin alfavitidagi boshqa hech qaysi harfda uchramaydi. Aksincha, *P* va *R* harflari zidlanishi esa *ko'p o'lchovlidir*. Chunki bu harflar o'rtasidagi o'xshash (qiyosga asos bo'lgan) belgilar (vertikal chiziq va uning ustiga o'ng tomondan chizilgan yarim doira) faqat shu juftlikdagina emas, balki boshqa harflarda ham mavjud (masalan, *B* harfida).

² Трубецкой Н.С. Ўша асар. –С. 42.

Bir o'lchovli va ko'p o'lchovli zidlanishlarning ajratilishi tilshunoslikda juda katta ahamiyatga ega. Bunday zidlanishlar tilning barcha sathlarida uchraydi.

Bundan tashqari birinchi belgiga ko'ra zidlanishlarning proportsional va ajralgan turlari ham mavjud.

Ma'lum bir zidlanish a'zolari o'rtasidagi munosabat til sistemasining boshqa zidlanish a'zolari o'rtasidagi munosabat bilan bir xil bo'lgan zidlanishlar proportsional zidlanish hisoblanadi. Masalan, o'zbek tili fonologik sistemasidagi

k-g fonemalarining zidlanishi proportsionaldir. Chunki bu zidlanish a'zolari o'rtasidagi munosabat, ya'ni jarangsizlik, portlovchilik belgisi asosida umumiylikni hosil qilishi faqat shu juftlik uchungina emas, balki *p-b*, *t-d* kabi juftliklar uchun ham xosdir. Ma'lum bir zidlanish a'zolari o'rtasidagi qiyos uchun asos bo'lgan belgi til sistemasidagi zidlanishlarning hech qaysisida uchramaydigan zidlanish ajralgan zidlanish sanaladi. Masalan, *b* va *l* juftliklari o'rtasidagi zidlanish ajralgandir. Chunki bilabiallik va labiodentallik belgilari boshqa hech bir juftlikda qiyos uchun asos bo'lmaydi.

B. Zidlanish a'zolari o'rtasidagi munosabatga ko'ra zidlanish turlari

Zidlanish a'zolari o'rtasidagi munosabatga ko'ra zidlanishlar *privativ* (qiyosga asos bo'lgan belgi birida bor, ikkinchisida yo'q bo'lgan zidlanish), *darajali* (gradual) va *teng qimmatli* (ekvipolent) zidlanishlarga bo'linadi.

Zidlanuvchi a'zolarining birida zidlanish uchun asos bo'lgan belgining mavjudligi, ikkinchisida esa yo'qligiga asoslangan zidlanish *privativ* zidlanish hisoblanadi. Zidlanuvchilarning belgiga ega bo'lgan a'zosi belgili (markirlangan), kuchli, belgiga ega bo'lmagan a'zosi esa belgisiz (markirlanmagan), kuchsiz a'zo deyiladi. Masalan, *t-d*, *k-g* undoshlari zidlanishlari *privativ* sanalib, zidlanuvchi juftliklarning har birida birinchi a'zo «ovoz» (jarang) belgisining yo'qligi, ikkinchisi esa borligi bilan xarakterlanadi. »(Bunday zidlanishlarning grafik ifodasi uchun kuchsiz a'zoga «-», kuchli a'zoga « belgisi qo'yiladi. Masalan, so'z turkumlari sistemasida ot bilan fe'l o'rtasida qiyos uchun asos bo'lgan belgi «harakat» sanalib, birinchisi bu belgining yo'qligi (-), ikkinchisi esa borligi (Q) bilan xarakterlanadi.

Zidlanuvchi a'zolar bir belgining turli darajasini (gradatsiyasini) ko'rsatuvchi zidlanish *darajali* zidlanish hisoblanadi. Masalan, unlilarda og'iz ochilishining turli darajasini ko'rsatuvchi *u-o* -*o*, *i-e-a* o'rtasidagi zidlanish.

Darajali zidlanish ko'p a'zoli bo'lib, darajalanish silsilasidagi birinchi va so'ngi a'zo *chegara* a'zolar, ular o'rtasidagi a'zolar esa *oraliq* a'zolar sanaladi.

Chegara a'zolar zidlanishning ikki qutbini tashkil etadi va maksimal zidlanish hosil qiladi.

Zidlanuvchi a'zolarining har ikkisi mantiqan teng bo'lgan, ya'ni belgining ikki darajasini ham, bor yoki yo'qligini ham bildirmaydigan zidlanishlar *teng qimmatli* (ekvipolent) zidlanish hisoblanadi. Masalan, *opa-singil*, *ota-ona* zidlanishi.

Shuni ta'kidlash kerakki, zidlanishlarning yuqoridagi turlarini ajratish til sistemasining konkret shart-sharoiti bilan bog'liq. Bu sistemaning konkret shart-sharoitidan ajratib olingan ayni bir zidlanish *privativ* ham, *darajali* ham bo'lishi mumkin. Masalan, *u-o* o'rtasidagi zidlanish og'izning ochilishi darajasi sifatida olinsa, *privativ* ziddiyat bo'ladi. Zidlanuvchilardan biri og'iz ochilishining «nul» darajasi sifatida qabul qilinadi. Bu vaqtda *u* (ochiq emas), *o* esa «ochiq», yoki *u* «yopiq», *O* esa «yopiq emas» tarzida zidlanadi. Xuddi shu belgiga ko'ra til sistemasidagi *u* ga nisbatan ochiqroq unli *o* ' e'tiborga olinsa, *u* bilan *o* o'rtasidagi zidlanish darajali zidlanishga aylanadi. Bu vaqtda *u* va *o* zidlanishning chegara a'zolari, *o* ' esa oraliq a'zo bo'lib qoladi. Shunday qilib, *u* yoki bu zidlanishni *privativ*, *darajali* va *teng qimmatli* zidlanish sifatida baholanishi bizning qanday nuqtai nazardan yondashuvimizga bog'liq.

Lekin bundan *u* yoki bu zidlanishni belgilash sof sub'ektiv xarakterga ega degan xulosaga kelmaslik kerak.

Shuni ta'kidlash kerakki, zidlanishning o'zida uni ma'lum bir turga kiritish uchun asos bo'ladigan qandaydir belgi mavjud bo'ladi. Tilning sistemaviy tuzilishining o'zi va uni funktsiyalashuvi ko'p hollarda zidlanishning ob'ektiv va aniq turini ajratishga imkon beradi. Yuqorida ko'rib o'tgan *u* va *o* fonemalari o'rtasidagi munosabat privativ zidlanish sifatida ham, darajali zidlanish sifatida ham tasavvur etilishi mumkin. Lekin amalda ularning qaysisi reallashayotgani shu fonologik sistemaning tuzilishi va qo'llanishi bilan bog'liq bo'ladi.

V. Zidlanuvchi a'zolarining ma'no farqlash kuchiga ko'ra zidlanish turlari

Zidlanuvchi a'zolarining ma'no farqlash kuchiga ko'ra zidlanishlar *doimiy* va *mo'tadillashgan* turlarga ajratiladi. Zidlanishlarning bunday tasnifi til sistemasining konkret sharoitda yuzaga chiqishiga-funktsiyalashuviga asoslanadi. Sistema-funktsiya tamoyiliga amal qiladi.

Til sistemasidagi zidlanuvchi a'zolar nutq jarayonida muayyan sintagmatik munosabatga kirishganda ham zidlanishga asos bo'lgan belgini saqlab qolsa, *doimiy* zidlanish, aksincha, saqlab qolmasa, *mo'tadillashgan* zidlanish sanaladi. Masalan, o'zbek tilida so'z oxiri jarangli va jarangsiz undoshlar zidlanishi uchun kuchsiz vaziyat sanaladi. Ana shu vaziyatda zidlanuvchi a'zolar zidlanish belgisini yo'qotadi, mo'tadillashadi: Masalan, *bob-bop*, *tog'-toq*.

Mo'tadillashgan zidlanish ham barcha zidlanishlar kabi faqat fonologik sath uchungina xos emas. Ularning barchasi tilning hamma sathlarida uchraydi. Jumladan, birlik va ko'plik morfemalari o'rtasidagi zidlanish hurmat ma'nosini ifodalaganda mo'tadillashadi.

Savol va topshiriqlar:

1. Tovushlarning qanday vazifalari ajratiladi?
2. Fonologik zidlanishlar yuzasidan fikr yuritiladi?
3. Fonologik zidlanishlarning tasnif haqida gapring.
4. Praga tilshunoslari fonemaga qanday yondashadi?
5. Fonema va uning varianti qanday qoidalar asosida ajratiladi?
6. Fonema mundarijasi deganda nimani tushunadi?

Адабиётлар

1. Степанов Ю.С. Методы и принципы современной лингвистики. –М.: 1975.
2. Общее языкознание. Методы лингвистических исследований. –М.: 1973.
3. Нурмонов А. Структур тилшунослик: илдиэлари ва йўналишлари. –Тошкент: 2009.
4. Нурмонов А., Искандарова Ш. Тилшунослик назарияси. Тошкент: Фан, 2008.
5. Брендаль В. Структуральная лингвистика. - В. кн. Звегинцев В.А. "История языкознания XIX и XX веков в очерках и извлечениях". Ч.II. –М.: 1960.
6. Трубецкой Н.С. Основы фонологии. -М.: 1960.

X U L O S A

1. Har qanday izlanuvchi ilmiy tadqiqot ishini olib borish jarayonida ma'lum metodologiyaga tayanadi va fanning muayyan metodlari asosida ish ko`radi. Shunday ekan, ilmiy tadqiqot olib borishni o`z oldiga maqsad qilib olgan qar bir yosh izlanuvchi metodologiya va metod masalarini yaxshi o`zlashtirmog`i lozim.
2. Ilmiy tadqiqot metodlari tushunchasi nihoyatda keng tushuncha bo`lib, falsafiy metodlarni ham o`z ichiga oladi. Har bir falsafiy metod xususiy fanlar bo`yicha olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlar uchun metodologik asos bo`lib xizmat qiladi. Falsafiy metodlardan qoli bo`lgan ilmiy tadqiqotlar mavjud emas.
3. Ilmiy tadqiqot metodlari shajaraviy, ko`p bosqichli tabiatga ega bo`lib, falsafiy metodlar, xususiy ilmiy metodlar, distsiplinar metodlarga bo`linadi. Ayni paytda, har bir xususiy ilmiy metod ilmiy tadqiqot aspektlari va ilmiy tadqiqot tamoyillariga ega bo`ladi. Har bir metod boshqasidan ilmiy tadqiqot tamoyillari bilan ajralib turadi. Shuning uchun ham xususiy ilmiy tadqiqot metodlarining asoschilari u yoki bu metodga asos solar ekan, ushbu metodga xos tamoyillarni ham ishlab chiqadi.
4. Ilmiy tadqiqotning xilma – xil metodlari bir – biridan ajralgan holda emas, balki o`zaro bog`liq, bir – biri bilan hamkorlikda funktsiyalashadi. Masalan, struktur metodlar tavsifiy metod bergan materiallarga suyanadi. Struktur metodning tarmoylari bo`lgan distributiv metod ham oppozitiv metod bilan uzviy aloqadordir. Lingvistik oppozitsiyalar distributiv munosabatlarga tayanib ish ko`radi.
5. Falsafiy metodlar xususiy ilmiy metoddan ajralgan holda alohida yashamaydi. U xususiy ilmiy metodlarga singgan holda, metodologik asos rolini o`ynaydi. Shuning uchun ham umumfalsafiy metoddan ajralgan xususiy ilmiy metod mavjud bo`lmaydi. Falsafiy metodlar xususiy ilmiy metodlar orqali yuzaga chiqadi.

Мундарижа

1. ma'ruza Ontologiya va gnoseologiya haqida ma'lumot. Bilish va uning ahamiyati. Bilish darajalari.....	3
2. ma'ruza. Empirik va ratsional bilish.....	4
3. ma'ruza. Fan va ilmiy bilish.	12
4. ma'ruza. Ilmiy tadqiqot metodi va metodologiyasi.	15
5. ma'ruza. Umumilmiy va xususiy ilmiy metodlar.....	24
6. ma'ruza. Ilmiy tadqiqot tamoyillari.....	27
7. ma'ruza. Ilmiy tadqiqot aspektlari.....	30
8. ma'ruza. Umumiy va xususiy metodlar hamkorligi.....	31
9. ma'ruza. Xususiy metodlar hamkorligi.....	34
10. ma'ruza. Tilni o'rganish metodlari.....	37
11. ma'ruza. Tarixiy-genetik (geneologik) metodi.....	39
12. ma'ruza. Glottoxronologiya metodi.....	42
13. ma'ruza. Kvantitativ metodi.....	44
14. ma'ruza. Struktur metod va uning yo'nalishlari.....	50
15. ma'ruza. Glossemantika.	52
16. ma'ruza Distributiv tahlil metodi.....	55
17. ma'ruza. Bevosita ishtirokchilar metodi.....	60
18. ma'ruza. Transformatsiya metodi.....	65
19. ma'ruza. Oppozitiv metodi.....	69
20. Хулоса.....	76
21. Мундарижа.....	77